



XOLIDA ALIMOVA

DARIY TILI

زبان دری

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

XOLIDA ALIMOVA

DARIY TILI

(MORFOLOGIYA)

TOSHKENT – 2009

Mazkur o'quv qo'llanma hozirgi dariy tili morfologiyasiga doir ma'lumotlarni qamrab olgan bo'lib, unda dariy tilidagi mustaqil so'z turkumlari, har bir turkumga oid so'zlarning grammatik xususiyatlari, ularning yasalishi tahlil etiladi.

O'quv qo'llanma ToshDSHda 5220100 – filologiya (dariy) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Qo'llanmadan dariy tili masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent ***O.Z.Shokirov***

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent ***O.Z.Shokirov***

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent ***J.Hazratqulov***

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma, 16.10.2008).

© Alimova Xolida, 2009

KIRISH

Dariy tili (shuningdek, forsiy, forsi-ye kobuliy atamaları ham mavjud) hind-yevropa tillari oilasining eron guruhiga kiradi. Hozirgi zamon dariy, fors va tojik tillari til qurilishi jihatidan qarindosh tillar hisoblanadi. Mazkur tillarning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlari bir-birlariga batamom mos keladi, ularning eng asosiy yozma manbalari esa umumiydir.

Bu tillar tarixida islom dunyosi fathidan soʻng boshlangan yangi bosqich (X-XV asrlar) arab yozuviga asoslangan. Adabiyot bu davrda kamolot choʻqqisiga chiqdi. Mazkur davr insoniyatning maʼnaviy boylıkları xazinasiga katta hissa qoʻshilgan klassik davr sanaladi. Ming yillar davomida forsiyzabon dunyoning fan va adabiyot markazi navbatma-navbat goh u, goh bu (baʼzan bir-biridan uzoq) jugʻrofiy mintaqalarda mahalliy madaniy va til xususiyatlarini aks ettirgan holda rivojlandi. Yozma yodgorliklarda mahalliy til variantlarining taraqqiyoti oʻz aksini topgan. Bu esa pirovardida mustaqil yozma adabiy til huquqiga ega hozirgi zamon dariy, fors va tojik tillarining vujudga kelishiga sabab boʻldi.

Oʻrta davr fors tilidan yangi davrga va yangi fors tili davridan hozirgi zamonga oʻtish jarayonida mazkur tillarning grammatik qurilishida baʼzi ichki va tashqi oʻzgarishlar sodir boʻldi. Bu borada Afgʻonistondagi dariy tili oʻzining arxaikligi bilan ajralib turadi. Oʻtmishdagi davr tillariga xos bir qator xususiyatlar dariy tilida saqlanib qolgan¹.

ToshDSHI eron-afgʻon filologiyasi kafedrasida fors va dariy tillari oʻqitiladi. Biroq fors tiliga nisbatan dariy tilini oʻqitish imkoniyatlari ancha cheklangan. Bu, avvalo, darsliklar taʼminoti bilan bogʻliq.

¹ 1965 yilda Afgʻonistondagi «forsi-ye kobuliy»ni rasman «dariy tili» deb eʼlon qilinishiga shu sabablar asos boʻlgan. Chunki eronshunoslikda «dariy» (baʼzan «forsi-ye dariy») atamasi asosida klassik fors-tojik adabiyoti gullab-yashnagan davrdagi (IX-X asrlardan boshlab) Xuroson va Movarounnahr tili tushuniladi. Hozirgi Afgʻoniston sharoitida qadimiy atamaning tiklanishi klassik tildan to hozirgi zamon dariy tiligacha boʻlgan davrda adabiy anʼanalarning uzluksizligini taʼkidlashdan iborat edi.

Ushbu qoʻllanma dariy tili morfologiyasiga bagʻishlangan boʻlib, unda mustaqil soʻz turkumlari, har bir turkumga oid soʻzlarning grammatik xususiyatlari, ularning yasalishi tahlil etiladi. Uni tuzishda oʻzbek, rus va afgʻon olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy maqola va darsliklardan foydalanildi.

Maʼlumki, keyingi vaqtda nashr etilgan ishlarda soʻz yasalishi til fanining mustaqil qismi sifatida berilgan. Qoʻllanma hozirgi dariy tili grammatikasi boʻlgani sababli unga grammatik soʻz yasalishigina kiritildi. Ayrim mulohazalarni koʻzda tutib, soʻzlarning har bir lek-sik-grammatik kategoriyasining yasalishi oʻsha turkumning oʻz ichida berildi.

Qoʻllanma dariy tilini oʻrganuvchi talabalarga moʻljallangan boʻlib, nafaqat dariy, balki oʻzbek tili grammatikasi (morfologiyasi) haqida ham qisman maʼlumot beradi.

Oʻzbek tili grammatikasiga oid manbalarni tadqiq qilish hali oʻz ona tilimizda ham ayrim mavzular ustida barqaror fikrga kelinmaganligini koʻrsatdi (zamon kategoriyasi, mayl kategoriyasi va b.). Masalan, oʻzbek tilida oddiygina bir hol – tuslovchilarning nomlanishini olib koʻraylik. Bular turli kitoblarda turlicha beriladi, yaʼni shaxs-son qoʻshimchalari, shaxs-son affikslari, shaxs-son koʻrsatkichlari, shaxs-son formantlari. Quyida ham ana shunday nomlanishlarga yoʻl qoʻyildi. Qoʻllanmada dariycha misollar L.N.Kiseleva va V.I.Mikolaychik tomonidan tuzilgan «Дари-русский словарь» (M., 1986)da qabul qilingan transkripsiya asosida berildi.

Qoʻllanma dariy tili sohasida qilingan dastlabki ishdir. Shuning uchun unda turli nuqson va kamchiliklar boʻlishi tabiiy. Mazkur qoʻllanma ustida bundan buyon ham ish olib borish yuzasidan bayon qilinadigan tanqidiy mulohazalar va takliflar katta mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

MORFOLOGIYA

SO‘Z TURKUMLARI

Dariy tilida so‘zlarni ma’no va grammatik (morfologik va sintaktik) shakllari jihatidan uchta yirik guruhga bo‘lish mumkin: 1) mustaqil so‘zlar; 2) yordamchi so‘zlar; 3) alohida guruh so‘zlar².

Mustaqil so‘zlar predmetning nomini, belgisini, soni va tartibini, harakati va holatini, shuningdek, harakat va holatning belgisini bildirib, bevosita gap bo‘laklari vazifasini bajara oladi. Dariy tilida mustaqil so‘zlarga ot (اسم *esm*), sifat (سفت *sefat*), son (عدد *adad*), olmosh (ضمير *amir*), fe‘l (فعل *fe‘l*) va ravish (قيد *qayd*) kiradi. Olmoshdan tashqari, mustaqil so‘zlar borliqdagi biror hodisaning atamasi, oti sifatida qo‘llanadi; olmosh atama bo‘la olmaydi, balki ularga ishora qiladi yoki ularni ko‘rsatadi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil ravishda gap bo‘laklari vazifasida kela olmaydi, o‘zicha yakka holda ma’no bermaydi. Ular leksik ma’no ifodalovchi so‘zlar orasidagi grammatik aloqani – bog‘lanishni shakllantiradi; gap yoki uning tarkibidagi ayrim so‘zlarga qo‘shimcha ma’no (so‘roq, gumon, ta’kid, kuchaytiruv kabi) qo‘shish uchun xizmat qiladi. Dariy tilida yordamchi so‘zlarga old va ort ko‘makchi, yuklama va bog‘lovchilar kiradi. L.N.Kiseleva, shuningdek, bu turkumga enklitik olmoshlar, hisob so‘zlari, artikl, izofa hamda fe‘l bog‘lamasining qisqa shaklini ham kiritadi [2:100].

Alohida guruh so‘zlar. Mustaqil va yordamchi so‘zlarning oralig‘idagi bu turkumga modal so‘zlar, undovlar va taqlidiy so‘zlar kiradi. Ular o‘ziga xos ma’no nozikligi va vazifalari jihatidan birbiridan farq qiladi. Chunonchi, modal so‘zlar o‘z konkret, mustaqil leksik ma’nosini yo‘qotgan bo‘lib, nutqda tasdiq, ishonch, gumon kabi modal ma’nolarni ifodalaydi; garchi modal so‘zlar bu jihatdan yuklamalarga o‘xshasa ham, grammatik jihatdan ulardan farq qiladi. Undovlar va taqlidiy so‘zlar esa ma’no va vazifasi jihatidan qisman mustaqil so‘zlarga o‘xshab ketsa-da, hodisaning atamasi bo‘la olmasligi, yuklama bajaradigan vazifada qo‘llanishi bilan yordamchi so‘zlarni eslatadi.

² Bu termin shartli ravishda qo‘llandi: mazkur guruhdagi so‘zlar grammatika darsliklari va qo‘llanmalarida turlicha tasnif bilan izohlab kelinadi.

I. OT اسم *esm*

Ot predmetlik ma'nosini ifodalaydigan so'z turkumidir. Dariy tilida kishilarni ifodalovchi otlar *ke?*, *ki?*, *'kim?'* degan so'roqqa javob bo'ladi: *In kist?* – این کیست *In doxtar ast* 'Bu kim? Bu – qiz (bola)'.

Hayvonot va jonsiz predmetlarni ifoda etuvchi otlar *če?*, *či?* 'nima?' so'rog'iga javob bo'ladi: *In čist?* این چیست *In ketâb ast* 'Bu nima? Bu kitobdir'. Dariy tilida otlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra dastlab ikkiga ajraladi: turdosh otlar اسم عام *esm-e âm(m)* va atoqli otlar اسم خاص *esm-e xâs(s)*.

Bir xildagi predmetlarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot اسم عام *esm-e âm(m)* deyiladi: *šahr* 'shahar', مرد *mard* 'kishi', دریا *daryâ* 'daryo' kabi.

Bir xildagi predmet yoki hodisalardan birini ayirib ko'rsatadigan otlar atoqli otlar اسم خاص *esm-e xâs(s)* deyiladi. Kishilarning ismi va taxallusi *Ališêr* 'Alisher', نورزی *Nurzay* 'Nurzay'), jug'rofiy nomlar *Hazârajat* 'Hazorajot', بدخشان *Badaxšân* 'Badaxshon'), tarixiy voqea, bayram va hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, kinofilm, spektakl, ro'znoma, jurnal nomlari atoqli ot bo'ladi. Atoqli otlar, odatda, ko'plik shakli ishlatilmasligi bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Turdosh otlar, ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko'ra, o'z ichida aniq ذات اسم *esm-e zât* va mavhum (abstrakt) اسم معنی *esm-e ma'ni* otlarga bo'linadi:

1. Aniq otlar bevosita predmetni bildiradi: *ketâb* 'kitob', آب *âb* 'suv', بچه *bača* 'bola' kabi.

2. Mavhum otlar predmet sifatida tasavvur qilinadigan noaniq mavhum tushunchalarni ifodalaydi: دوستی *dôsti* 'do'stlik', مردی *mardi* 'mardlik', 'jasorat', محبت *mohabbat* 'muhabbat' kabi.

Turdosh otlarning birlik shakli yakka predmetni yoki predmetlar to'ldasini ifodalashi mumkin. Shunga ko'ra, turdosh otlar yana quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Yakka otlar birlik shaklda bir xil predmetlarning bittasini bildiradi: قلم *qalam* 'ruchka', taxta *taxta* 'doska' kabi.

2. Jamlovchi otlar birlik shaklda ham bir xil predmetlarning to‘dasini, jamini (birdan ortig‘ini) bildiradi: خلق *xalq* ‘xalq’, اردو *ordu* ‘armiya’, ميوه *mêwa* ‘meva’, رمة *rama* ‘poda’ kabi.

Bunday otlar ko‘plik affiksi bilan ishlatilganda, o‘sha turdagi xilma-xil guruhlarini bildiradi: مردمان *mardomân* ‘xalqlar’, قومها *qawmhâ* (اقوام *aqwâm*) ‘xalqlar’, ‘elatlar’, ‘qarindosh-urug‘lar’ kabi.

1.1. Otlarning grammatik kategoriyalari

Dariy tilida otlar jins kategoriyasiga ega emas. Tabiiy rodlarga ajratishda leksik vosita (so‘z)lardan foydalaniladi: قوچ *qôç* ‘qo‘ch-qor’, ميش *mêš* ‘qo‘y’; خروس *xorus* ‘xo‘roz’, ماکيان *mâkiyân* ‘tovuq’, پيرمرد *pirmard* ‘chol’, پيرزن *pirzan* ‘kampir’; پدر *padar* ‘ota’, مادر *mâdar* ‘ona’ kabi.

Jins ma‘nosini ko‘rsatishda odamlar uchun مرد *mard* ‘erkak’, زن *zan* ‘xotin’, ‘ayol’, دختر *doxtar* ‘qiz’, jonivorlar uchun نر (نره) *nar* (*nara*) ‘erkak’, ماده *mâda* ‘urg‘ochi’, ‘moda’ so‘zlari ishlatiladi: داکتر زن *dâktarzan* ‘ayol doktor’, نر گاو (گاو نر) *nargâw* (*gâw-e nar*) ‘buqa’, ‘ho‘kiz’, ماده گاو (گاو ماده) *mâdagâw* (*gâw-e mâda*) ‘sigir’, نره خر *naraxar* ‘eshak’ (erkagi), ماده خر *mâdaxar* ‘eshak’ (urg‘ochisi) kabi.

Arab tilidan kirib kelgan ayollarning ismi, kasb-hunarini ifodalovchi otlarda jinsning morfologik belgisi -a hisoblanadi: محبوبه *Mahbuba* ‘Mahbuba’, فريده *Farida* ‘Farida’, آمره *âmera* ‘boshliq ayol’, معلمه *mo‘allema* ‘muallima’, شاعره *šâ‘era* ‘shoira’, راقصه *raqqâsa* ‘raqqosa’ kabi.

Dariy tilida arab tilidan kirib kelgan مؤنث *moannas* va مذکر *mozakkar* rodga taalluqli otlarning ayrimlari arabcha ko‘plik shaklida ham jinslik xususiyatini saqlab qolgan. Masalan, معلمه *motaalema* ‘o‘quvchi qiz’ – متعلمات *motaalemât* ‘o‘quvchi qizlar’, معلم *motaallem* ‘o‘quvchi bola’ – متعلمين *motaallemîn* ‘o‘quvchi bolalar’ kabi.

1.2. Otlarda son

Otlar birlik va ko‘plik sonda qo‘llanadi. Dariy tilida otlar ko‘plikda ان *-ân* (يان *-yân*, گان *-gân* fonetik shakllari) yoki ها *-hâ* (og‘z. -â) affiksini oladi.

ها *-hâ* suffiksi universal hisoblanib, ham jonli, ham jonsiz predmetlarga qo‘shiladi: مکتبها *maktabhâ* ‘maktablar’, دخترها *doxtarhâ* ‘qizlar’.

ان -*ân* suffiksi ko‘proq jonli predmetlarga orttiriladi: زنان *zanân* ‘ayollar’, مردان *mardân* ‘erkaklar’, ‘kishilar’ (bular bilan bir qatorda, زنها *zanhâ*, مردها *mardhâ* shakllari ham ishlatila beradi).

ان -*ân* suffiksini jonsiz predmetlarga nisbatan qo‘llash kitobiy hamda she‘riy uslubga xosdir.

ان -*ân* suffiksinining یان -*yân*, گان -*gân* shakllari quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) birlik shakldagi so‘z ا، ی، و *i, u/ô* cho‘ziq unlilariga tugallangan bo‘lsa, ko‘plik affiksi ان -*ân* orttirilganda, یان -*yân* shaklida qo‘llanadi: دانا *dânâ* – دانایان *dânâyân* ‘donishmandlar’, کوچی *kôçî* – سیاهمویان *siyâhmô* – سیاهیوان *siyâhmôyân* ‘bryunetlar’, ‘qora sochlilar’;

b) birlik shakldagi so‘z ا -*a* qisqa unlisiga tugagan bo‘lsa, ko‘plik affiksi ان -*ân* گان -*gân* shaklida qo‘shiladi va *a* tovushi garchi talaffuzda saqlanib qolsa-da, yozuvda tushib qoladi: تشنه *tašna* – نوشندگان *nawisendân* – نویسنده *nawisenda* ‘tashnalar’, تشنگان *tašnagân* ‘yozuvchilar’.

و *u/ô* tovushi bilan tugagan ba‘zi so‘zlarga ان -*ân* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda, *u* tovushi *ow* kabi talaffuz qilinadi: ابرو *abru* – ابروان *abrowân* ‘qoshlar’, آهو *âhu* – آهوان *âhôwân* ‘ohular’, گیسو *gisu* – گیسوان *gisowân* ‘sochlar’.

Eslatma. دست *dast* ‘qo‘l’, پای *pây* ‘oyoq’, گوش *gôš* ‘quloq‘dan tashqari, juft a‘zolari ifodalovchi otlarga ko‘plikda ان -*ân* affiksi orttiriladi: لب *lab* – لبان *labân* ‘lablar’, چشم *čašm* – چشمان *čašmân* ‘ko‘zlar’.

Kobul og‘zaki tilida juft a‘zolari ifodalovchi otlarga ها -*hâ* ko‘plik affiksi qo‘shiladi.

Insonning toq a‘zolari faqat ها -*hâ* ko‘plik affiksi orqali yasaladi: بینی *bini* – بینیها *binihâ* ‘burunlar’, گردن *gardan* – گردنها *gardanhâ* ‘gardanlar’.

1.2.1. Dariy tilida arabcha ko‘plik shakli

Dariy tilida arab tilidan kirib kelgan so‘zlar arabcha (siniq) ko‘plik shakllarini saqlab qolgan. Biroq quyidagilar bilan bir qator-da, yuqorida qayd etilgan ko‘plik affikslari orqali ham ko‘plik yasash mumkin.

مفاعل *mafâ’el* vaznida:

مصيبة *mosibat* – مصائب *masâyeb* yoki مصيبتها *mosibathâ* ‘musibatlar’,

مملكة *mamlakat* – ممالك *mamâlek* yoki مملكتها *mamlakathâ* ‘mamlakatlar’.

مفاعيل *mafâ’il* vaznida:

مكتوب *maktub* – مكاتيب *makâtib* yoki مكتوبها *maktubhâ* ‘xatlar’,

مسكين *meskin* – مساكين *masâkin* yoki مسكينان *meskinân* ‘bechoralar’.

تفاعيل *tafâ’il* vaznida:

تكليف *taklif* – تكاليف *takâlif* yoki تكليفها *takliphâ* ‘tashvishlar’, ‘qiyinchiliklar’,

تصوير *taswir* – تصاوير *tasâwir* yoki تصويرها *taswirhâ* ‘tasvirlar’, ‘portretlar’.

افعال *af’âl* vaznida:

خبر *xabar* – اخبار *axbâr* yoki خبرها *xabarhâ* ‘xabarlar’,
شخص *šaxs* – اشخاص *ašxâs* yoki شخصها *šaxshâ* ‘shaxslar’.

فِعُول *fo’ul* vaznida:

امر *amr* – امور *omur* ‘ishlar’,
علم *elm* – علوم *olum* ‘fanlar’.

فِعْلا *fo’alâ* vaznida:

رفيق *rafîq* – رفقا *rofaqâ* ‘o‘rtoqlar’,
وزير *wazîr* – وزرا *wozarâ* ‘vazirlar’, ‘ministrlar’,
شاعر *šâ’er* – شعرا *šo’arâ* ‘shoirilar’.

Shu kabi so‘zlarning ichki fleksiyalari hamda qo‘shimcha harflar orttirish orqali hosil qilinadigan boshqa arab siniq ko‘plik shakllari mavjud.

1.2.2. Arab ko‘plik affikslari

1) جات /-ât (-jât) affiksi ham arab, ham arabcha bo‘lmagan so‘zlarga qo‘shiladi:

اطلاع *ettela* – اطلاعات *ettelâ* ‘xabarlar’,

جنگل *jangal* – جنگلات *jangalât* ‘o‘rmonlar’,

اداره *edâra* – ادارات *edârât* ‘idoralar’,

پرزہ *porza* – پرزہ جات *porzajât* ‘detallar’ (tex.),

میوہ *mêwa* – میوہ جات *mêwajât* ‘mevalar’.

Eslatma. -ât affiksi so‘z yasashda alohida rol o‘ynaydi:

کار *kâr* ‘ish’ – کارات *kârât* ‘harakat’, ‘harbiy operatsiya’,

معلوم *ma’lum* ‘ma’lum’ – معلومات *ma’lumât* ‘ma’lumotlar’, ‘informatsiya’;

2) ين *-in* affiksi, odatda, erkak jinsidagi shaxs nomini bildiruvchi arab so‘zlariga qo‘shiladi:

مأمور *ma’mur* – مأمورین *ma’murin* ‘ma’murlar’, ‘chinovniklar’,

مورخ *mowarrex* – مورخین *mowarrexin* ‘tarixchilar’;

3) ون *-un* affiksi *i* unlisi bilan tugagan shaxs nomini bildiruvchi ba’zi arab so‘zlariga (مذكر *muzakkardagi*) qo‘shiladi:

روحانی *rôhâni* – روحانیون *rôhâniyun* ‘ruhoniyalar’,

ارتجاعی *ertejâyi* – ارتجاعیون *ertejâiyyun* ‘reaksionerlar’.

Eslatma. Ba’zida arabcha *-ayn* ikkilangan son affiksi ham uchrab turadi: مملکتین *mamlakatayn* ‘ikki mamlakat’.

Ilova. Dariy tilida ham, o‘zbek tilidagidek, rus tilidan farqli, birlik sondagi ot gap kontekstiga ko‘ra ham birgina, ham bir butunlikni tashkil etuvchi bir necha predmetni ifodalashi mumkin. Masalan, سیب *sêb* ‘olma’ so‘zi rus tiliga gapning ma’nosiga ko‘ra ham ‘olma’ (яблоко), ham ‘olmalar’ (яблоки), چشم *čâšm* ‘ko‘z’ so‘zi ‘ko‘z’ (глаз) va ‘ko‘zlar’ (глаза) tarzida tarjima qilinishi mumkin: من سیب *Man sêb-e turâ gereftam* ‘Я взял твоё яблоко’; من از بازار *Man az bâzâr sêb xaridam* ‘Я купил на базаре яблоки’; سیب خریدم *Man bâ čâšm-e xôdam didam* ‘Я видел собственными глазами’.

1.3. Otlarda birlik va noaniqlik

Dariy tilida biror predmet yoki shaxsning birlik va noaniqligini ko‘rsatish uchun ularga noaniqlik va birlik belgisi ی *-yâ* (artikli) qo‘shilib, urg‘usiz ê /yê tarzida talaffuz qilinadi. Bu ی *yâ* وحدت

yâ-ye wahdat (birlik yo-si) va *yâ-ye nakara* (noaniqlik yo-si) deb yuritiladi.

kârgar ‘ishchi’ – *kârgar-ê* ‘(qandaydir) bir ishchi’,
rôz ‘kun’ – *rôz-ê* ‘bir kun’, ‘bir kuni’.

***ning imlosi* يای وحدت و يای نکره**

1. Undosh bilan tugagan soʻzlarda *yâ* harfi bevosita otlarning oxiriga qoʻshiladi:

dôxtar-ê ‘(qandaydir) bir qiz’,

mêz-ê ‘(qandaydir) bir stol’.

2. *â* yoki *u/ô* choʻziq unilari bilan tugagan soʻzlarda *yâ* harfi oldidan bir *i* orttirilib yoziladi:

sadâ-ê ‘(qandaydir) bir tovush’,

âhu-ê ‘(qandaydir) bir ohu’.

3. *a* qisqa unlisi bilan tugagan soʻzlarda *yâ* harfi oldidan bir *alif* yoki *yâ* orttirilib yoziladi:

nawisenda-ê ‘(qandaydir) bir yozuvchi’.

4. *i* choʻziq unlisi bilan tugagan soʻzlarda *yâ* harfining oʻzi yoki uning oldidan bir *alif* orttirilib yoziladi:

çawki-ê ‘(qandaydir) bir stul’.

Izofiy birikmada *ê* artikli birikma oxiridagi soʻzga qoʻshiladi:

ketâb-e xub ‘yaxshi kitob’ – *ketâb-e xub-ê* ‘bir yaxshi kitob’.

Lekin baʼzan birikmaning birinchi soʻziga – aniqlanmishga qoʻshilish hollari uchraydi: *doxtar-e jawân* ‘yosh qiz’ – *doxtar-ê jawân* ‘(qandaydir) bir yosh qiz’.

Bundan tashqari, *ê* artikli *çe* soʻroq olmoshidan keyin kelgan soʻzga qoʻshilib, biror predmet haqida maʼlumotga ega boʻlish yoki taajjub va hayajonni izhor qilish maʼnolarini bildiradi:

Ân çe ketâbêst? ‘U nima (qanaqa) kitob?’

Emrôz çe rôzêst? ‘Bugun qaysi kun?’

ê artikli oʻrniga predmetning noaniqligi va birligini ifodalash uchun *yak* soni ham ishlatiladi: *yak rôz* ‘bir kuni’, *yak doxtar* ‘(qandaydir) bir qiz’.

Dariy tilida kelishiklar mavjud emas; gapda otlarning boshqa soʻzlarga munosabatini ifodalovchi asosiy vositalar quyidagilardir:

a) izofa; b) old va ort koʻmakchilar (predloglar va *-râ* poslelo-gi).

1.4. *-râ* ort ko'makchisi (poslelogi)

-râ ko'makchisi, asosan, vositasiz to'ldiruvchining ko'rsatkichidir. Mazkur ko'makchi bilan ishlatilgan to'ldiruvchi aniq, ya'ni gapirayotgan va uning suhbatdoshiga ma'lum bo'lgan predmet ma'nosini kasb etadi. Masalan:

(بیار) *Âb-râ byâwar (byâr)* 'Suvni olib kel (yoki keltir)' (ilgaridan ma'lum bo'lgan aniq suvni) –

(بیار) *Âb byâwar (byâr)* 'Suv olib kel' (umuman suv);
(من کتاب را خواندم) *Man ketâb-râ xândam* 'Men kitobni o'qidim' (aniq kitob) –

(من کتاب خواندم) *Man ketâb xândam* 'Men kitob o'qidim' (umuman kitob, ya'ni ro'znoma yoki boshqa narsa emas).

Ko'plik sonidagi so'zlarda *-râ* ko'makchisi ko'plik affiksida so'ng qo'yiladi: (آوردن) *Man in ketâbhâ-râ âwardam* 'Men bu kitoblarni keltirdim'.

Izofiy birikmada *-râ* ko'makchisi birikma oxiriga qo'yiladi: (من پدر دوستم را دیدم) *Man padar-e dôstam-râ didam* 'Men do'stimning otasini ko'rdim'.

Demak, *-râ* ko'makchisining asosiy vazifasi aniq, avvaldan ma'lum bo'lgan predmet va hodisalarni ifodalovchi vositasiz to'ldiruvchini yasashdir.

Tarjimalardan ko'rinib turibdiki, *-râ* ko'makchisi o'zbek tilida tushum kelishigiga to'g'ri keladi. Bular o'rtasidagi o'xshash xususiyatlarga e'tibor bering.

Avvalo, bular bilan ifodalangan ot o'timli fe'l bilan birikadi:

(آوردی) *Ketâb-râ awardi?* 'Kitobni keltirdingmi?'

O'zbek tilida tushum kelishigi ma'no va shakl jihatidan belgili va belgisiz bo'ladi (tushum kelishigining belgili-belgisiz ishlatilishi, asosan, ot turkumiga xos xususiyat; boshqa turkum so'zlari tushum kelishigida kelsa, odatda, belgili bo'ladi).

Belgili tushum kelishigidagi ot va olmoshlar har vaqt *-ni* affiksi bilan ishlatiladi – so'zlovchi va tinglovchi uchun avvaldan ma'lum bo'lgan predmet yoki harakatni ifodalashi bilan uni boshqalaridan ayirib ko'rsatadi: *kitobni oldim* (ilgaridan ma'lum bo'lgan kitobni).

-râ ko'makchisi va belgili tushum kelishigining qo'llanish xususiyatlari bir xil. Masalan, o'zbek tilida tushum kelishigidagi so'z atoqli ot (yoki kishini anglatuvchi turdosh ot), olmosh, payt bildiruvchi so'z, otlashgan so'zlar bilan ifodalansa, shuningdek, qaralm-

ish pozitsiyasida yoki ko'rsatish olmoshlari, o'rin, payt bildiradigan aniqlovchi bilan kelsa, belgili tushum kelishigi shaklida qo'llanadi. Dariy tilida esa bu o'rinda, albatta, *ra* ko'makchisi ishlatiladi. Misollar:

کرد احمد را صدا کرد *Ahmad-râ sadâ kard* 'Ahmadni chaqirdi';
کتاب خود را گرفت *Ketâb-e xôd-râ gereft* 'O'z kitobini oldi';
خود را در آیینہ دید *Xôd-râ dar oyina did* 'O'zini oynada ko'rди';
بهار را دوست دارم *Bahâr-râ dôst dâram* 'Bahorni sevaman';
این مقاله را خواندی؟ *In maqâla-râ xândi?* 'Bu maqolani o'qidingmi?';
پارکهای تاشکند را تماشا کردیم *Pârkhâ-ye Tâşkand-râ tamâshâ kardēm*
'Toshkentning parklarini tamosha qildik'.

O'zbek tilida tushum kelishigidagi so'z bilan fe'l orasida so'z yoki so'zlar bo'lsa ham, har doim belgili tushum kelishigi shaklida qo'llanadi. Dariy tilida esa bu holatda *ra* ko'makchisi ishlatiladi: پنبه را در ماشین چیدند *Pomba-râ dar mâşin çidand* 'Paxtani mashinada terdilar'.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, o'zbek tilida belgisiz tushum kelishigi ham mavjud. Belgisiz tushum kelishigidagi so'z affiksiz qo'llanadi. Bunda gap ma'lum bir turdagi predmet ustida boradi: *Kampir non ushatib, choy quymoqchi bo'lgan edi... ; Kitob oldim.* Bu misollarda tushum kelishigida kelgan *non, choy, kitob* so'zlari ma'lum, aniq, konkret *non, choy, kitob* bo'lmay, umuman *non, choy, kitob* ekanligi ifodalangan.

Belgisiz tushum kelishigidagi so'z fe'l-kesim bilan shunday zich bog'langan bo'ladiki, ular orasiga boshqa so'z kiritib bo'lmaydi: *paxta terdi, bosh qotirdi* kabi. Tushum kelishigi doim belgisiz ishlatiladigan tarkiblar turg'un birikmalarga, frazeologik birliklarga to'g'ri keladi: *ma'no kasb etmoq, muhokama yurgizmoq, quloq solmoq, yo'l bermoq* kabi. Mustaqil so'z bilan *qil-* fe'lidan tuzilgan tarkiblar esa yaxlitlanib qo'shma so'zga aylangan; shu sababli ularning birinchi tarkibiy qismini *-ni* bilan ishlatib bo'lmaydi: *harakat qilmoq, muomala qilmoq, rahbarlik qilmoq, g'alaba qilmoq* kabi.

O'zbek tilida tushum kelishigining belgili-belgisiz qo'llanish doirasini bilish dariy tilida *ra* ko'makchisining vazifasini tushunishga imkon beradi.

Dariy tilida *ra* ko'makchisi vositasiz to'ldiruvchidan tashqari, vositali to'ldiruvchining ayrim turlarini yasashda ham ishlatiladi (bu ko'proq klassik adabiyot tilida uchraydi):

a) دادن *dâdan* 'bermoq', گفتن *goftan* 'gapirmoq' va shu kabi ba'zi fe'llarda ish-harakat yo'nalgan otlarni ko'rsatish uchun: باران حیوان و

انسان را آب می دهد *Bârân haywân wa ensân-râ âb mêdehad* ‘Yomg’ir hayvon va insonlarga suv beradi’; پدر او را گفت *Padar ô-râ goft* ‘Otasi unga dedi’; ترا گفتم *Tu-râ goftam* ‘Senga aytdim’;

b) borlik, mavjudlik ma’nolarini ifodalagan fe’llarda biror nar-saga ega bo’lgan shaxs yoki predmetni ko’rsatish uchun: وزیرى را *Wazîrê-râ doxtarê bud besyâr âqel* ‘Bir vazir-ning juda aqlli (bir) qizi bor edi’; این نسخه خطی اورا است *In nosxa-ye xat(t)i ô-râ ast* ‘Bu qo’lyozma unga tegishli (unikidir)’ va b.

Eslatma. Og’zaki tilda ra -râ ko’makchisining ra -ra (unli bilan tugagan so’zlardan so’ng) va a -a (undosh bilan tugagan so’zlardan so’ng) shakllari mavjud:

کتابخاره - کتابهاره *ketâbhâ-râ – ketâbhâ-ra* ‘kitoblarni’,

کتابه - کتاب را *ketâb-râ – ketâb-a* ‘kitobni’.

-râ ko’makchisi so’zlarga qo’shilishi va ayrim holda yozilishi mumkin.

1.5. Otlarning yasalishi³

³ Taniqli afg’onshunos olimi L.N.Kiseleva dariy tilida so’z yasalishining quyidagi usullarini ajratadi: 1) affiksatsiya; 2) kompozitsiya; 3) leksikalizatsiya va 4) semantik usul [2: 45]. Bular ichida affiksatsiya va kompozitsiya usulini asosiy usul deb qaraydi. Affiksatsiya usuli bilan so’z yasash hodisasi dariy tilida so’z yasashning boshqa usullariga nisbatan kengroq yoritilgan. Fors tilida so’z yasalishiga doir ishlarda yuqorida qayd etilgan usullar qatorida yarimaffiksatsiya usuli ham keltiriladi. Eron tilshunosligida mazkur usul affiksatsiya va kompozitsiya oralig’idagi so’z yasash tipiga birlashtiriladi [4: 96]. O’zbek tilidagi affiksoidlar (ular so’z-affiks, affiks-so’z deb ham yuritiladi) yarimaffikslarga to’g’ri keladi. Biroq ular o’zbek tilida juda kam uchraydi [15: 82].

Yarimaffikslar haqida bahs ketganda, bu usul qat’iy qoidaga ega emasligi ko’ramiz. Yarimaffikslar deb hisoblanuvchi hozirgi zamon fe’l negizlari (qisqacha - HZN) qo’shma so’zning ikkinchi tarkibiy qismi sifatida ham qaraladi [10]. Ular suffikslarga ham kiritiladi [4: 98]. Shuningdek, ular yasovchi asos sifatida qo’llanishi mumkin: نایاب *nâyâb* ‘kamyob’, نازا *nâzâ* ‘bepusht’, خوراک *xorâk* ‘oziq’, ovqat, گیره *gire* ‘qisqich’, ‘skrepka’ va b. [4: 13]. Yarimaffikslar (ot va fe’ldan yasalgan so’z morfemalari) ma’no-sini yo’qotgan-yo’qotmaganligidan qat’iy nazar mustaqil so’z sifatida alohida qo’llanmaydi va morfemalashish jarayonidadir [4: 99].

Dariy tili so’z yasalishida ikkinchi qismi fe’l (sodda fe’llarning HZN, ularning *-i* suffiksi yoki inkor prefiksi bilan kelgan variantlari, buyruq

1.5.1. Yasama otlar

Dariy tilida ot, sifat, son va fe'l o'zak-negizlaridan quyidagi affiksalar orqali yasama otlar yasaladi:

mayli formasi)dan iborat so'zlar salmoqli foizni tashkil etadi. Prefiksli va qo'shma fe'llarning hozirgi zamon negizlari bu o'rinda kam uchraydi. Fe'lli so'z morfemalarining katta miqdori tufayli yarimaffiksatsiya usuli affiksatsiya va kompozitsiya usullari singari so'z yasashida faol qo'llaniladi. Mazkur qo'llanmada yarimaffiksatsiya usuli hosilalari qo'shma so'zlar tarkibida o'rganildi.

L.S.Peysikovning so'z yasashiga oid ocherkida kompozitsiya hodisasiga modellar asosida o'zaklarning qo'shilishi, deb ta'rif beriladi [4: 155]. Shuningdek, hamma qo'shma so'zlar leksik morfemalarni qo'shish asosida paydo bo'lmaganligi, ular boshqa yo'llar (sintaktik birlikning leksikalizatsiyalashuvi, konversiya va b.) bilan ham yasalishi ta'kidlanadi [5: 99]. Shuni aytish kerakki, u yoki bu so'zning qo'shma so'z deb qaralishi ularning morfem strukturasiga bog'liq. Ya'ni tarkibida birdan ortiq mustaqil leksik ma'no ifodalay oladigan birlik bo'lgan har qanday so'z qo'shma so'zdir. Bunday so'zlar so'z yasashining tamomila boshqa-boshqa tiplariga mansub bo'lishi mumkin (masalan, دلشاد *delšād* 'shod', 'xushchaqchaq', سرگزشت *sar-gozašt* 'sarguzasht' (kompozitsiya); سروصدا *sarosadā* 'xabar', 'darak', درد سر *dardesar* 1) 'boshog'riq'; 2) 'g'am-tashvish', 'notinchlik' (leksikalizatsiya), چشم داشت *čāšmdāšt* 'umid', 'ishonch' (transpozitsiya)). Shu sababli kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi deganda umuman qo'shma so'z yasashini tushunish va qo'shma so'z hosil bo'lishi deganda faqat kompozitsiya usuli bilan so'z yasashini nazarda tutish to'g'ri bo'lmaydi.

Eron tilshunosligiga oid asarlarning aksariyati rus tilida yozilgan. Shu sababli ulardagi ayrim grammatik tasniflar o'zbek tilshunosligi, umuman, turkologiyadan o'zgacha. O'zbek tilida «qo'shma so'z» terminini qo'shma so'z hamda juft so'zlar uchun umumiy holda qo'llash mumkin emasligi uqtiliradi [11: 7]. Bundan tashqari, o'zbek tilida juft va takroriy so'z yasalishi so'z yasash hodisasi bo'la olmaydi, degan talqin mavjud [11: 4, 111]. Dariy va fors tillarida esa determinativ va kopulyativ qo'shma so'zlar mavjud bo'lib, kopulyativlar o'zbek tilidagi juft va takroriy so'zlarga to'g'ri keladi. Shu bois qo'llanmada tasnif borasida nomuvofiqlikka yo'l qo'ymaslik uchun shartli ravishda professor A.G'.G'ulomov qo'llagan «qo'shma so'z» terminidan foydalandik: «Qo'shma so'z termini bundan (aniqlovchili qo'shma so'zlardan – A.X.) tashqari, juft so'zlarni, ...reduplikatsiya, so'z takrori yo'li bilan hosil qilingan so'zlarni ham o'z ichiga oladi» [15: 37].

1. Shaxs oti yasovchi affikslar (asosan, otlarga qo'shiladi):

چی -čī – شکارچی *šekârčī* 'ovchi' (شکار *šekâr* 'ov'), توپچی *tôpčī* 'ar-tellerist' (توپ *tôp* 'to'p', 'pushka').

گر -gar – کار *kârgar* 'ishchi' (کار *kâr* 'ish'), آهنگر *âhangar* 'temirchi' (آهن *âhan* 'temir').

گار -gâr/ کار -kâr – خدمتگار *xedmatgâr* 'xizmatchi' (خدمت *xedmat* 'xizmat'), سوارکار *sowâr-kâr* 'chavandoz' (سوار *sowâr* yoki *sawâr* 'otliq').

بان -bân/ وان -wân – باغبان *bâybân* 'bog'bon' (باغ *bây* 'bog'), موتروان *môtarwân* 'shofyor', 'haydovchi' (موتر *môtar* 'avtomobil').

ار -âr – خریدار *xaridâr* 'xaridor' (خرید *xarid* – خریدن *xaridan* 'sotib olmoq' fe'lining o'tgan zamon negizi /O'ZN/).

Eslatma. ار -âr suffiksi nafaqat shaxs oti, balki harakat-holat otlarini ham yasaydi:

دیدار *diydâr* 'uchrashuv' (دید *did* – دیدن *didan* 'ko'rmoq' fe'lining O'ZN), رفتار *raftâr* 'harakat', 'yurish' (رفت *raft* – رفتن *raftan* 'yurmoq' fe'lining O'ZN), گفتار *goftâr* 'nutq' (گفت *goft* – گفتن *goftan* 'gapirmoq' fe'lining O'ZN).

والا -wâlâ – شیروالا *širwâlâ* 'sutchi', 'sut sotuvchi' (شیر *šir* 'sut'), بایسکلوالا *bâysekelwâlâ* 'velosipedchi' (بایسکل *bâysekel* 'velosiped').

ی -i – غیچکی *yêčaki* 'g'ijjakchi' (غیچک *yêčak* 'g'ijjak').

هم *ham*- prefiksi orqali birgalik ma'nosini ifodalovchi otlar yasaladi: همسایه *hamsâya* 'qo'shni' (سایه *sâya* 'soya'), همصنف *hamsenf* 'sinfdosh' (صنف *senf* 'sinf').

2. O'rin-joy oti yasovchi affikslar (asosan, otlarga qo'shiladi):

گلزار -zâr – میوه زار *mêwazâr* 'mevazor' (میوه *mêwa* 'meva'), گلزار *golzâr* 'gulzor' (گل *gol* 'gul').

سار -sâr – سنگسار *sangsâr* 'toshloq' (سنگ *sang* 'tosh'), کوهسار *kôhsâr* 'tog'li joy' (کوه *kôh* 'tog').

ستان -stân// -estân – کوهستان *kôhestân* 'tog'li joy (mamlakat)' (کوه *kôh* 'tog'), ازبکستان *ozbakestân* 'O'zbekiston' (ازبک *ozbak* 'o'zbek').

سنگلاخ, (دew ‘dev’ ديو) ‘devlar makoni’ dēwlâx ديولاخ – lâx لاخ sanglâx ‘toshloq’ (سنگ sang ‘tosh’).

3. Narsa-buyum oti yasovchi affikslar (ot, sifat, taqlidiy so‘z, son va fe‘l negizlariga qo‘shiladi):

نامک ‘tuz’ (نامک ‘tuzdon’, ‘tuzliq’ namakdân نمکدان – dân دان), ناندان ‘non solinadigan idish’ (نان nân ‘non’).

جامه ‘chemodan’, ‘sandiq’ jamadoni جامه دانی – dâni دانی ‘kiyim-kechak’, qanddâni ‘qanddon’ (قند qand ‘qand’).

Eslatma. dân dan va dâni suffikslari hamisha sinonim bo‘lavermaydi. Masalan, goldân ‘gul tuvagi’, goldâni ‘gulvaza’.

زردک ‘zardak’ (ayn ‘ko‘z’ عین) aynak ‘ko‘zoynak’ عینک – ak⁴ ک ‘sabzi’ (zard ‘sariq’ زرد) ‘g‘ijjak’ (g‘ij ‘g‘ij’ غیج) taqlidiy so‘z).

xordan خوردن – xor خور ‘yemish’ (xorâk ‘ovqat’, âk اک ‘yemoq’ fe‘lining hozirgi zamon negizi /HZN/), pôšâk ‘kiyim’ (pôšidan ‘kiymoq’ fe‘lining HZN) پوشیدن - pôš پوش).

dasta ‘dasta’ (pâya ‘poya’, ‘taglik’ pây ‘oyoq’), a – a – ‘sop’ (dast ‘qo‘l’, sabza ‘maysa’ sabz ‘yashil’), sharshara ‘sharshara’ (saršar ‘shar-shar’ (suvning sharillashi) taqlidiy so‘z), hafta ‘hafta’ (haft ‘yetti’), panja ‘panja’, ‘vilka’ (panj ‘besh’), sada ‘asr’ (sad ‘yuz’).

4. Abstrakt ot yasovchi affikslar:

a) belgi-holat ma‘nosili ot yasovchilar (asosan, ot va sifat, shuningdek, boshqa so‘z turkumlariga qo‘shiladi):

dôst ‘do‘st’ (dôsti ‘do‘stlik’ دوستی – gi گی ‘yi/ یی -il/ یی), zendagi ‘chiroyli’ (zêbâ ‘go‘zal’, zêbâyi ‘go‘zallik’ زیبایی).

⁴ Dariy tilida -ak/-gak suffiksi aslida otlarning kichraytirish, erkalash formalari hosil qiluvchi affikslardan sanaladi: doxtarak ‘qizaloq’, ‘qizcha’ (doxtar دختر ‘qiz (bola)’), gâdigak ‘bolalar aravachasi’ (gâdi ‘arava’) va sh.k. Biroq til taraqqiyoti davomida bu suffiksning so‘z yasovchi affiks sifatidagi mavqei ham orta bordi. Bu, ayniqsa, terminologiya sohasida yaqqol ko‘zga tashlanadi [8: 24].

‘hayot’ (zنده *zenda* ‘tirik’), ستمگری *setamgari* ‘zulm’, ‘istibdod’ (ستمگر *setamgar* ‘zolim’, ‘sitamgar’);

یت *-iyat* انسانیت *ensâniyat* ‘insoniyat’ (انسان *ensân* ‘inson’), مسئولیت *mas’uliyat* ‘mas’uliyat’, ‘javobgarlik’ (مسئول *mas’ul* ‘mas’ul’);

b) holat-harakat ma’nosili ot yasovchilar (fe’llardan yasaladi):

خواستن *xâh* – خواه *xâheš* ‘istak’, ‘xohish’, ‘iltimos’ (ش *-eš* *xâstan* ‘xohlamog’, ‘so’ramog’ fe’lining HZN), آموزش *âmôzeš* ‘bi-lim’, ‘o’rganish’ (آموز *âmôz* – آموختن *âmôxtan* ‘o’rganmog’, ‘o’rgatmog’ fe’lining HZN);

ساخت *sâxt* – ساختمان *sâxtemân* ‘qurilish’, ‘tuzilish’ (مان *-mân* *sâxtan* ‘qurmog’, ‘qilmog’ fe’lining O’ZN), زایمان *zâyemân* ‘tug’ilish’ (زای *zây* – زاییدن *zâyidan* ‘tug’mog’, ‘tug’ilmog’ fe’lining HZN);

اندیشیدن *andêšidan* ‘fikr’ (اندیشه *andêša* ‘fikr’, ‘o’y’ (لرز *larz* ‘titrog’, ‘qaltirash’ (لرزیدن *larzidan* ‘titramog’, ‘qaltiramog’ fe’lining HZN).

1.5.2. Qo’shma otlar

Komponentlarning munosabati aslida tobelanish yo’lini ko’rsatadigan qo’shma otlar; bular quyidagilardir:

1. a) ikki otning birikuvidan hosil bo’lgan shaxs oti ma’nosini ifodalovchi qo’shma otlar:

سرمنشی *sarmonši* ‘bosh kotib’ (سر *sar* ‘bosh’, منشی *monši* ‘sekretar’, ‘kotib’), صاحب منصب *sâhebmansab* ‘ofitser’, ‘martabali shaxs’, ‘chinovnik’ (صاحب *sâheb* ‘sohib’, ‘egasi’, منصب *mansab* ‘mansab’, ‘martaba’), صاحب صورت *sâheb/e/surat* ‘chiroyli’, ‘kelishgan’ (صاحب *sâheb* ‘sohib’, صورت *surat* ‘xushbichim’, ‘chiroyli qiyofa’), وطن دوست *watandôst* ‘vatanparvar’ (وطن *watan* ‘vatan’, دوست *dôst* ‘do’st’; qo’shma so’zlarda: sevuvchi), رضاکار *razâkâr* ‘ko’ngilli askar’ (رضا *razâ* ‘iroda’, ‘xohish’, ‘ixtiyor’, کار *kâr* ‘ish’, ‘shug’ul’; qo’shma so’zlarda: shug’ullanuvchi), ورزشکار *warzeškâr* ‘sportsmen’, ‘sportchi’ (ورزش *warzeš* ‘sport mashg’ulotlari’, کار *kâr* ‘ish’, ‘shug’ul’; bu yerda: shug’ullanuvchi);

b) ikki otning birikuvidan hosil bo’lgan o’rin-joy oti ma’nosini ifodalovchi qo’shma otlar:

ketâbxâna ‘kutubxona (کتاب ketâb ‘kitob’, خانه xâna ‘uy’), کارخانه kârxâna ‘korxona’, ‘muassasa’ (کار kâr ‘ish’, خانه xâna ‘uy’), زیارتگاه ziyâratgâh ‘ziyoratgoh’ (زیارت ziyârat ‘ziyorat (haj)’, گاه gâh ‘joy’);

v) ikki otning birikuvidan hosil bo‘lgan narsa-buyum oti ma’nosini ifodalovchi qo‘shma otlar:

شیربرنج *širberenj* ‘shirguruch’ (شیر *šir* ‘sut’, برنج *berenj* ‘guruch’), روی پاک *rôypâk* ‘sochiq’ (روی *rôy* ‘yuz’, پاک *pâk* ‘toza’; bu yerda: tozalovchi), پاک *penselpâk* ‘o‘chirg‘ich’ (پنسل *pensel* ‘qalam’, پاک *pâk* ‘toza’; bu yerda: tozalovchi), روی بالش *rôybâleš* ‘yostiqjild’ (روی *rôy* ‘yuz’, ‘yuzaki qism’, بالش *bâleš* ‘yostiq’), پیزار *pâyafzâr* – پای افزار *pây* ‘oyoq’, *afzâr* ‘as-bob’, ‘narsa-qurol’), گل میخ *golmêx* ‘katta qalpoqchali mix’, ‘bolt’, ‘kostil (katta qayrilma mix)’ (گل *gol* ‘gul’, میخ *mêx* ‘mix’).

2. Sifatlarning otlar bilan birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma otlar:

تندباد *zardâlu* ‘o‘rik’ (زرد *zard* ‘sariq’, آلو *âlu* ‘olxo‘ri’), *tondbâd* ‘bo‘ron’, ‘kuchli shamol’ (تند *tond* ‘kuchli’, باد *bâd* ‘shamol’), تیر ماه *tiramâh* yoki تیر ماه *tirmâh* ‘kuz’ (تیر *tira* ‘qora’, ‘bulut bosgan’, ‘qorong‘i’, ماه *mâh* ‘oy’), کج بخت *kajbaxt* ‘baxtsiz’, ‘omadsiz’ (کج *kaj* ‘qiyshiq’; noto‘g‘ri’, بخت *baxt* ‘taqdir’, ‘baxt’).

3. Sonlarning otlar bilan birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma otlar:

a) suffikssiz:

چهارمغز *dutâr* ‘dutor’ (دو *du* ‘ikki’, تار *târ* ‘tor’, ‘sim’, ‘ip’), چارمغز *čahârmayz* – چارمغز *čârmayz* ‘yong‘oq’ (چار *čâr* ‘to‘rt’, چهار *čahâr* ‘to‘rt’), چارمغز *mayz* ‘mag‘iz’), چارراهی *čârrâhi* – چارراه *čârrâh* (چهار *čahâr* – چار *čâr* ‘to‘rt’, راه *râh* ‘yo‘l’), سه شاخه *sešâxa* ‘ayri’, ‘panshaxa (uch shoxli)’ (سه *se* ‘uch’, شاخه *šâxa* ‘shox’, ‘novda’);

b) suffiks bilan:

برگه *sebarga* ‘sebarga’, ‘beda’ (سه *se* ‘uch’, برگ *barg* ‘barg’), سه پای *sekonja* ‘uchburchak’ (سه *se* ‘uch’, کنج *konj* ‘burchak’), سه پای *sepây va* سه پایه *sepâya* ‘uchoyoq’, ‘tag‘oncha’, ‘shtativ’ (سه *se* ‘uch’, پا *pây* ‘oyoq’).

4. Otlarning hozirgi zamon fe‘l negizlari bilan birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma otlar:

a) shaxs otlari:

تاریخ *târixdân* ‘tarixchi’, ‘tarixshunos’ (*târix va tarix* ‘tar-ix’, شرقشناس *dân* – دانست *dânestan* ‘bilmoq’ fe’lining HZN), شناختن *šarqšenâs* ‘sharqshunos’ (*šarq* ‘sharq’, شناس *šenâs* – شناختن *šenâxtan* ‘tanimiq’, ‘bilmoq’ fe’lining HZN), آشپز *âšpaz* ‘oshpaz’ (*âš* ‘osh’, ‘ovqat’, پز *paz* – پختن *pôxtan* ‘pishirmoq’, ‘tayyorlamoq’ fe’lining HZN), راهزن *râhzan* ‘qaroqchi’, ‘bandit’ (*râh* ‘yo’l’, زن *zan* – زدن *zadan* ‘urmoq’ fe’lining HZN), آتشگیر *âtešgir* ‘otashkurak’ (*âteš* ‘olov’, گیر *gir* – گرفتن *gereftan* ‘olmoq’ fe’lining HZN), پوستین دوز *postindôz* ‘po’stindo’z’ (*postin* ‘po’stin’, دوز *dôz* – دوختن *dôxtan* ‘tikmoq’ fe’lining HZN).

Eslatma. Mazkur tip qo’shma otlarning katta qismi sifat so’z turkumiga taalluqli bo’lib, shaxs bilan bog’liq bo’lganligi sababli ot vazifasida ham kelaveradi:

خوردن *xor* – خور *paisa* ‘pul’, پیسه *paisaxor* ‘poraxo’r’ (*xordan* ‘yemoq’ fe’lining O’ZN), مالدار *mâldâr* ‘davlatmand’, ‘boy’; داشتن *dâr* – دار *mâl* ‘mol-mulk’, ‘boylik’; ‘chorva’, chorvador’ (*dâstan* ‘ega bo’lmoq’ fe’lining HZN);

b) narsa-buyum otlari:

بند *band* – کمر *kamar* ‘bel’, کمربند *kamarband* ‘kamar’, ‘tasma’ (*bastan* ‘bog’lamoq’ fe’lining HZN), دستبند *dastband* ‘bilaguzuk’ (*dast* ‘qo’l’, بند *band* – بستن *bastan* ‘bog’lamoq’ fe’lining HZN), پوش *pôš* – پوش *sarpôš* ‘qopqoq’ (*sar* ‘bosh’, ‘yuqori, ustki qism’, پوشیدن *pôšidan* ‘yopib (bekitib) qo’ymoq’ fe’lining HZN), آهن ربا *âhanrobâ* ‘magnit’ (*âhan* ‘temir’, ربا *rabâ(y)* – ربودن *rabudan* ‘tortmoq’ fe’lining HZN).

Komponentlarning munosabati aslida tenglashishga asoslangan qo’shma otlar; bular quyidagilardir:

1. Takrorlash yo’li orqali hosil bo’lgan so’zlar:

a) bir so’zni to’g’ridan-to’g’ri, aynan takrorlash yo’li bilan:

آمد *âmadâmad* ‘(biror narsaning) kelishi, boshlanishi’, ‘arafa’, ‘bo’sag’a’ (*âmad* – آمدن *âmadan* ‘kelmoq’ fe’lining O’ZN), بوبو *bedawbedaw* ‘yugur-yugur’, ‘to’polon’, ‘qiy-chuv’ (*daw* – دویدن *dawidan* ‘yugurmoq’ fe’lining HZN, buyruq mayli);

b) hozirgi zamon fe’l negizini -â-, -ma- infikslari orqali takrorlash yo’li bilan:

دویدن – *daw* (دو *dawâdaw* ‘yugur-yugur’, ‘sarsongarchilik’ *dawidan* ‘yugurmoq’ fe’lining HZN), کشاکش *kašâkaš* va کشمکش *kaš-makaš* ‘janjal’, ‘kurash’ (کش *kaš* – کشیدن *kašidan* ‘tortmoq’ fe’lining HZN).

2. Ikki xil fe’l hozirgi zamon negizlarining *-o-* teng bog’lovchisi orqali birikuvidan hosil bo’lgan so’zlar:

گير *kašogir* ‘kurash’, ‘mushtlashish’ (کشیدن *kašidan* ‘tortmoq’ va پرس و پال *gereftan* ‘olmoq’, ‘tutmoq’ fe’llarining HZN), پرسیدن *porsidan* ‘so’roq’ ‘savol’; ‘so’rab-surishtirish’ (پرسیدن *porsidan* ‘so’ramoq’ va پالیدن *pâlidan* ‘qidirmoq’ fe’llarining HZN).

3. Ikki xil fe’l (ko’proq antonim fe’llar) o’tgan zamon negizlarining *-o-* teng bog’lovchisi orqali birikuvidan hosil bo’lgan so’zlar:

رفت و آمد *raftoâmad* ‘harakat’, ‘aloqa’, ‘munosabat’; ‘kelib (borib) ko’rish’ (رفت *raftan* ‘yurmoq’, ‘bormoq’ va آمدن *âmadan* ‘kelmoq’ fe’llarining O’ZN), دادوگرفت *dâdogereft* ‘ayirboshlash’, ‘savdo’ (دادن *dâdan* ‘bermoq’ va گرفت *gereftan* ‘olmoq’ fe’llarining O’ZN).

4. Bir fe’lning ham o’tgan, ham hozirgi zamon negizlarining *-o-* teng bog’lovchisi orqali birikuvidan hosil bo’lgan so’zlar:

گفتگو *goftogo* ‘suhbat’ (گفتن *goftan* ‘gapirmoq’ fe’lining o’tgan va hozirgi zamon negizlari), تاخت و تاز *tâxtotâz* ‘hujum’, ‘bosqin’ (تاختن *tâxtan* ‘hujum qilmoq’ fe’lining o’tgan va hozirgi zamon negizlari), گيروگرفت *girogereft* ‘qurshov’, ‘oblava’, ‘(odamlarni) ko’plab qamoqqa olish’ (گرفت *gereftan* ‘olmoq’, ‘tutmoq’ fe’lining hozirgi va o’tgan zamon negizlari).

5. Ikki xil fe’lning o’tgan va hozirgi zamon negizlarining *-o-* teng bog’lovchisi orqali birikuvidan hosil bo’lgan so’zlar:

گشت و گذار *gaštogozâr* ‘sayr’, ‘aylanish’ (گشتن *gaštan* ‘aylanmoq’, ‘sayr qilmoq’ va گذاشتن *gozâštan* ‘qo’ymoq’, ‘qoldirmoq’, ‘imkon bermoq’ fe’llarining negizlari).

6. Ikki otning *-o-* teng bog’lovchisi orqali birikuvidan hosil bo’lgan so’zlar:

آب و هوا *âbohawâ* ‘ob-havo’ (آب *âb* ‘suv’, هوا *hawâ* ‘havo’), خاک و آب *âboxâk* ‘mamlakat’, ‘vatan’ (آب *âb* ‘suv’, خاک *xâk* ‘tuproq’), سر و کار *sarokâr* ‘aloqa’, ‘daxldorlik’ (سر *sar* ‘bosh’, کار *kâr* ‘ish’),

تالع و بخت *tâlewbaxt* ‘taqdir’, ‘qismat’, ‘tole’ (تالع *tâle* ‘baxt’, ‘tole’, ‘omad’, بخت *baxt* ‘taqdir’, ‘istiqbol’).

1.5.3. Kichraytirish va erkalash otlari yasovchi affikslar

Otlarga qo‘shilib, shu otning ma‘nosiga kichraytirish, erkalash, kuchaytirish singari ma‘no beruvchi affikslar otlarning kichraytirish, erkalash formalarini hosil qiladi. Shuning uchun ular forma yasovchi affikslar deb yuritiladi. Dariy tilida bular quyidagilardir:

گک /ک - *ak/-gak* – دخترک *doxtarak* ‘qizaloq’, ‘qizcha’, ‘qizgina’ (دختر *doxtar* ‘qiz (bola)’), چوچه گک *čučagak* ‘kichkintoy’, ‘bolakay’ (چوچه *čuča* ‘kichik bola’), سیخک *sixak* ‘sixcha’, ‘shpilka’, ‘soch-to‘g‘nog‘ich’ (سیخ *six* ‘six’), گادی گک *gâdigak* ‘bolalar aravachasi’ (گادی *gâdi* ‘arava’).

بچه /چه - *ča/-iča* – باچه *bâyča* ‘bog‘cha (kichik bog‘)’, (bag‘ *bây* ‘bog‘), تفنگچه *tofangča* ‘to‘pponcha’ (تفنگ *tofang* ‘miltiq’), دریچه *dariča* ‘eshikcha’ (در *dar* ‘eshik’).

خان - *xân*, -*jân* – آمان الله خان *Âmânollaxân* ‘Omonullaxon’, شیماجان *Šaymâjân* ‘Shaymojon’.

وله - *ôla* (kammahsul) – زنگوله *zangôla* ‘qo‘ng‘iroqcha’ (zang *zang* ‘qo‘ng‘iroq’), مشکوله *maškôla* ‘grelka’ (مشک *mašk* ‘burduq’, ‘mesh’).

که - *aka* (kamsitish, masxaralash kabi ma‘nolarni ifodalovchi suf-fiks bo‘lib, og‘zaki tilga xos) – زنکه *zanaka* (زن *zan* ‘ayol’), مردکه *mardaka* (مرد *mard* ‘erkak’).

Savollar

1. Dariy tilida ot so‘z turkumi qaysi grammatik kategoriyalarga ega?
2. Son kategoriyasining otlardagi affikslarini sanang.
3. Dariy tilida arabcha ko‘plik shakli qanday ko‘rinishlarga ega?
4. Birlik va noaniqlik kategoriyasining mohiyatini tushuntiring.
5. ر - *râ* ko‘makchisining vazifasi nimadan iborat?
6. Dariy tilida otlarning boshqa so‘zlarga munosabatini ifodalovchi asosiy vositalarni aytib bering.
7. Egalik kategoriyasi dariy tilida qanday ifodalanadi?
8. Otlar qaysi yo‘llar bilan yasaladi?
9. Ot yasovchilarni qanday ma‘noli ot yasashiga ko‘ra tasnif qiling.
10. Qo‘shma otlarning yasaliş turlarini misollar bilan aytib bering.

II. SIFAT صفت *sefat*

Sifat predmetning belgisini bildiruvchi soʻz turkumidir.

Dariy tilida mazkur soʻz turkumi sifatlikni koʻrsatuvchi maxsus morfologik koʻrsatkichga (sifat darajalaridan tashqari) ega emas. Shuning uchun sifatlar boshqa soʻz turkumlaridan maʼno jihatidan farqlanadi:

خرد *xerad* ‘aql’, ‘idrok’ (ot) – خورد *xord* ‘kichik’ (sifat).

Sifatlar maʼnosiga va ayrim grammatik belgisiga koʻra, ikki turga boʻlinadi: 1) asliy sifat صفت اصلی *sefat-e asli* va 2) nisbiy sifat صفت نسبی *sefat-e nesbi*.

Asliy sifatlar predmetning belgisini bevosita ifodalaydi: سفید *safêd* ‘oq’, کلان *kalân* ‘katta’, سرخ *sorx* ‘qizil’, تلخ *talx* ‘achchiq’ kabi.

Nisbiy sifatlar boshqa soʻz turkumlaridan yasilib, predmet belgisini oʻrin yoki payt tushunchasiga nisbatlash, moʻljallash, boshqa predmetga oʻxshatish kabi maʼnolar orqali ifodalaydi: علمی *elmi* ‘ilmiy’, روزانه *rôzâna* ‘kunduzgi’, دیواری *dêwârî* ‘devoriy’ kabi.

Dariy tilida sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keluvchi sifatlar, qoidaga binoan, izofa koʻrsatkichini olgan holda otdan keyin qoʻyiladi: دختر خوب *doxtar-e xub* ‘yaxshi qiz’. Biroq jonli tilda (his-hayajonni ifodalash uchun) sifatlar otdan oldin kelishi mumkin: حيله گر آدم است *hilagar âdam ast* ‘ayyor u odam’, خوب بچه *xub bača* ‘yaxshi bola (yigit)’, کلان آدم *kalân âdam* ‘katta odam’, ديگر چيز *dêgar čiz* ‘boshqa narsa (gap)’, ديگر بار *dêgar bâr* ‘boshqa vaqt’ va boshqalar.

Dariy tilida sifatlar koʻplik shakliga ega emas:

درختهای بلند *daraxt-hâye beland* ‘baland daraxt’ – درخت بلند *daraxt-e beland* ‘baland daraxtlar’ (biroq rus tilida: ‘высокое дерево’ – ‘высокие деревья’), کتاب نو *ketâb-e naw* ‘yangi kitob’ (‘новая книга’) – کتابهای نو *ketâbhâ-ye naw* ‘yangi kitoblar’ (‘новые книги’).

Dariy tilida sifatlar otlashadi, yaʼni gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kela oladi. Bunda sifat vaqtincha ot turkumida boʻladi. Maʼlumki, sifatning otlashuvi uchun u aniqlab kelgan ot tushirib qoldirilishi, sifat esa uning maʼnosini anglatishi, oʻsha otning formal belgilarini qabul qilishi hamda sintaktik vazifasini bajarishi shart. Otlashgan sifatlar gapda ot turkumiga xos (ega, toʻldiruvchi, qaratqich kabi) vazifalarni bajarib keladi:

کارگران پیشقدم *kârgarân-e pêşqadam* ‘peshqadam ishchilar’ –

پیشقدمان کارخانه *pêşqadamân-e kârxâna* ‘korxona peshqadamlari’,
 دختر بیچاره *doxtar-e bêçâra* ‘bechora qiz’ –
 بیچاره هیچ چیز نگفت *Bêçâra hêç čiz nagoft* ‘Bechora hech narsa demadi’.

Gapda harakatning belgisini bildirib, asosan, ravish holi vazifasida kelgan sifatlar ravishga aylanadi: او خیلی خوب میخواند *Ô xêle xub mêxânad* ‘U juda yaxshi o‘qiydi’.

Solishtiring:

بلند آواز بلند *âwâz-e beland* ‘baland ovoz’ (aniqllovchi),
 بلند میخواند *Ô beland mêxânad* ‘U baland o‘qiydi’ (hol),
 این دیوار بلند است *In dêwâr beland ast* ‘Bu devor balanddir’ (kesim).

2.1. Sifat darajalari

Predmetlardagi bir xil belgini miqdoriga ko‘ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasi deyiladi. Daraja ko‘rsatkichlari ko‘pincha asliy sifatlariga qo‘shiladi. Dariy tilida sifatarning quyidagi darajalari mavjud:

- a) oddiy daraja صفت عادی یا مطلق *sefat-e âdi yâ mutlaq*;
- b) qiyosiy daraja صفت تفضیلی *sefat-e tafzili*;
- v) orttirma daraja صفت عالی *sefat-e âli*.

Predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgiga taqqoslamay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalovchi sifatlar oddiy daraja deyiladi: خوب *xub* ‘yaxshi’, خورد *xord* ‘kichik’ kabi (oddiy darajadagi sifat hech qanday daraja ko‘rsatkichiga va uni ifodalovchi vositalarga ega bo‘lmaydi).

Ayrim-ayrim predmetlardagi bir xil belgining chog‘ishtirilishi asosida ikki daraja yasaladi: qiyosiy daraja va orttirma daraja.

Sifatning qiyosiy darajasi bir predmet belgisining boshqa predmet belgisiga nisbatan ortiq yoki kamligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Dariy tilida qiyosiy daraja تر *-tar* (o‘zbek tilida: *-roq*) qo‘shimchasi vositasida yasaladi: خورد تر *xordtar* ‘kichikroq’, کلان تر *kalântar* ‘kattaroq’ kabi.

Mazkur daraja ishlatilgan gaplarda qiyoslanayotgan (chog‘ishtirilayotgan) ob‘ekt از *az* old ko‘makchisi va کرده *karda* (og‘z. *kada*) yordamchi so‘zi (yordamchi so‘z ixtiyoriy ravishda qo‘llanadi) bilan ishlatiladi. Masalan: احمد از محمود کرده (کده) کلان تر است *Ahmad az Mahmud (ka/r/da) kalântar ast* ‘Ahmad Mahmuddan kattaroq’.

Ba'zan (ayniqsa, so'zlashuv nutqida) *tar* qo'shimchasi tushib qolib, qiyoslash faqat *az* old ko'makchisi (o'zbek tilida: ...dan ...ko'ra, ...ga ...qaraganda) orqali ham ifodalanishi mumkin:

Xâna-ye mâ az xâna-ye šomâ (ka/r/da) dur ast 'Uyimiz sizning uyingizga qaraganda uzoq' kabi.

Orttirma daraja bir predmet belgisining boshqa predmet belgisiga nisbatan ortiqligini chog'ishtirib ko'rsatadi. Orttirma daraja sifatning oddiy darajasiga *tarin* qo'shimchasini (o'zbek tilida: sifat oldidan *eng*, *hammadan* kabi so'zlarni keltirish bilan) qo'shish orqali yasaladi: *xordtarin* 'eng kichik', *kalântarin* 'eng katta' kabi.

Dariy tilida orttirma darajadagi sifat aniqlanmishdan oldin izofasiz va aniqlanmishdan keyin izofa orqali birikishi mumkin: *mohemtarin wazifa* yoki *wazifa-ye mohemtarin* 'eng muhim ish (vazifa)'.

Bir jinsdagi predmetlardan birini yoki bir nechtasini ajratib ko'rsatish uchun *yakê az* '...dan biri' iborasi yoki quyidagi konstruksiya ishlatiladi: *mohemtarin-e wazifahâ* 'vazifalardan (ning) eng muhimi'.

Shuningdek, orttirma daraja oddiy va qiyosiy darajadagi sifat oldidan *az hama* (o'zbek tilida: *az* '...dan', *hama* 'hamma', ya'ni 'hammadan', 'barchasidan', 'baridan') birikmasini keltirish bilan ham ifodalanishi mumkin: *az hama xord* 'hammadan kichik', *az hama behtar* 'barchasidan yaxshiroq'.

Eslatma. Ma'lumki, o'zbek tilida sifat darajalaridan tashqari, ozaytirma va kuchaytirma sifatlar ham mavjud. Biroq ayrim qo'llanmalarda mazkur shakllar sifat darajalari tarkibida beriladi [15: 296]. Ozaytirma sifatlar predmetdagi belgining odatdagi miqdoridan kamligini ifodalaydi: *oqish*, *ko'kimtir*, *chiroyliroq (xat)*, *bir oz bo'g'iqroq (ovoz)* kabi. Kuchaytirma sifatlar esa predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgiga chog'ishtirmay, bir predmetning o'zigagina xos bo'lgan belgining ortiq ekanligini tasviriy ravishda ifodalaydi: *juda katta*, *nihoyatda go'zal*, *uzundan-uzun*, *qip-qizil*, *ko'm-ko'k*, *dum-dumaloq* kabi.

Dariy tilida mazkur shakllar, asosan, leksik vositalar orqali hosil qilinadi: *mâyel ba zardi* 'sarg'ish', 'sarg'imtir', *mâyel ba safêdi* 'oqish', 'oqimtir', *xêlê zêbâ* 'juda go'zal', *besyâr kalân* 'juda katta', *bêxi siyâh šod* 'qop-qora bo'ldi', *pâk dêwâna ast* 'g'irt telba (jinni)', *kâmelan safêd* 'oppoq' kabi.

2.2. Sifatlarning yasalishi

Dariy tilida, otlarda bo'lganidek, sifatlarda ham affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so'z yasash faol va mahsuldor usul hisoblanadi.

2.2.1. Yasama sifatlar

Yasama sifatlar ko'pincha ot va fe'l negizlariga maxsus sifat yasovchi affikslarni qo'shish bilan yasaladi.

Eslatma. Ayrim so'z yasovchi affikslar va hozirgi zamon fe'l negizlari – yarimaffikslar ham ot, ham sifat uchun mushtarak ekanligini esda tutmoq zarur.

Misollar :

وطنداران *wa-tandârân-e mâ* 'bizning vatandoshlarimiz', *âdam-e wafâdâr* 'vafodor inson' آدم وفادار

زحمتکشان کشور *zah-matkaşân-e keşwar* 'mamlakat mehnatkashlari', *mâdar-e jafâkaş* 'jafokash ona' مادر جفاکش

کارگر کارخانه *kârgar-e hilagar* 'ayyor qiz' دختر حيله گر *doxtar-e hilagar* کارخانه کارگر *kârxâna* 'korxona ishchisi'.

دیواری *dêwârî* 'devoriy' وی *gi-* / گی *-i* (yâ-ye nesbat) خانگی *xânagi* 'uy(ga oid)' دیوار *dêwâr* 'devor'), معنوی *ma'nawî* 'ma'naviy' (معنی *ma'nâ* va *ma'ni* 'ma'no', 'mazmun'), ذروی *zarrawî* 'atom/ga oid/' ذره *zarra* 'atom', 'molekula'), نقره ای *noqrai* 'kumush/ga oid/' نقره *noqra* 'kumush').

-i qo'shimchasi orqali shaxs yoki predmetning kelib chiqishini ko'rsatuvchi nomlar ham yasaladi. Masalan:

بخارا *Boxârâ* 'Buxoro' بخارائی *boxârâi* 'buxorolik', 'Buxoroga oid', صحرا *sahrâ* 'sahro' صحرائی *sahrâi* 'sahrolilik', 'sahroga oid', تاشکند *Tâşkand* 'Toshkent' تاشکندی *tâşkandi* 'toshkentlik', 'Toshkentga oid' kabi.

Atoqli otlardan *-i* qo'shimchasi orqali familiya, taxalluslar yasaladi: رحیم *Rahim* 'Rahim' رحیمی *Rahimi* 'Rahimiy' kabi.

رنگین *čarm* 'charm' چرم *čarm* 'charm/ga oid/' چرمین *-in* رنگ *rangin* 'rangli' (رنگ *rang* 'rang'), آتشین *âtešin* 'otashin' آتش *âteş* va آتاش *âtaş* 'olov', 'otash').

غمگین *yamgin* 'g'amgin' غم *yam* 'g'am'), گین *-gin* / اگین *-âgin*

عطر *atrâgin* 'hushbo'y', 'muattar' (عطر *atr* 'hushbo'y is', 'atir').

دوست *dôstâna* 'do'stona' – دوستانه *yâna* – یانه *gâna* – گانه *âna* – انه *dôst* 'do'st'), روزه *rôzâna* 'kunduzgi' (روز *rôz* 'kun'), بچه گانه *bačagâna* 'bolalarcha' (بچه *bača* 'bola').

انه *âna* affiksi orqali yasalgan sifatlar ravish vazifasida ham qo'llanadi.

هنر *honarmand* 'hunarmand', 'mohir', 'artist' – هنرمند *mand* – مند *honar* 'san'at', 'mohirlik'), شکوهمند *šokôhmand* 'tantanali', 'dabdabali', 'serhasham' (شکوه *šokôh* 'hashamatlilik', 'dabdaba', 'shukuh').

امید *omayd va omêd* 'umidvor' امیدوار *omaydwâr* – وار *wâr* – وار *mâhwâr* 'oylik' (ماه *mâh* 'oy').

گل *golgun* 'gulgun', 'gulga o'xshash', 'qizil' (گلگون *gun* – گون *gol* 'gul'), لعلگون *la'lgun* 'la'li', 'yoqutday' (لعل *la'l* 'yoqut'), گندمگون *gandomgun* 'bug'doy rang' (گندم *gandom* 'bug'doy').

غما *γamnâk* 'g'amgin' (غم *γam* 'g'am', 'anduh'), وحشتناک *xatarnâk* 'xatarli' (خطر *xatar* 'xavf', 'xatar'), وحشتناک *wahšatnâk* 'dahshatli' (وحشت *wahšat* 'dahshat', 'qo'rqinch').

نام *nâm* 'ism', 'nom' نامور *nâmwar* – ور *war*.

O'rta fors tilidan qolgan ور *-ur* formasi ham uchray turadi:

رانجور *ranjur* 'kasal', 'bemajol'; 'azob-uqubat tortuvchi', 'jafokash' رنج *ranj* 'qiyinchilik', 'dard', 'alam').

گپ *gap* 'ezma', 'sergap' گپوک *gapôk* – و *-u* و *endôk* – ندوک *ôk* – وک *nutq*, 'so'z', 'gap'), خواب *xâb* 'uyqu', خوابوک *xâbôk* 'uyquchi' (تارس *tars* 'qo'rqoq' تارسندوک *tarsendôk* – تارسوک *tarsôk* – تارسو *tarsu* 'qo'rqinch'), شرموک *šarmôk* – شرمندوک *šarmendôk* 'uyatchan /uyatchang/' (شرم *šarm* 'uyat').

سبزینہ *sabzina* (سب *šab* 'tun'), شبینہ *šabina* 'tungi' – ینہ *ina* 'qorachadan kelgan' سبز *sabz* 'yashil', 'qoracha', 'bug'doy rang' (teri haqida).

سیل آسا *barq* 'yashin'), برق آسا *barqâsâ* 'yashinday' (سیل *sêl* 'sel').

سان -sân – فیلسان *filân* ‘filday’, ‘filga o‘xshash’ (فیل *fil* ‘fil’), یاکسان *yaksân* ‘bir xil’, ‘baravar’, ‘birdek’ (یک *yak* ‘bir’).

وش -*waš* – پری ویش *pariwaš* ‘pariday’, ‘pariga o‘xshash’ (پری *pari* ‘pari’), ماه ویش *mâhwaš* – مهوش *mahwaš* ‘oydek’, ‘oysimon’; ‘hilola’ (ماه *mâh* ‘oy’).

فام -*fâm* – نقره فام *noqrafâm* ‘kumushdek’, ‘kumushsimon’ (نقره *noqra* ‘kumush’), گلفام *golfâm* ‘gulga o‘xshash’, ‘pushti rang’, ‘qizg‘ish’ (گل *gol* ‘gul’).

سبزه *sabza* (رنگ *rang* ‘rang’), رنگه *ranga* ‘rangli’ (a – ه *qoracha*, ‘bug‘doy rang’ (سبز *sabz* ‘yashil’).

2.2.1.1. Sifat yasovchi old qo‘shimchalar (prefikslar)

با *bâ-* – استعداد *bâeste‘dâd* ‘iste‘dodli’, ‘qobiliyatli’ (استعداد *es-te‘dâd* ‘iste‘dod’, ‘qobiliyat’).

به *ba-* – نام *banâm* ‘mashhur’ (نام *nâm* ‘nom’, ‘ism’), بکار *bakâr* ‘kerakli’, ‘yaroqli’ (کار *kâr* ‘ish’).

با *bâ-*, به *ba-* prefikslari otlarga qo‘shilib, predmet, hodisa tushunchalariga egalik yoki ortiqlik ma‘nolarini anglatuvchi sifatlar hosil qiladi.

بی *bê-* – ادب *bêadab* ‘tarbiyasiz’, ‘beadab’ (ادب *adab* ‘madaniyat’, ‘boadablik’, ‘adabiyot’), بی نمک *bênamak* ‘tuzsiz’, ‘zerikarli’ (نمک *namak* ‘tuz’), بی پروا *bêparwâ* ‘beparvo’, ‘beg‘am’, ‘loqayd’ (پروا *parwâ* ‘g‘am’, ‘tashvish’, ‘xavotirli’).

Mazkur prefiks otlarga qo‘shilib, o‘zakdan anglashilgan tushunchaga ega emaslikni, biror belgi yoki xususiyatning yo‘qligini, inkorni anglatadi.

نا *nâ-*

a) *nâ-* + ot:

نالامید *nâomêd* ‘noumid’ (امید *omêd* ‘umid’), ناانسان *nâensân* ‘be-tarbiya’, ‘qo‘pol’; ‘shafqatsiz’ (انسان *ensân* ‘inson’, ‘odam’);

b) *nâ-* + hozirgi zamon fe‘l negizi:

ناخوان *nâxân* ‘savodsiz’ (خوان *xân* – خواندان *xândan* ‘o‘qimoq’ fe‘lining HZN), نادان *nâdân* ‘nodon’, ‘johil’ (دان *dân* – دانستن *dânestan*

‘bilmoq’ fe’lining HZN), ناشناس *nâšenâs* ‘noma’lum’, ‘notanish’ (bilmoq’ fe’lining HZN) شناس *šenâs* – شناختن *šenâxtan* ‘tanimiq’, ‘bilmoq’ fe’lining HZN).

فرو *forô* – فروتن *forôtan* ‘kamtar’, ‘sodda’, ‘o’zini past tutadigan’ (تن *tan* ‘tana’, ‘shaxs’, ‘odam’), فرودست *forôdast* ‘ojiz’, ‘zaif’; ‘e’tiborsiz’, ‘haqir’ (دست *dast* ‘qo’l’).

هم *ham* – هم آهنگ *hamâhang* ‘uyg’un’, ‘hamohang’, ‘hamfikir’, ‘yakdil’ (آهنگ *âhang* ‘ohang’, ‘tovush’), هم رنگ *hamrang* ‘bir xil’, ‘bir turdagi’ (رنگ *rang* ‘rang’, ‘usul’, ‘tarz’).

لا *lâ* – (arabcha inkor prefiksi) لا علاج *lâ’elâj* ‘bedavo’, ‘tuzatib bo’lmaydigan’ (علاج *elâj* ‘dori-darmon’; ‘iloi’), لا انتها *lâentehâ* ‘chek-siz’, ‘bepoyon’ (انتها *entehâ* ‘chegara’, ‘poyon’, ‘intiho’; ‘chekka’).

ذی *zi*-, ذو *zu*- (bular aslida qo’shma so’zning birinchi komponenti sifatida talqin etiladi; biror xususiyat, sifatga egalikni bildiradi) – ذی روح *zirôh* ‘jonli’ (روح *rôh* ‘ruh’, ‘jon’), ذی دخل *zidaxl* ‘daxldor’, ‘aloqador’ (دخل *daxl* ‘daromad’, ‘daxldorlik’, ‘aloqa’), ذی فنون (فنون *fonun* /ko’plikda/ – *zufonun* (*zifonun*) ‘bilimdon’, ‘aql-zakovatli’ (فنون *fonun* /ko’plikda/ – *fan*/n/ ‘texnika’, ‘san’at’, ‘fan’, ‘kasb-hunar’).

2.2.2. Qo’shma sifatlar

Birdan ortiq o’zak-negizdan tashkil topgan qo’shma sifatlar bir bosh urg’u bilan aytilib, bir belgi-xususiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Qo’shma sifatlar komponentlari turli so’z turkumlaridan iborat bo’lishi mumkin. Masalan, dariy tilida qo’shma sifatlarning tarkibi quyidagicha:

1. Ikki otdan:

دوست *dôst* (صلح *solh* ‘tinchlik’, *solhdôst* ‘tinchliksevar’ (صلح *solh* ‘do’sst’; qo’shma so’zlarda: sevuvchi), ماهر *mâhrô/y/* ‘go’zal’, ‘oyyuzli’ (ماه *mâh* ‘oy’, (روی *rô(y)* ‘yuz’), دلخون *delxun* ‘dilxun’, ‘yuragi qon’, ‘bag’ri qon’ (دل *del* ‘yurak’, ‘dil’, خون *xun* ‘qon’).

2. Ot va sifatdan:

دلتنگ *deltang* ‘ma’yus’, ‘g’amgin’, ‘mungli’ (دل *del* ‘yurak’, تنگ *tang* ‘tor’, ‘qisqiq’), دهانپاره *dahânpâra* ‘og’zi bo’sh’, ‘vaysaqi’ (دهان *dahân* ‘og’iz’, پاره *pâra* ‘yirtiq’).

3. Sifat va otdan:

تنگ *tangčešm* ‘axis’, ‘baxil’, ‘hasadchi’ (*tang* ‘tor’, ‘si-qiq’, ‘tang’, چشم *čašm* va *češm* ‘ko‘z’), بداخل *badaxlâq* ‘axloqsiz’, ‘axloqi buzuq’ (بد *bad* ‘yomon’, اخلاق *axlâq* ‘axloq’, ‘xulq’, ‘xarakter’), خوش *xôšaxlâq* ‘yaxshi xulqli’, ‘xushaxloq’ (خوش *xôš* ‘yaxshi’, ‘yoqimli’, اخلاق *axlâq* ‘axloq’), خوش سيما *xôšsimâ* ‘go‘zal’, ‘kelishgan’ (خوش *xôš* ‘yaxshi’, ‘yoqimli’, سيما *simâ* ‘yuz’, ‘ko‘rinish’, ‘qiyofa’).

4. Son va otdan (suffikslarsiz va ی -i/ گى -gi; • -a suffikslari bilan):

دل *yakdel* ‘yakdil’, ‘hamjihat’, ‘yakdillik bilan qabul qilingan’ (یک *yak* ‘bir’, دل *del* ‘yurak’), رنگ *yakrang* ‘bir xil’, ‘bir xil rangli’ (یک *yak* ‘bir’, رنگ *rang* ‘rang’, ‘tus’), طرف *yaktarafa* ‘bir tomonlama’ (یک *yak* ‘bir’, طرف *taraf* ‘taraf’, ‘tomon’), دوساعتی *dusâati* ‘ikki soatli’, ‘ikki soatga mo‘ljallangan’ (دو *du* ‘ikki’, ساعت *sât* ‘soat’, ‘vaqt’).

5. Olmosh va ot yoki fe‘l negizidan (suffikslarsiz va • -a suffiksi bilan):

جانبه *hamajâneba* ‘har taraflama’ (همه *hama* ‘hamma’, *jâneb* ‘taraf’, ‘yo‘nalish’), خودسر *xôdsar* ‘o‘jar’, ‘qaysar’ (خود *xôd* ‘o‘z’ (o‘zlik olmoshi), سر *sar* ‘bosh’), خودکار *xôdkâr* ‘avtomatik’ (خود *xôd* ‘o‘z/i’, کار *kâr* ‘ish’; bu yerda: bajaruvchi), خودساخت *xôdsâxt* ‘qo‘lda qilingan’, ‘qo‘lbola’, ‘kustar’ (خود *xôd* ‘o‘z/i’, ساخت *sâxt* – ساختن *sâxtan* ‘yasamoq’, ‘qurmoq’, ‘qilmoq’ fe‘lining O‘ZN; ساخت *sâxt* ‘ishlangan narsa’, ‘mahsulot’, ‘buyum’), خودبین *xôdbin* ‘xudbin’, ‘egoist’ (خود *xôd* ‘o‘z/i’, بین *bin* – دیدن *didan* ‘ko‘rmoq’ fe‘lining HZN), خودپسند *xôdpesand* ‘o‘zidan (o‘z ishidan) xursand’, ‘o‘ziga lo‘z ishiga/ bino qo‘ygan’, ‘mag‘rur’ (خود *xôd* ‘o‘z/i’, پسند *pesand* – پسندیدن *pesandidan* ‘manzur ko‘rmoq’, ‘ma‘qul (afzal) ko‘rmoq’ fe‘lining O‘ZN; bu yerda: sevuvchi, afzal ko‘ruvchi).

6. Ot yoki sifat va hozirgi zamon fe‘l negizlaridan:

آور *fathâwar* ‘g‘olibona’, ‘zafarli’ (فتح *fath* ‘g‘alaba’, آور *âwar* – آوردن *âwardan* ‘keltirmoq’ fe‘lining HZN), الهامبخش *elhâmbaxš* ‘ilhombaxsh’ (الهام *elhâm* ‘ilhom’, بخش *baxš* – بخشیدن *baxšidan* ‘baxsh etmoq’, ‘bag‘ishlamoq’ fe‘lining HZN), سرشکن *saršekan* ‘qiyin’, ‘mashaqqatli’, ‘bosh qotiradigan’ (سر *sar* ‘bosh’, شکن *šekan* – شکستن *šekastan* ‘sinmoq’, ‘sindirmoq’ fe‘lining HZN), خوشنما *xôšnamâ* ‘chiroyli’;

‘xushmanzara’ (خوش *xōš* ‘yoqimli’, ‘yaxshi’, نما *namâ* – نمودن *namudan* ‘ko‘rinmoq’ fe‘lining HZN), خوشخور *xōšxor* ‘xushxo‘r’, ‘mazali’ (خوش *xōš* ‘yoqimli’, خور *xor* – خوردن *xordan* ‘yemoq’, ‘ichmoq’ fe‘lining HZN).

Eslatma. Tarkibida نا *nâ*- prefiksi bo‘lgan birikmalarda qo‘shma so‘zning birinchi qismida ifodalangan xususiyat (belgi)ning yo‘qligi anglashiladi:

طاقت ناپذیر *tâqatnâpazir* ‘chidab (toqat qilib) bo‘lmaydigan’ (طاقت *tâqat* ‘kuch’, ‘sabot’, ‘toqat’, پذیر *pazir* – پذیرفتن *paziroftan* ‘qabul qilmoq’ ‘ma‘qullamoq’ fe‘lining HZN).

7. Ot yoki sifat va o‘tgan zamon fe‘l negizidan:

آلود *xunâlud* ‘qonga bo‘yalgan’, ‘qonli’ (خون *xun* ‘qon’, آلود *âlud* – آلودن *âludan* ‘bulg‘anmoq’, ‘bo‘yalmoq’ fe‘lining O‘ZN), عرق آلود *araqâlud* ‘terlagan’, ‘terli’ (عرق *araq* ‘ter’, آلود *âlud* – آلودن *âludan* fe‘lining O‘ZN; bu yerda: *ho‘llangan, quyilgan* ma‘nosida).

8. Ot yoki sifat va o‘tgan zamon sifatdoshi:

خوردن *xorda* – خورد *sâlxorda* ‘keksa’, ‘qari’ (سال *sâl* ‘yil’, خوردن *xordan* ‘yemoq’ fe‘lining o‘tgan zamon sifatdoshi /O‘ZS/), غمزه *yamzada* ‘g‘amga to‘la’, ‘baxtsiz’ (غم *yam* ‘g‘am’, ‘qayg‘u’, زده *zada* – زدن *zadan* ‘urmoq’ fe‘lining O‘ZS), دل سوخته *delsôxta* ‘azob-uqubat tortuvchi’, ‘oshiq’, ‘oshifta’ (دل *del* ‘yurak’, سوخته *sôxta* – سوختن *sôxtan* ‘kuymoq’, ‘kuydirmoq’ fe‘lining O‘ZS).

9. O‘tgan zamon sifatdoshi va otdan:

شکسته نفس *šekastanafs* ‘kamtar’, ‘kamsuqum’ (شکسته *šekasta* – شکستن *šekastan* ‘sinmoq’, ‘sindirmoq’ fe‘lining O‘ZS, نفس *nafs* ‘yurak’, ‘jon’, ‘ruh’, ‘mohiyat’, ‘nafs’), ساخته کار *sâxtakâr* ‘qallob’, ‘firibgar’, ‘mo‘g‘ombir’ (ساخته *sâxta* – ساختن *sâxtan* ‘yasamoq’, ‘qurmoq’, ‘qilmoq’ fe‘lining O‘ZS, کار *kâr* ‘ish’, ‘harakat’).

Komponentlarning munosabati tenglashishga asoslangan qo‘shma sifatlar, predmet, hodisa yoki holatning bir umumiy belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Dariy tilida bunday sifatlar – kopulyativlar quyidagi usullar bilan yasaladi:

1. Ikkita bir shakldagi so‘z juftlanadi (takrorlanadi):

تکە *tekkatekka* ‘yirtiq’, ‘uzuq-yuluq’; ‘darmoni qurigan’ (تکە *tekkatekka* ‘qism’, ‘bo‘lak’, ‘parcha’), پاره پاره *pârapâra* ‘juldur’, ‘titilib ketgan’ (پاره پاره *pâra* ‘parcha’), خط خط *xatxat* ‘yo‘l-yo‘l’ (خط *xat* ‘chiziq’, ‘yo‘l’). Ma-salan, تکە خط خط *tekka-ye xatxat* ‘guli yo‘l-yo‘l gazmol’.

Mazkur guruh sifatlarni hosil qilishda interfikslar ham ishtirok etishi mumkin:

رنگارنگ *rangârang* yoki رنگ به رنگ *rangbarang* ‘rangbarang’, ‘turli’, مال مال *mâlâmâl* ‘liq to‘lgan’; ‘serob’, ‘farovon’ (مال *mâl* ‘mol-mulk’).

2. Ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin sifatlار juftlanadi; qo‘shma so‘zning birinchi komponenti ketidan so‘zlarni birlashtiruvchi *-o-* bog‘lovchisi qo‘llanadi:

تروتازە *tarotâza* ‘yangi’, ‘urinmagan’ (تر *tar* ‘ho‘l’; ‘yangi’ (*me- valar haqida*), تازه *tâza* ‘yangi’), موش و برنج *mâsoberenj* ‘kulrang’, ‘mosh-birinch’ (*soqol*) (موش *mâš* ‘mosh’, برنج *berenj* ‘guruch’), سرخ و سفید *sorxosafêd* ‘qirmizi’ (*yuz haqida*), ‘sog‘lom’ (سرخ *sorx* ‘qizil’, سفید *safêd* ‘oq’).

Savollar

1. *Dariy tilida qanday so‘zlar sifat turkumiga kiradi?*
2. *Sifatlar gapda qaysi vazifalarda keladi?*
3. *Belgi darajalarining hosil bo‘lish yo‘llarini misollar bilan aytib bering.*
4. *Ozaytirma va kuchaytirma sifatlarning dariy tilida qanday ifodalanishini tushuntiring.*
5. *Yasama sifatlarning yasallish usullarini bayon qiling.*
6. *Qo‘shma sifatlarga misollar ayting va hosil bo‘lish yo‘llarini tushuntirib bering.*

III. SON عدد *adad*

Son predmetning sanogʻini, tartibini koʻrsatuvchi soʻz turkumidir⁵.

Dariy tilida son quyidagi grammatik belgilarga ega:

1. Doim otlar bilan birga qoʻllanib, otlarning aniqlovchisi boʻlib keladi.

2. Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi soʻzlarni oʻziga tobe qilib kelmaydi – aniqlovchi olmaydi.

3. Boshqa soʻz turkumlaridan son yasalmaydi. Sondan esa turli soʻz turkumlari yasalishi mumkin.

4. Predmetning miqdorini ifodalashda baʼzan predmet bilan son oʻrtasida hisob soʻzlari (numerativlar) qoʻllanadi.

5. Son mustaqil ishlatilganda (otlashganda va mavhum miqdor tushunchasini bildirganda), old va ort komakchilarni (oʻzbek tilida esa kelishik va egalik affikslarini) qabul qilishi mumkin.

Bir sonidan katta barcha sonlar otning koʻplik shakliga xos birdan ortiqlik, koʻplik tushunchasini konkretlashtirib, aniqlab ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun bunday sonlar bilan birikkan ot koʻplik shaklsiz ishlatiladi. Solishtiring:

محصلین آمدند *mohasselin âmadand* ‘studentlar kelishdi’ –

چهارمحصل آمد *çahâr mohassel âmad* ‘toʻrt student keldi’,

کتابها گرفتم *ketâbhâ gereftam* ‘kitoblar oldim’ –

ده جلد کتاب گرفتم *dah jeld ketâb gereftam* ‘oʻnta kitob oldim’.

Sonlar maʼno xususiyati va grammatik belgilari jihatidan ikki asosiy guruhga boʻlinadi: miqdor sonlar اعداد اصلی *aʼdâd-e asli* va tartib sonlar اعداد ترتیبی *aʼdâd-e tartibi*. Miqdor sonlar predmetning miqdorini, sanogʻini va umuman miqdor tushunchasini bildirsa, tartib sonlar predmetning tartibini, darajasini anglatadi.

⁵ Son sanaladigan predmet bilan birga qoʻllanmaganda, yaʼni matematik son maʼnosida u son oti hisoblanadi. Bunday vaqtda sonning maʼnosi mavhum xarakterga ega boʻladi. Sonlar sanaladigan predmetlar bilan birga qoʻllanganda, u son turkumini tashkil qiladi.

3.1. Miqdor sonlar

Sodda sonlar

سک <i>yak</i> ‘bir’	ده <i>dah</i> ‘o‘n’
دو <i>du</i> ‘ikki’	بیست <i>bist</i> ‘yigirma’
سه <i>se</i> ‘uch’	سی <i>si</i> ‘o‘ttiz’
(چار) چہار <i>čahâr/čâr</i> ‘to‘rt’	(چیل) چہل <i>čehel/čêl</i> ‘qirq’
پنج <i>panj</i> ‘besh’	پنجاہ <i>penjâh</i> ‘ellik’
شش <i>šaş</i> ‘olti’	شست <i>šast</i> ‘oltmish’
هفت <i>/h/aft</i> ‘yetti’	هفتاد <i>/h/aftâd</i> ‘yetmish’
هشت <i>/h/ašt</i> ‘sakkiz’	هشتاد <i>/h/ashtâd</i> ‘sakson’
نه <i>noh</i> /no/ ‘to‘qqiz’	نود <i>nawad</i> ‘to‘qson’
	صد <i>sad</i> ‘yuz’
	هزار <i>hazâr</i> ‘ming’.

Qo‘shma sonlar

يازده <i>yâzda/h/</i> ‘o‘n bir’	
دوازده <i>dowâzda/h/</i> ‘o‘n ikki’	دوصد <i>dusad</i> ‘ikki yuz’
سیزده <i>sêzda/h/</i> ‘o‘n uch’	سه صد <i>sêsad</i> ‘uch yuz’
(چارده) چہارده <i>čahârda/h/ (čârda)</i> ‘o‘n to‘rt’	(چارصد) چہارصد <i>čahârsad (čârsad)</i> ‘to‘rt yuz’
پانزده <i>pânzda/h/</i> ‘o‘n besh’	پنج صد <i>panjsad</i> ‘besh yuz’
شانزده <i>šânzda/h/</i> ‘o‘n olti’	ششصد <i>šaşsad</i> ‘olti yuz’
هفده (اوده) <i>hafda/h/ (avda)</i> ‘o‘n yetti’	هفتصد <i>/h/aftsad</i> ‘yetti yuz’
هشتده (هژده) <i>haštda/h/ (hažda)</i> ‘o‘n sakkiz’	هشتصد <i>/h/aštsad</i> ‘sakkiz yuz’
نوزده <i>nozda/h/</i> ‘o‘n to‘qqiz’	نهصد <i>nohsad</i> ‘to‘qqiz yuz’.

Murakkab sonlar

Murakkab sonlar bir miqdor tushunchasini anglatuvchi ikki va undan ortiq sonlarning *-o-* bog‘lovchisi orqali bog‘lanishidan tuziladi, ya‘ni *بیست و پنج bist-o-panj* ‘yigirma besh’, *هشتصد و یک* */h/aštsad-o-bist-o-yak* ‘sakkiz yuz yigirma bir’ kabi.

Miqdor sonlar sanalayotgan predmetdan oldin qo‘yiladi: دو دختر *du doxtar* ‘ikki qiz’, سی و پنج *panj jeld ketâb* ‘beshta kitob’, *سی-یو-پنج nafar mohassel* ‘o‘ttiz besh nafar student’.

Miqdor sonlarni, o‘zbek tili grammatikasiga asoslangan holda, ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1) sanoq son; 2) dona son; 3) chama son; 4) jamlovchi son; 5) taqsim son.

3.1.1. Sanoq son

Sanoq son bir turdagi predmetlarning umumiy miqdorini anglatadi: پانزده سال *pânzdah sâl* ‘o‘n besh yil’, سه زن *se zan* ‘uch ayol’ kabi.

3.1.2. Dona son⁶

Bir xil predmetlarning donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi. Dona son sanoq son dan so‘ng donalikni ifodalaydigan hisob so‘zlarini keltirish orqali hosil qilinadi: دو نفر محصل *du nafar mohassel* ‘ikki nafar student’, پنج دانه تخم *panj dâna toxm* ‘besh dona tuxum’.

3.1.2.1. Hisob so‘zlari (numerativlar)

Predmetning soniga ko‘ra belgisini ifodalab keladigan sanoq sonlar (dona sonlar) ba’zi vaqtda predmetlarning hisobini ko‘rsatuvchi so‘zlar – hisob so‘zlari (numerativlar) bilan birga qo‘llanadi. Bu so‘zlar, asosan, sanalayotgan aniq predmetni ko‘rsatmay, o‘sha predmetni hisoblashda uning qaysi kategoriyaga, guruhga oid ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi. Dariy tilida numerativlar son va sanaluvchi predmetlar nomini bildirgan so‘zlar orasiga qo‘yilib, izofa belgisini qabul qilmaydi. Demak, numerativlar o‘z leksik ma’nosini qisman yoki batamom yo‘qotgan va sanaluvchi predmet kategoriyasini ko‘rsatishga xizmat qiladigan so‘zlardir. Har bir guruh sanaluvchi so‘zlar uchun muayyan numerativlar ishlatiladi:

1. Uy-ro‘zg‘or va boshqa predmetlar uchun – دانه *dâna* ‘dona’, تا *tâ* (تا *tâ* ‘ta’ affiksiga yaqin vazifani bajaradi):

سه تا ميز *se tâ mêz* ‘uchta stol’,

شش دانه تخم *šaš dâna toxm* ‘olti dona tuxum’,

پنج دانه سيب *panj dâna sêb* ‘besh dona olma’.

⁶ Ba’zi qo‘llanmalarda sanoq sonlar tarkibida beriladi [15:310].

2. Insonlar uchun – نفر *nafar*, تن *tan*:
محصل چهار نفر *ĉahâr nafar mohassel* ‘to‘rt nafar student’,
دختر پنج تن *panj tan doxtar* ‘beshta qiz’.
3. Hayvonlar uchun – رأس *ra’s* (bosh):
هفت رأس گوسفند */h/aft ra’s gôsfand* ‘yetti bosh qo‘y’.
4. Kitoblar uchun – جلد *jeld* (jild):
دو جلد کتاب *du jeld ketâb* ‘ikkita kitob’, ‘ikki jild kitob’.
5. Juft predmetlar uchun – جفت *joft* (juft, par):
یک جفت جراب *yak joft jorâb* ‘bir juft paypoq’.
6. Kiyimlar uchun – دست *dast*:
یک دست دریشی *yak dast derêši* ‘bitta kostyum’,
دو دست پیراهن *du dast pêrâhan* ‘ikkita ko‘ylak’.
7. Uy va imoratlar uchun – باب *bâb* hamda دربند *darband*:
یک باب حویلی *yak bâb hawili* ‘bitta hovli’,
هشت باب خانه */h/ašt bâb xâna* ‘sakkizta uy’,
یک دربند باغ *yak darband bâγ* ‘bitta bog’.
8. Gilam, adyol, teri hamda qog‘oz, karta, chizmalar uchun –
تخته *taxta*:
ده تخته نمد *dah taxta namad* ‘o‘nta namat’.
9. Mashina, arava uchun – عراده *arâda* (g‘ildirak):
پنج عراده موتر *panj arâda môtar* ‘beshta avtomashina’.
10. Qilich, xanjar kabi sovuq qurollar uchun – قبضه *qabza*:
ده قبضه شمشیر *dah qabza šamšêr* ‘o‘n dona qilich’.
11. Tegirmon uchun – حجر *hajar* (tosh):
یک حجر آسیاب *yak hajar âsyâb* ‘bitta tegirmon’.
12. Uchoq va kemalar uchun – فروند *farwand*:
سه فروند طیاره *se farwand tayâra* ‘uchta samolyot’.

3.1.3. Chama son

Chama son predmetning noaniq, taxminiy miqdorini anglatadi. Dariy tilida chama son turiga ko‘plik shaklida ishlatilgan ayrim sanoq sonlarni kiritish mumkin. Masalan, ده ها *dahhâ* ‘o‘nlab’, ‘o‘nlar-

cha', هزاران *hazârân* 'minglab', 'minglarcha' kabi. Shuningdek, ikki sanoq sonni juftlab keltirish orqali ham chama son ma'nosi ifodalalanadi: دخنرک سه چہار سالہ *doxtarak-e se-čahâr sâla* 'uch-to'rt yashar qizcha', چہار پنچ نفر *čahâr-panj nafar* 'to'rt-besh kishi'.

Bulardan tashqari, predmetlarning noaniq miqdori چند *čand*, چندین *čandin* 'bir necha', 'bir qancha', بسیار *besyâr* va زیاد *ziyâd* 'ko'p', کم *kam* 'kam', 'oz' kabi so'zlarning ot bilan birikishi orqali ham ifodalanadi [2: 76]. Bular gapda ot – aniqlanmishdan oldin qo'yiladi:

چندین بار *čandin bâr* 'bir necha marta',

چندین نفر *čand nafar* 'bir necha kishi',

بسیار تکلیف *besyâr taklif* 'ko'p qiyinchilik',

کم کسی *kam kasê* 'ba'zi birovlar', 'ozgina kishilar'.

Biroq so'zlashuv tilida ot ko'plik shaklda bo'lsa, so'z tartibi boshqacha bo'lishi ham mumkin, ya'ni بسیار چیزها *besyâr čizhâ* – چیزهای بسیار *čizhâ-ye besyâr* 'ko'p narsalar'.

Lekin yuqorida keltirilgan so'zlar son bo'la olmasligi bizga ma'lum. Chunki son xoh predmetning aniq miqdorini (*beshita kitob*), xoh noaniq miqdorini (*besh-olti kitob*) bildirmasin, har ikki holatda ham yozuvda raqamlar bilan ifodalanadi. Ammo بسیار *besyâr* 'ko'p', کم *kam* 'oz' kabi predmetlarning noaniq miqdorini bildiruvchi so'zlar yuqoridagi raqamlar bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham ular son hisoblanmaydi.

3.1.4. Jamlovchi son

Bu sonlar predmet miqdorini jamlab, to'dalab ko'rsatadi. Dariy tilida jamlovchi sonlar sanoq sonlarga گانہ *-gâna* affiksini qo'shish orqali yasaladi. Dariy tilida, o'zbek tilidan farq qilib, mazkur sonlar ham ot, ham sifat vazifasini bajara oladi:

دوگانہ *dugâna* 'ikkov', 'ikkala'; 'ikki taraflama', 'ikkilangan',

پنجگانہ *panjgâna* 'beshov', 'beshovlon',

دول پنجگانہ بزرگ *dowal-e panjgâna-ye bozorg* 'besh buyuk davlat'.

3.1.5. Taqsim son

Bu sonlar predmetlarning taqsimlanish yoki guruhlanish miqdorini anglatadi. Taqsim son quyidagicha yasaladi:

a) sanoq sonni takrorlash yo'li orqali:

یک یک نفر *yak-yak nafar* 'bitta-bittadan',

دودو سال *du-du sâl* ‘ikki yildan’.

O‘zbek tilida bu o‘rinda son negiziga *-tadan* qo‘shimchasi qo‘shiladi;

b) takrorlash va affiksatsiya yo‘li orqali:

سه تا سه *se-tâ se-tâ* yoki سه سه تا *se-se-tâ* ‘uchta-uchtadan’;

v) affiksatsiya yo‘li orqali:

پنجتایی *panjtâyi* ‘beshtadan’,

چاری *čâri* ‘to‘rttadan’,

این تخمه چاری خریدم *In toxm-a čâri xaridom* (og ‘z.) ‘Bu tuxumni to‘rt (afg‘oni)dan sotib oldim’.

3.1.6. Kasr sonlar اعداد کسری *a‘dâd-e kasri*

Sonlar butun son, kasr son shaklida qo‘llanadi.

Butun son miqdorni, sanoqni predmetning butunligini saqlagan holda ifodalaydi: پنج *panj* ‘besh’, ده *dah* ‘o‘n’, شانزده *šânzdah* ‘o‘n olti’ kabi.

Kasr son butunning qismini ifodalash uchun ishlatiladi. Dariy tilida kasr son ikki usulda yasaladi:

a) maxraj – surat (agar surat ‘bir’ bo‘lsa):

سه یک *se-yak* ‘uchdan bir’,

چهار یک *ča/h/âr yak* ‘to‘rtidan bir’, ‘chorak’ va sh.k.;

b) surat –maxraj (maxraj tartib son shaklida keladi):

یک چهارم *yak čahârom* ‘to‘rtidan bir’,

دو سوم *du sowwom* ‘uchdan ikki’ va sh.k.

Bu son turi sintaktik usul bilan ham ifodalanishi mumkin, ya‘ni kasr sonlar birikmasidagi ikkinchi son (maxraj) az old ko‘makchisini qabul qilish yo‘li bilan hosil qilinadi: دو از پنج *du az panj* yoki از پنج دو *az panj du* ‘beshdan ikki’, هفت سه از *haft se az* ‘yettidan uch’ kabi.

Mazkur tur bilan yasalgan kasr sonlarda surat ‘bir’ bo‘lsa, albat, birlik ko‘rsatkichi ى orttiriladi: دو یکی *yakê az du* ‘ikkidan bir’, سه یکی *yakê az se* ‘uchdan bir’ kabi.

Ilova. Matematikada sanoq son bilan ifodalangan surat va maxraj orasiga بر *bar* old ko‘makchisini keltirish bilan kasr son yasaladi, ya‘ni دو بر پنج *du bar panj* ‘beshdan ikki’ (2/5) kabi.

Foiz فیصد *fisad*

Dariy tilida foiz quyidagicha ifodalanadi: foizi aniqlanayotgan son, so'ngra فیصد *fisad* yoki درصد *darsad* (درصد *darsad* Hirot shevasida uchraydi) so'zini keltirish bilan (صد *sad* 'yuz', فی *fi* (arabcha) va در *dar* old ko'makchisida):

ده فیصد اهالی *dah fisad-e ahâli* 'aholining o'n foizi'.

3.2. Tartib sonlar

اعداد ترتیبی یا وصفی *a'dâd-e tartibi yâ wasfi*

Tartib son predmetning miqdorini boshqa sonlarga nisbatan konkret ravishda ifodalaydi – predmetni mavhum ravishda emas, ularning tabiiy tartibini, ketma-ketligini bildiradi. Predmetning ketma-ketligi haqidagi tasavvur uning belgi tasavvuridir. Bu xususiyati tartib sonlarni vazifasi va morfologik xususiyatlariga ko'ra sifatga yaqin ekanligini ko'rsatadi (tartib son sintaktik vazifasi jihatidan sifatga yaqin bo'lib, ma'nosi bilan undan farq qiladi).

Dariy tilida tartib son sanoq songa -om, مین -*omin* (o'zbek tilida -/i/nchi) affikslarining qo'shilishidan yasaladi:

هفت */h/aft* 'yetti' – هفتم */h/aftom* 'yettinchi',

بیست و چهار *bist-o-čahâr* 'yigirma to'rt' – بیست و چهارم *bist-o-čahârom* 'yigirma to'rtinchi',

پنج *panj* 'besh' – پنجم *panjom* 'beshinchi' kabi.

دو *du*, سه *se*, سی *si* sonlaridan tartib son yasashda quyidagi fonetik o'zgarishlar ro'y beradi:

دو *du* – دوم *dowwom* 'ikkinchi',

سه *se* – سوم *so(w)wom*, sewwom 'uchinchi',

سی *si* – سیام *siyom* 'o'ttizinchi'.

Shuningdek, o'z leksik ma'nolariga ko'ra, نخست *noxost* 'birinchi' va arab sonlari: اول *awwal* 'birinchi', ثانی *sâni* 'ikkinchi', ثالث *sâles* 'uchinchi' va hokazolar ham tartib sonlar jumlasiga kiradi. نخست *noxost* va اول *awwal* tartib sonlari -in affiksini qabul qilib, qaytadan tartib son yasaydi: اولین *awwalin* va نخستین *noxostin* 'birinchi'.

Murakkab sonlarda (o'zbek tilida qo'shma sonlarda) -om, مین -*omin* affikslari sonning oxirgi qismiga qo'shiladi: هزار و نهصد و بیست و پنج *hazâr-o-nohsad-o-bist-o-panjom* 'bir ming to'qqiz yuz yigirma beshinchi'.

om affiksi bilan yasalgan hamda اول *awwal*, نخست *noxost* tartib sonlari aniqlanmishdan keyin kelib, u bilan izofa orqali bog'lanadi, ya'ni سال اول *sâl-e awwal* 'birinchi yil', چهارم *dars-e çahârom* 'to'rtinchi dars'.

Biroq so'zlashuv tilida nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'rin almashishi ham mumkin: اول روز *awwal rôz* 'birinchi kun', دوم بار *dowwom bâr* 'ikkinchi marta'.

omin va ين -in affikslari orqali yasalgan tartib sonlar o'zi aniqlaydigan so'zdan ham oldin, ham keyin kelishi mumkin:

نخستين کار *noxostin kêr* 'birinchi ish',
هفتمين سالگرد *haftomin sâlgard* 'yetti/nchi/ yilligi',
اولين روز *rôz-e awwalin* 'birinchi kun',
هفتمين سال *sâl-e haftomin* 'yettinchi yil'.

Savollar

1. Sonlarning morfologik xususiyatlarini izohlang.
2. Son gapning qaysi bo'laklari bo'lib keladi? Misollar bilan aytib bering.
3. Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlarini sanang.
4. Sonning ma'no va grammatik jihatdan turlarini ayting. Bu turlarning har biriga 2-3 tadan misol keltiring.
5. Hisob so'zlarining qo'llanilishini tushuntiring.
6. Tartib son sonning boshqa turlaridan nima bilan farqlanadi?
7. Tartib sonlarning qaysi xususiyatlari ularning sifatga yaqin ekanligini ko'rsatadi?
8. Dariy tilida sonlarning otlashuvuni misollar orqali tushuntiring.

IV. OLMOSH ضمير *zamir*

Olmosh predmet yoki uning biror belgisini bildirmay, predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan mustaqil so'z turkumidir. Olmoshlar nutqda ot, sifat, son va ba'zan ravish o'rnida keladi.

Dariy tilida ot o'rnida kelgan olmoshlar otlar kabi son kategoriyasiga ega bo'ladi, old va ort ko'makchilar bilan qo'llanadi. Biroq ot so'z turkumidan farq qilib, artikl qabul qilmaydi hamda sifatlar bilan aniqlana olmaydi; من مسكين *man-e meskin* 'bechora men' shaklidagi holatlar chuqur kitobiy xarakterga ega bo'lib, faqat klassik davr tilida uchraydi [2: 69].

Sifat o'rnida kelgan olmoshlar gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi.

Dariy tilida olmoshlarni ma'no va grammatik belgilari jihatidan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- | | | | |
|----|--------------|----------------------------|---|
| 1. | ضمایر شخصی | <i>zamâyer-e šaxsi</i> | Kishilik olmoshlari |
| 2. | ضمایر اشاره | <i>zamâyer-e ešâra</i> | Ko'rsatish olmoshlari |
| 3. | ضمایر مشترک | <i>zamâyer-e moštarak</i> | O'zlik olmoshi |
| 4. | ضمایر پرسشی | <i>zamâyer-e porseši</i> | So'roq olmoshlari |
| 5. | ضمایر توصیفی | <i>zamâyer-e tawsifi</i> | Belgilash olmoshlari |
| 6. | ضمایر منفی | <i>zamâyer-e manfi</i> | Bo'lishsizlik olmoshlari |
| 7. | ضمایر مبهم | <i>zamâyer-e mobham</i> | Gumon olmoshlari |
| 8. | ضمایر متصل | <i>zamâyer-e mottasel</i> | Birikuvchi olmoshlar
(dariy tiliga xos bo'lib, o'zbek tilida egalik afiks-lariga to'g'ri keladi) |
| 9. | ضمایر متبادل | <i>zamâyer-e motabâdel</i> | Birgalik olmoshlari |

4.1. Kishilik olmoshlari

ضمایر شخصی *zamâyer-e šaxsi*

Kishilik olmoshlari shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Eslatma. O'zbek tilida ba'zi kishilik olmoshlari shaxsni ifodalashi bilan birga, ko'rsatish ma'nosini ham bildiradi. Masalan, kishilik-korsatish olmoshlari: 'u', 'ular'. Dariy tilida esa ko'rsatish olmoshlari III shaxs, birlik va ko'plikdagi kishilik olmoshlari o'rnida kela oladi va, odatda, kishilik-korsatish olmoshlari deb yuritiladi.

	Birlik	Ko'plik
I sh.	من <i>man</i> 'men'	ما <i>mâ</i> 'biz'
II sh.	تو <i>tu</i> 'sen'	شما <i>šomâ</i> 'siz'
III sh.	وی او <i>way</i> 'u'	ایشان <i>êšân</i> , اوشان <i>ôšân</i> , آنها <i>ânâ</i> 'ular'

Dariy tilida ham, o'zbek tilidagidek, ko'plikni ko'rsatuvchi *šomâ* olmoshi birlik ma'nosida ham qo'llanib, hurmat ma'nosini anglatadi. Ko'plikni ta'kidlab ko'rsatish uchun *mâ*, *šomâ* olmoshlariga *hâ* ko'plik affiksi qo'shilishi mumkin: *mâhâ* 'bizlar', *šomâhâ* 'sizlar' (میان *mâyân*, شما *šomâyân* shakllari eskirgan [2: 69]. Shuningdek, ایشان *êšân* va اوشان *ôšân* 'ular' olmoshi hozirgi dariy tilida hurmat ma'nosida ishlatilib, bitta shaxsni ko'rsatadi. Ko'plik ma'nosini ifodalashda esa, odatda, آنها *ânâ*, آنان *ânân* 'ular' qo'llanadi.

Dariy tilida kishilik olmoshlari o'rnida ularning xushmuomala ekvivalentlari hamda epistolyar uslubga xos so'zlarni ishlatish hol-lari kuzatiladi. Masalan, من *man* 'men' o'rnida اینجانب *injâneb*, بنده *banda*, فقیر *faqir*, این ناچیز *in nâcîz*, شما *šomâ* 'siz' o'rnida جناب *janâb* ishlatilishi mumkin.

4.2. Ko'rsatish olmoshlari

ضمایر اشاره *zamâyer-e ešâra*

Ko'rsatish olmoshlari predmetni vaqt va o'rniga nisbatan ko'rsatish, ajratish uchun ishlatiladi. Ular, so'zlovchi bilan predmet orasidagi vaqt va masofa munosabatiga ko'ra, bir-biridan farqlanadi. Masalan, این *in* 'bu/ shu' olmoshlari so'zlovchiga yaqin va ma'lum bo'lgan predmetni yo shaxsni ko'rsatsa, آن *ân* 'u/ o'sha' olmoshlari so'zlovchiga ma'lum bo'lgan vaqt-masofa jihatidan uzoqroq predmetni ko'rsatadi.

Shuningdek, ham- prefiksiga این *in* va آن *ân* ko'rsatish olmoshlarini qo'shish orqali yasama ko'rsatish olmoshlari hosil qilinadi: همین *hamin* 'mana bu', 'mana shu', همان *hamân* 'anavi', 'o'sha'. Bunday hollarda ham- prefiksiga این *in* va آن *ân* olmoshlarini ta'kidlash, ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Ko'rsatish olmoshlari otlardan oldin kelib, sifatlovchi /aniqlovchi/ vazifasida qo'llanadi. Bu holda ko'rsatish olmoshlari

dariy tilida ham, o‘zbek tilidagidek, ko‘plik shaklini hamda izofa qabul qilmaydi: این زن *in zan* ‘bu ayol’, آن دختر *ân doxtar* ‘u qiz’ kabi.

Agar ko‘rsatish olmoshlari ot vazifasida kelsa, otlar kabi son afiksarlari, old va ort ko‘makchilar /o‘zbek tilida egalik va kelishik afiksarlari/ bilan qo‘llanadi.

4.3. O‘zlik olmoshi

ضمایر مشترک *zamâyer-e moštarak*

O‘zlik olmoshi aniq, konkret yakkalikni ajratib ko‘rsatish yoki ot va kishilik olmoshlarining ma’nosini konkretlashtirish, ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Dariy tilida olmoshning bu turi uch so‘z – خود *xôd*, خویش *xêš*, خویشان *xêštan* (oxirgi ikkitasi kitobiy uslubga xos bo‘lib, kam ishlatiladi), o‘zbek tilida esa bir so‘z – o‘z so‘zidan iborat.

M.N.Neghat Saidiy dariy tilida خود *xôd* olmoshining besh xil ishlatilish tartibini ko‘rsatadi [16]:

1. ...خود گفتم، خود *xôd goftam, xôd goftêm...* -----
2. ...من خود گفتم، تو خود گفتی... *man xôd goftam, tu xôd gofti...* -----
3. ...خودمان گفتم، خودم *xôdam goftam, xôdemân goftêm...* *o‘zîm aytdim, o‘zîmiz aytdik...*
4. ...خودمان گفتم، ما خودمان گفتم... *man xôdam goftam, mâ xôdemân goftêm...* *men o‘zîm aytdim, biz o‘zîmiz aytdik...*
5. ...خود ما گفتم، خود من گفتم... *xôd-e man goftam, xôd-e mâ goftêm...* *mening o‘zîm aytdim, bizning o‘zîmiz aytdik...*

Yuqoridagi ko‘rsatmaga asoslangan holda dariy tilida o‘zlik olmoshining xususiyatlarini sanab o‘tamiz:

1. Dariy tilida o‘zbek tilidan farq qilib, o‘zlik olmoshi shaxs-son affiksarisiz birlik va ko‘plik hamda uchala shaxsdagi kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llanib, odatda, shaxsni ko‘rsatadi; shaxs-son kesimdan anglashiladi:

خود گفتم	<i>xôd goftam</i>	‘o‘z/im/ aytdim’
خود گفتی	<i>xôd gofti</i>	‘o‘z/ing/ aytding’
خود گفت	<i>xôd goft</i>	‘o‘z/i/ aytdi’
خود گفتم	<i>xôd goftêm</i>	‘o‘z/imiz/ aytdik’

خود گفتید *xôd goftêd* ‘o‘z/ingiz/ aytdingiz’
 خود گفتند *xôd goftand* ‘o‘z/lari/ aytdilar’.

2. Dariy tilida egalik /enklitik/ olmoshlari (o‘zbek tilida egalik affiksleri) bilan birga qo‘llangan *xôd* o‘z olmoshining ma‘lum shaxsga taalluqligini ta‘kidlab ko‘rsatish uchun undan oldin kishilik olmoshlari ishlatiladi:

من خودم *man xôdam* ‘men/ing/ o‘zim’
 تو خودت *tu xôdat* ‘sen/ing/ o‘zing’ va sh.k.

3. O‘zlik olmoshi kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llanganda, ba‘zan ularning sinonimi bo‘lsa, ba‘zi hollarda yo uslubda ancha o‘zgarish sodir bo‘ladi yoki ularni almashtirib bo‘lmaydi:

ما داریم – *mâ dêrêm* ‘o‘zimizda bor’ – خودمان داریم *xôdemân dêrêm* ‘bizda bor’;

چه بکنم خودم میدانم *çe bekonam xôdam mêdânâm* ‘nima qilsam ham o‘zim bilaman’ (bu o‘rinda o‘zlik olmoshini kishilik olmoshiga almashtirib bo‘lmaydi).

4. O‘zlik olmoshi kishilik olmoshi hamda otlarni qat‘iy ayirib va ta‘kidlab ko‘rsatib, uning izohlovchisi bo‘lib keladi. Bu holda dariy tilida *xôd* olmoshi izofa ko‘rsatkichini qabul qilib, otdan oldin kelishi yoxud otga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishi va, shu bilan birga, enklitik olmoshlarni qabul qilishi mumkin. O‘zbek tilida esa o‘z olmoshi qaratqich kelishigi shaklidagi kishilik olmoshi yoki otdan keyin keladi:

خود مادر *xôd-e mâdar*
 مادر خود *mâdar xôd*
 مادر خودش *mâdar xôdaš*
 ما خود *xôd-e mâ*

‘onaning o‘zi’
 ‘bizning o‘zimiz’ va h.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida bunday hollarda dariy tilidan farq qilib, o‘zlik olmoshi egalik affikslerini qabul qilishi shart.

5. O‘zlik olmoshi qarashlilik ma‘nosini ifodalaganda, dariy tilida izofa zanjirida otdan so‘ng, o‘zbek tilida ot oldida keladi, ya‘ni:

کتاب خود *ketâb-e xôd* ‘o‘z kitobi’, ‘o‘zining kitobi’,
 رفقای خود *rofaqâ-ye xôd* ‘o‘z o‘rtoqlari’, ‘o‘zining o‘rtoqlari’,
 شاگردان خود *šâgerdân-e xôd* ‘o‘z o‘quvchilari’,

من از شاگردان خود خوشحال هستم (خوشحالم) *Man az šâgerdân-e xôd xôshâl hastam /xôshâlam/* ‘Men o‘z shogirdlarimdan xursandman’,
ما وطن خود را دوست داریم *Mâ watan-e xôd râ dôst dârêm* ‘Biz o‘z Vatanimizni sevamiz’.

Bu o‘rinda ham o‘zbek tilida o‘zlik olmoshlaridan keyin kelgan ot egalik affikslerini qabul qiladi.

O‘zlik olmoshi gapda hamma gap bo‘lagi vazifasida kela oladi. Dariy tilida *xôd* olmoshi old va ort ko‘makchilar bilan ishlatiladi. O‘zbek tilida esa turlanadi; bunda kelishik qo‘shimchalaridan oldin egalik affikslari bo‘lishi shart. Misollar:

گفتم با خود *bâ xôd goftam* ‘o‘zinga dedim’;

خودها را در آینه دیدند *Xôdhâ-râ dar âyina didand* ‘O‘zlarini oynada ko‘rdilar’;

این کار را خودم انجام دادم *In kâr râ xôdam anjâm dâdam* ‘Bu ishni o‘zim bajardim’.

4.4. So‘roq olmoshlari

ضمایر پرسشی *zamâyer-e porseši*

So‘roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi, miqdor /son/ haqida so‘roq anglatadi. Bular quyidagilardan iborat: کی (که) *ki /ke/* ‘kim’, چی (چه) *çi /çe/* ‘nima’, چه *če* ‘qanday’, کدام *kodâm* ‘qanday’, ‘qaysi’, چند *čand* ‘qancha’, ‘necha’ va sh.k.

So‘roq olmoshlarining grammatik xususiyatlari ma‘no xususiyatlaridan kelib chiqadi: shaxs, predmet haqida so‘roq anglatuvchi so‘roq olmoshlari ko‘plik shaklida hamda old va ort ko‘makchilar (o‘zbek tilida egalik va kelishik affikslari) bilan qo‘llanadi. Masalan: کیه *kihâ* ‘kimlar’, چیه *čihâ* ‘nimalar’, برای *barâye* *ki* ‘kim uchun’, چیرا *či-râ* ‘nimani’, از کی *az ki* ‘kimniki’ kabi. Dariy tilida کی (که) *ki (ke)* va چی (چه) *çi (če)* olmoshlari fe‘l bog‘lamasi bilan ishlatilganda, qo‘shib yoziladi va talaffuz qilinadi: *čî-sti?* ‘Bu nima?’, کیستی? *ki-sti?* ‘Kimsan?’.

Belgi haqida so‘roq anglatuvchi so‘roq olmoshlari gapda sifatlovchi vazifasida keladi. Dariy tilida ular چه *če* ‘qanday’, ‘qanaqa’, کدام *kodâm* ‘qaysi’, ‘qanday’, چند *čand* ‘necha’, ‘qancha’ va ularning yasama shakllari bo‘lib, aniqlanmishdan oldin qo‘yiladi; bunda aniqlanmish artikl qabul qilishi mumkin: کدام شهر? *kodâm šahr?* ‘qay-

si/qanaqa/ shahar?'; 'چه شخص؟' *če šaxs?* yoki 'چه شخصى؟' *če šaxsê?* 'qanday odam?'

Agar *kodâm* so'roq olmoshi olmoshga nisbatan aniqllovchi (olmoshning aniqllovchisi) bo'lsa, u holda izofa qabul qiladi:

'Qaysingiz (qaysi biringiz) musobaqaga borasiz?'
Kodâm-e šomâ ba mosâbeqa mêrawêd?

'چه so'roq olmoshi tur, sort, nav ma'nolarini anglatuvchi so'zlarga qo'shilib, yasama olmoshlarni hosil qiladi:

چطور - *četawr*

چه گونه - *čeguna*

چه رقم - *če-raqam*

چه قسم - *če-qesm*

چه رنگ - *če-rang*

چه سان - *česân*

چه خیل - *če-xêl*

va shu kabilar.

'qanday?', 'qanaqa?'

kodâm olmoshi *yak* yoki *yakê* soni bilan birikib, mustaqil (substantiv) xarakter kasb etadi: *kodâm yakê* 'qay /qaysi/ biri', 'qaysinisi'.

Shuningdek, *kodâm* olmoshi to'ldiruvchi yoki ega vazifasida qo'llanib, odatda, *aš* birikuvchi olmoshini qabul qiladi: 'کدامش خوب است؟' *Kodâmaš xub ast?* 'Qaysinisi yaxshi?'

چند *čand* olmoshi predmetning miqdoriga nisbatan so'roqni ifodalaydi. Mazkur olmosh ham aniqllovchi vazifasida kelganda, aniqlanishdan oldin qo'yiladi. Bunda aniqlanmish, xuddi o'zbek tilidagidek, ko'plik affikslarini olmaydi: 'چند کتاب آوردی؟' *Čand ketâb âwardi?* 'Qancha /nechta/ kitob keltirdingiz?' (biroq rus tilida: 'Сколько книг принёс?')

چند *čand* so'roq olmoshining چندین *čandin* 'bir necha', 'bir qancha', *čandom* 'nechanchi' yasama shakllari mavjud.

4.5. Belgilash olmoshlari

ضمایر توصیفی *zamâyer-e tawsifi*

Belgilash olmoshlari predmet yoki uning biror belgisini jamlash yoki ajratish orqali umumlashtirib ko'rsatadi. Shuning uchun mazkur turdagi olmoshlar jamlash-belgilash olmoshlari deb ham yuritiladi [15: 353]. Shunga ko'ra ularni ikkiga – jamlash va belgilash olmoshlariga ajratish mumkin.

1. Jamlash olmoshi همه *hamá* va *háma* ‘hamma’ predmet va shaxslar o‘rnida qo‘llanib, ot vazifasida: همه جور هستند *Hama jôr has-tand* ‘Hamma sog‘-salomat’; predmet belgisini ko‘rsatib sifat vazifasida aniqlanmishdan oldin yoki keyin keladi: همه كتابها نو است *Hama ketâbhâ naw ast* va كتابها همه نو است *Ketâbhâ hama naw ast* ‘Barcha (hamma) kitoblar yangi’.

Ot vazifasida qo‘llanganda, ko‘plik shaklida kela oladi: همگان *hamagân* ‘hammalari’.

Dariy tilida aniqlovchi vazifasida kelgan همه *hama* olmoshi o‘zidan keyin kelgan otga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (so‘zlashuv tilida) yoki izofa orqali birikadi: همه مردم *háma mardom* yoki همه مردم *hamá-ye mardom* ‘hamma odamlar’.

Umuman olganda, 2-konstruksiya o‘zbek tilida ham ko‘p uchraydi, ya‘ni aniqlovchi vazifasida kelgan ‘hamma’ olmoshi otlashib, aniqlanmish vazifasida, aniqlanmish esa o‘rin almashib qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi. Bu xildagi almashish bilan ma‘no o‘zgarmaydi: *Hamma qizlar - shu yerda. Qizlarning hammasi shu yerda.*

Kishilik yoki ko‘rsatish olmoshlari oldida kelgan همه *hama* olmoshi ular bilan faqat izofa orqali birikadi:

همه آنها *hamá-ye ânhâ* ‘ular hammalari’,

همه این زنها *hamá-ye in zanhâ* ‘bu ayollarning hammasi’.

Yu.A.Rubinchikning yozishicha, fors tilida همه *hame* olmoshi o‘zidan keyin kelgan birlik sondagi ot bilan (‘har’ olmoshi ma‘nosida) izofasiz qo‘llanadi: همه شب *hame šab* ‘har tun’, همه روز *hame ruz* ‘har kun/il’, ‘hamma kunlar’ (biroq همه روز *hame-ye ruz* ‘kun bo‘yi’ – A.X.), همه کس *hame kas* ‘har inson’, ‘barcha (kishilar) [7: 181].

Dariy tilida همه *hama* olmoshi vositasida bir qator qo‘shma olmoshlar va ravishli birikmalar hosil qilinadi: همه چیز *hama čiz* ‘hamma narsa’, همه کس *hama kas* ‘hamma’, ‘barcha’, همه گونه *hama guna* ‘har turli’, ‘har xil’, همه جا *hama jâ* ‘hamma yerda’, ‘har yerda’, همه وقت *hama waqt* ‘hamma vaqt’, ‘doimo’ va sh.k.

Dariy tilida همه *hama* olmoshining ekvivalenti sifatida jamlik ma‘nosini ifodalovchi arab so‘zlari: تمام *tamâm* ‘hamma’, ‘butun’, كل *koll* ‘hamma’, جمله *jomla* ‘barcha’, ‘hamma’ ishlatiladi. Ular aniqlanmish bilan izofa yordamida birikadilar: تمام دنیا *tamâm-e donyâ* ‘butun dunyo’, كل مردم *koll-e mardom* ‘hamma odamlar’ kabi.

2. Dariy tilida ham, o‘zbek tilidagidek, belgilash olmoshi *har* ‘har’ so‘zidan iborat. *har* ‘har’ olmoshi gapda aniqllovchi vazifasida keladi va doimo aniqlanmishdan oldin qo‘yiladi; dariy tilida *har* umuman izofa qabul qilmaydi:

har *šahr* ‘har shahar’,

har *rôz* ‘har kun/i/’,

har *mohassel-e fâkulta* ‘fakultetning har bir studenti’.

har ‘har’ so‘zi orqali yasama olmoshlar hosil qilish mumkin:

har *kas* va *har* *kodâm* ‘har kim’,

har *čiz* ‘har narsa’.

Bu so‘zlar otlar o‘rnida qo‘llana oladi, shuning uchun old va ort ko‘makchilarni /o‘zbek tilida egalik va kelishik affiksalarini/ qabul qiladi.

har ‘har’ olmoshi *tur*, *sort*, *nav* ma’nolarini anglatuvchi so‘zlarga qo‘shilib, bir qator yasama olmoshlarni hosil qiladi: *har* *gonə* ‘har turli’, *har* *raqam* ‘turli-tuman’, ‘har xil’, *har* *xîl* ‘har xil’, *har* *naw* ‘har turli’, ‘har xil’ va sh.k.

Shuningdek, dariy tilida *har* ‘har’ so‘zini ba’zi so‘roq olmoshlari bilan birlashtirish orqali *har-če* ‘nimaiki’, *har-čand* ‘qaramay’, ‘garchi’, ‘-sa ham’ kabi murakkab bog‘lovchilar hosil qilinadi.

har ‘har’ olmoshi yak ‘bir’ so‘zi bilan birga ot va sifat xarakterida qo‘llanadi. Bunda predmetlarni ta’kidlab, ajratib ko‘rsatadi: *har* *yak kalema* ‘har bir so‘z’.

4.6. Bo‘lishsizlik olmoshlari

zamâyer-e manfi

Bo‘lishsizlik olmoshlari predmet yoki belgiga nisbatan inkor ma’nosini – bo‘lishsizlikni bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi bo‘lishsiz shaklda kelib, gap inkor gap hisoblanadi.

Dariy tilida bo‘lishsizlik olmoshlari, asosan, *heç* ‘hech’ so‘zidan iborat.

Bu olmosh orqali yasalgan bir qator yasama olmoshlar, ravish va boshqa inkor ma’nosidagi so‘zlar mavjud: *heçkas* ‘hech kim’, *heçčiz* ‘hech narsa’, *heçkodâm* ‘hech qaysi’, ‘hech

kim', هیچ گونه *hêçguna* 'hech qanday', یک هیچ *hêçyak* 'hech bir', هیچ وقت *hêçwaqt* 'hech vaqt', 'hech qachon' va sh.k.

Bo'lishsizlik olmoshlari gapda bajarayotgan funksiyalariga ko'ra, ega, ikkinchi darajali bo'lak, ravish kabi vazifalarda qo'llanadi. هیچ *hêç* 'hech' so'zi yakka qo'llanganda, ko'pincha fe'llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi va ish-harakatning batamom inkorini bildiradi: هیچ استراحت نکرد *hêç esterâhat nakard* 'hech dam olmadi', هیچ نمیگوید *hêç namêgôyad* 'hech gapirmaydi'.

Bo'lishsiz gaplarda bo'lishsizlik olmoshlari vazifasida کس *kas* va کسی *kasê*, چیزی *čizê* so'zlari ham ishlatiladi: Kas tâ namêša? (og'z.) 'Hech kim tushmaydimi?'; کسی نیست *Kasê nêst* 'Hech kim yo'q'; چیزی نگو *Čizê nagô* 'Hech narsa aytmay'.

4.7. Gumon olmoshlari

ضمایر مبهم *zamâyer-e mobham*

Gumon olmoshlari predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiy (mavhum) yoki taxminli ishora qiladi.

Dariy tilida gumon olmoshlari quyidagilardan iborat: کدام *kodâm* 'qandaydir', 'kimdir', یگان *yagân* 'qandaydir bir', 'biror', فلان *felân* (folân) 'falon', فلانی *felâni* 'falon odam', 'falonchi', بعض *ba'z* va بعضی *ba'zê* 'ba'zi', 'ba'zilar', فلان کس *felân kas* 'qandaydir bir odam', 'birov', فلان چیز *felân čiz* 'nimadir', shuningdek, ularning ekvivalentlari sifatida کس *kas* va کسی *kasê* 'kimdir', چیزی *čizê* 'nimadir', یکی *yakê* 'kimdir', 'qandaydir odam' va sh.k.

O'zbek tilida gumon olmoshlarini hosil qilishda *bir* so'zining ma'lum darajada roli bor. Bu so'z *nima* so'roq olmoshi bilan kelib, kesimi bo'lishli shakl bilan ifodalangan gaplarda (gap tasdiq mazmunini bildirsa), noaniqlik olmoshi vazifasida qo'llanadi: *Saida yotgan joyida daftariga shoshib-pishib bir nimalar yozayotibdi*. Dariy tilidagi کس *kas*, کسی *kasê*, چیزی *čizê* so'zlari ham shunday xususiyatga ega: کسی آمد *Kasê âmad* 'Kimdir keldi', او با خود چیزی گفت *Ô bâ xôd čizê goft* 'U o'zicha allanima dedi'.

Lekin bu so'zlar gapning kesimi bo'lishsiz shakldagi fe'llar orqali ifodalansa va gapning mazmunidan inkor anglashilsa, noaniqlikni emas, bo'lishsizlik olmoshi vazifasini bajaradilar (*qarang*: shu qo'llanma, «Bo'lishsizlik olmoshlari»).

Gumon olmoshlari, asosan, ot va sifat xarakterida qo'llanadi.

Dariy tilida کدام *kodâm* va یگان *yagân* olmoshlari aniqlovchi vazifasida kelib, aniqlanmishdan oldin qo'yiladi: کدام شاگرد آمده معلم زبان دری را خواست *Kodâm šâgerd âmada mo'allem-e zabân-e dari-râ xâst* 'Qandaydir o'quvchi kelib, dariy tili o'qituvchisini so'radi'; یگان روز *Yagân rôz byâyid* 'Biror kun keling'.

Ot o'rnida ishlatiladigan gumon olmoshlari ko'plik shaklida qo'llana oladi: فلانی ها *ba'zihâ* 'ba'zilar', 'ba'zi birovlar', falânîhâ 'falon kishilar', 'falonchilar'.

4.8. Birikuvchi olmoshlar (egalik olmoshlari)

ضمایر متصل *zamâyer-e mottasel*

Dariy tilida birikuvchi olmoshlar erkin bo'lmagan til birligi qatoriga kiradi, ya'ni so'zdan alohida (ajralgan) holda ishlatilmaydi. Shu bilan bir vaqtda, ular affikslar ham emas; chunki so'zga qo'shilib talaffuz qilinsa-da, uning tarkibiga kirmaydi, balki so'zga yordamchi element sifatida bog'lanadi va urg'u qabul qilmaydi. Shu sababli «enklitik olmoshlar» deb ham yuritiladi [2: 73].

O'zbek tilida egalik kategoriyasi mavjud bo'lib, bu grammatik kategorianing asosiy affikslari dariy tilidagi birikuvchi olmoshlarga juda o'xshashdir.

	Birlik		Ko'plik	
	dariy tilida	o'zbek t.da	dariy tilida	o'zbek t.da
I sh.	-am (og'z.-em) م	-m (-im)	-emân مان	-miz (-imiz)
II sh.	-at (og'z.-et) ت	-ng (-ing)	-etân تان	-ngiz (-ingiz)
III sh.	-aš (og'z.-eš) ش	-i (unlidan so'ng -si)	-ešân شان	-lari

Quyidagi jadvalda dariy tilada birikuvchi olmoshlarning imlosi III shaxs birlik va ko'plik variantida ko'rsatilgan:

	Birlik	Ko'plik
Undoshdan so'ng	پدرم <i>padâr-am</i> 'otam'	پدرشان <i>padâr-ešân</i> 'otalari'
o a qisqa unlidan so'ng	خانه اش <i>xânâ-aš</i> 'uyi'	خانه شان <i>xânâ-yešân</i> 'uylari'
i cho'ziq unlidan so'ng	حویلی اش / حویلش <i>hawêlî-yaš</i> 'hovlisi'	حویلی شان <i>hawêlî-yešân</i> 'hovlilari'
â choziq	آشنایش <i>âšnâ-yaš</i> 'ta-	آشنای شان <i>âšnâ-yešân</i>

unlisidan so‘ng	nishi’	‘tanishlari’
و u/ô choziq unli- sidan so‘ng	پهلویش <i>pahlú-yaš</i> ‘yonida’	پهلوی شان <i>pahlú-yešân</i> ‘yonlarida’

Birikuvchi olmoshlar predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga taalluqli yoki mansub ekanligini, aloqadorlik ma’ nolarini bildiradi:

کتابم	<i>ketâbam</i>	‘kitobim’
کتابت	<i>ketâbat</i>	‘kitobing’
کتابش	<i>ketâbaš</i>	‘kitobi’
کتابمان	<i>ketâbemân</i>	‘kitobimiz’
کتابتان	<i>ketâbetân</i>	‘kitobingiz’
کتابشان	<i>ketâbešân</i>	‘kitoblari’.

(Dariy tilida birikuvchi olmoshlar urg‘u qabul qilmaydi, ko‘plikda esa ularga ikkinchi darajali urg‘u tushadi.)

Biroq birikuvchi olmoshlar va egalik affikslari o‘rtasida quyidagi tafovutlar mavjudki, bu ulardan biriga yordamchi element, bosh-qasiga affiks deb qarashga imkon beradi.

Masalan, o‘zbek tilida egalik affiksi olgan so‘zdan oldin qaratqichni ko‘rsatuvchi so‘z kela oladi. Bunda qaratqich uqtirish, ta’kidlash kabi alohida semantik vazifani bajaradi: *kitobim* – mening *kitobim*, *onang* – sening *onang*. Birinchi holatdagi ‘kitobim’, ‘onang’ so‘zlari ikkinchi holatda ham hech bir o‘zgarishsiz, ya’ni egalik affikslarini saqlagan holda qo‘llanadi. Biroq dariy tilida: کتابم *ketâbam* – کتاب من *ketâb-e man*, کتابهایم *ketâbhâyam* – کتابهای من *ketâbhâ-ye man*; مادرت *mâdarat* – مادر تو *mâdar-e tu*. Birinchi holatdagi م -am, ت -at ikkinchi holatda izofa ko‘rsatkichidan so‘ng kelgan من *man*, تو *tu* kishilik olmoshlariga o‘zgartiriladi.

Shuningdek, dariy tilida birikuvchi (enklitik) olmoshlar kishilik olmoshlari bilan ifodalangan vositali va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kela oladi. Bu ko‘proq og‘zaki tilga xos xususiyat bo‘lib, bunday holatda birikuvchi olmoshlar:

1) bevosita fe‘lning shaxs-son qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shilib keladi:

گفتم *goftamat* (تورا گفتم *turâ goftam*, با تو گفتم *ba tu goftam*) ‘senga aytdim’,

دیدمشان *didamešân* ‘ularni ko‘rdim’ (آنها را دیدم *ânharâ didam*);

2) qo'shma fe'llarda, odatda, fe'lning ot qismidan so'ng qo'yiladi:

دوستت دارم *dôstat dêram* (دوست دارم *dôst dêramat*) 'seni sevaman',
بیدارش کردیم *bêdâraş kardêm* (بیدار کردیمش *bêdâr kardêmaş*) 'uni
uyg'otdik',

خوشم آمد *xôşam âmad* 'menga yoqdi',
گرمم آمد *garmam âmad* 'qiziqib ketdim'; 'qizishdim', 'jahlim
chiqdi' kabi.

I shaxs birlik va ko'plikdagi birikuvchi olmoshlar faqat qo'shma fe'llardagina vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: نشانمان داد *neşânemân dâd* 'bizni ko'rsatdi', بیدارم کرد *bêdâram kard* 'meni
uyg'otdi' kabi;

3) old ko'makchilarga qo'shiladi: من برایت تکت طیاره خریدم *Man
barâyat teket-e tayâra xaridam* 'Senga samolyotga chipta sotib ol-
dim'.

Birikuvchi olmoshlar izofa zanjirining eng oxiriga – aniqlovchi-
dan so'ng qo'yiladi: کتاب برادر کلانم *ketâb-e barâdar-e kalân*
'akamning kitobi', خانه بلند نومان *xâna-ye beland-e nawemân* 'yangi baland
uyimiz'.

Shuningdek, nutqda enklitik olmoshlar quyidagi hollarda uchrab
turadi: آفرینت *Âfarinet!* (og'z. *âfarinet*) 'Ofarin senga!', دلتان *Deletân!*
'Xohishingiz!' va b.

4.9. Birgalik olmoshlari

ضمایر متبادل *zamâyer-e motabâdel*

Birgalik olmoshlari uchta sinonim so'zdan iborat: هم *ham*, همدیگر *hamdigar*,
hamdigar, یکدیگر *yakdigar* 'bir-biri (-ni, -ga)'. Ular biror shaxs
(predmet)ning boshqasi bilan birgalikdagi harakatini ifodalaydi.
Gapda to'ldiruvchi vazifasida kelib, old va ort ko'makchilar bilan
qo'llanadi (هم *ham* olmoshi را *râ* ko'makchisi bilan ishlatilmaydi);
aniqlovchi vazifasida aniqlanmish bilan izofa orqali bog'lanadi:

آنها همدیگر را خوب میشناختند *Ânhâ hamdigar-râ xub mêşenâxtand*
'Ular bir-birlarini yaxshi tanirdilar';

با حیرت طرف یکدیگر میدیدیم *Bâ hayrat taraf-e yakdigar mêdidêm*
'Hayrat bilan bir-birimizga boqardik';

روی یکدیگر را بوسیدند *Rôy-e yakdigar-râ busidand* 'Bir-birlarining
yuzlaridan o'pdilar'.

Savollar

1. *Qanday soʻzlar olmosh turkumiga kiradi?*
2. *Dariy tilida olmoshlarning necha turi ajratiladi?*
3. *Olmoshlar qaysi grammatik xususiyatlari bilan boshqa soʻz turkumlaridan farq qiladi?*
4. *Olmosh gapning qaysi boʻlaklari boʻlib keladi? Misollar bilan aytib bering.*
5. *Koʻrsatish olmoshlari qaysi soʻz turkumlari oʻrta qoʻllanadi?*
6. *Oʻzlik olmoshining maʼnolarini izohlang.*
7. *Oʻzlik olmoshining qoʻllanilishida qanday holatlar kuzatiladi?*
8. *Soʻroq olmoshining qoʻllanilishini tushuntiring.*
9. *Dariy tilida belgilash olmoshining oʻziga xos xususiyati nimadan iborat?*
10. *Boʻlishsiz gaplarda boʻlishsizlik olmoshlari vazifasida qaysi soʻzlar ishlatilishi mumkin?*
11. *Qaysi gumon olmoshlari boʻlishsizlik olmoshi vazifasini bajaradi?*
12. *Birikuvchi olmoshlar nima uchun enklitik olmosh sanaladi?*
13. *Birikuvchi olmoshlar qaysi xususiyatlariga koʻra egalik affikslari boʻla olmaydi?*
14. *Birgalik olmoshlarining asosiy maʼnosi nimadan iborat?*

V. FE'L **فعل** *fe'l*

Fe'l harakat-holat ma'nosini anglatuvchi so'z turkumidir. Dariy tilida ham, o'zbek tilidagidek, fe'llar bilan ifodalanagan harakat⁷ tushunchasi zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Bulardan tashqari, fe'llar orqali yana harakatning o'timli yo o'timsizligi, bo'lishli yo bo'lishsizligi kabi ma'nolar ham ifodalalanadi. Shuningdek, fe'llarning ot, sifat, ravish turkumlariga xos xususiyatlarga ega bo'lgan harakat nomi, sifat-dosh, ravishdosh shakllari ham bor.

Izoh. Bu o'rinda mustaqil fe'llar nazarda tutilmoqda. Har ikki tilda fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi:

- 1) mustaqil fe'llar;
- 2) yordamchi fe'llar. Yordamchi fe'llar harakat bildirmaydi (mustaqil ma'no ifodalamaydi). Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun yoki boshqa vazifada qo'llanadi.

Fe'llar gapda, asosan, kesim vazifasida keladi.

5.1. Fe'l negizi

ریشه فعل *rêša-ye fe'l*

Dariy tilida fe'l negizi ikkita:

- 1) o'tgan zamon fe'l negizi;
- 2) hozirgi zamon fe'l negizi.

Dariy tilida har bir fe'l ikki negiz: hozirgi hamda o'tgan zamon fe'l negiziga ega bo'lib, bular barcha fe'l formalarining yasalishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'tgan zamon fe'l negizi مصدر *masdar* infinitiv oxiridan نَـ *-an* qo'shimchasini olib tashlash bilan yasaladi, masalan:

آوردن <i>âwardan</i> 'keltirmoq'	— آورد <i>âward</i>
آمدن <i>âmadan</i> 'kelmoq'	— آمد <i>âmad</i>
نوشتن <i>naweštan</i> 'yozmoq'	— نوشت <i>nawešt</i>
گفتن <i>goftan</i> 'aytmoq'	— گفت <i>goft</i>

⁷ Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo'lib, u psixik o'zgarishlar, holat, biologik jarayonlar va shu kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

Ilova. Dariy (fors-tojik) tilida o'tgan zamon fe'l negizi *-t* ga, agar undan oldingi tovush jarangsiz undosh bo'lsa yoki *-d* ga, agar oldingi tovush *r* yoki *n* undoshi yoxud unli bo'lsa, tugallanadi. Misollardan tekshiring.

Fe'lning hozirgi zamon negizi fe'llarning qoidali va qoidasiz (ba'zan to'g'ri /solim/ va noto'g'ri /noqis/ deb ham yuritiladi) bo'lishiga ko'ra turli usulda yasaladi. Shuning uchun lug'atlarda fe'l masdari bilan bir qatorda, uning hozirgi zamon negizi ham beriladi (bu, asosan, qoidasiz fe'llarga taalluqli).

Qoidali (yoki I guruh) fe'llardan, odatda, دن *-dan*, تن *-tan*, يدن *-idan* (ادن *-âdan*, ستن *-estan*) morfemalarini (qo'shimchalarini) olib tashlash bilan fe'lning hozirgi zamon negizi yasaladi, masalan:

آوردن <i>âwardan</i> 'keltirmoq'	— آور <i>âwar</i>
خواندن <i>xândan</i> 'o'qimoq'	— خوان <i>xân</i>
رسیدن <i>rasidan</i> 'yetib kelmoq'	— رس <i>ras</i>
فهمیدن <i>fahmidan</i> 'tushunmoq'	— فهم <i>fahm</i>
کشتن <i>koştan</i> 'o'ldirmoq'	— کش <i>koş</i>
شکفتن <i>şokoftan</i> 'gullamoq'	— شکف <i>şokof</i>
فرستادن <i>ferestâdan</i> 'yubormoq'	— فرست <i>ferest</i>
ایستادن <i>istâdan</i> 'turmoq'	— ایست <i>ist</i>
توانستن <i>tawânestan</i> 'qila olmoq'	— توان <i>tawân</i>
دانستن <i>dânestan</i> 'bilmoq'	— دان <i>dân</i>

Eslatma. يدن *-idan* morfemasi bilan tugallangan har qanday fe'l qoidali fe'ldir. Misollar orqali tekshiring.

Qoidasiz (yoki II guruh) fe'llarning hozirgi zamon negizi turli usullar bilan yasalib, ma'lum bir qoidaga bo'ysunmaydi. Masalan, bunday fe'llarning ma'lum qismida harflar almashuvi yuz beradi:

خ <i>x</i> — ز <i>z</i>	
آموختن <i>âmôxtan</i>	— آموز <i>âmôz</i>
'o'rganmoq', 'o'rgatmoq'	
ساختن <i>sâxtan</i> 'qurmoq'	— ساز <i>sâz</i>
گریختن <i>gorêxtan</i>	— گریز <i>gorêz</i>
'qochmoq'	
سوختن <i>sôxtan</i>	— سوز <i>sôz</i>

‘yonmoq’, ‘yondirmoq’
ریختن *rêxtan* ‘to‘kmoq’, – ریز *rêz*

‘quymoq’

ا (ی) – و
u â/y/
آسای *âsudan* ‘xotirjam – آسای *âsây*
bo‘lmoq’, ‘dam olmoq’
سرودن *sorudan* – سرای *sarây*
‘kuylamoq’
فرمودن *farmudan* – فرما (ی)
‘buyurmoq’ *farmâ/y/*
نمودن *namudan* –
‘ko‘rinmoq’ *namâ/y/* (ی) نما
ریودن *rabudan* ‘tortib – ربا (ی) *rabâ/y/*
olmoq’, ‘o‘ziga tortmoq’

ب *b* – ف *f*
یافتن *yoftan* ‘top- – یاف *yâb*, یاف
moq’ *yâf*
تافتن *toftan* ‘nur – تاب *tâb*
sochmoq’
کوفتن *kôftan* – کوب *kôb*
‘urmoq’, ‘yanchmoq’
روفتن *rôftan* – روب *rôb*
‘supurmoq’

ر *r* – ش
š
گذشتن *gozaštan* – گزر *gozar*
‘o‘tmoq’
گذاشتن *gozâštan* – گزار *gozâr*
‘qo‘ymoq’
داشتن *dâštan* ‘ega – دار *dâr*
bo‘lmoq’

پنداشتن <i>pendâštan</i>	–	پندار <i>pendâr</i>
‘o‘ylamoq’		
کاشتن <i>kâštan</i> ‘ekmoq’	–	کار <i>kâr</i>
‘haydamoq’ (<i>yerni</i>)		

Quyidagi fe’llarning ma’lum qismida esa fe’l negizidagi tovushlar almashuvi yuqorida ko‘rsatilgan qoidadan mustasnodir:

کردن <i>kardan</i> ‘qilmoq’	–	کن <i>kon</i>
دادن <i>dâdan</i> ‘bermoq’	–	ده <i>deh</i>
دیدن <i>didan</i> ‘ko‘rmoq’	–	بین <i>bin</i>
آمدن <i>âmadan</i> ‘kelmoq’	–	(آی) <i>â/y/</i>
شناختن <i>šenâxtan</i> ‘tanimoq’, ‘bilmoq’	–	شناس <i>šenâs</i>
زدن <i>zadan</i> ‘urmoq’	–	زن <i>zan</i>
گرفتن <i>gereftan</i> ‘olmoq’	–	گیر <i>gir</i>
نوشتن <i>naweshtan</i> ‘yozmoq’	–	نویس <i>nawis</i>
گفتن <i>goftan</i> ‘aytmoq’	–	(گو) <i>gô/y/</i>
فروختن <i>forôxtan</i> ‘sotmoq’	–	فروش <i>forôš</i> va h.

O‘zbek tilida dariy tilidan farq qilib, fe’lning bitta negizi mavjud va u *-moq* affiksini olib tashlash bilan yasaladi. Mayl, zamon, shaxs son ko‘rsatkichlari ana shu fe’l negiziga qo‘shiladi (masalan: *o‘qi-moq*, *o‘qi-dim*, *o‘qi-sa* kabi).

5.2. Fe’llarning yasalishi (Fe’llarning morfologik strukturasi)

Dariy tilida fe’llar tuzilishiga ko‘ra sodda (افعال ساده *af’âl-e sâda* yâ *basit*), prefiksli (افعال پیشوندی *af’âl-e pêšwandi*) va qo‘shma (افعال مرکب *af’âl-e morakkab*) fe’llarga bo‘linadi. Hozirgi dariy tilida sodda va prefiksli fe’llar yasalmaydi [7: 204]. Qo‘shma fe’llar yasalishi fe’l yasalishining boshqa usullarini siqib chiqargan [6: 122].

5.2.1. Sodda fe’llar

افعال ساده یابسیط *af’âl-e sâda yâ basit*

آمدن *âmadan* ‘kelmoq’, دادن *dâdan* ‘bermoq’, گفتن *goftan* ‘aytmoq’, رفتن *raftan* ‘bormoq’, خوردن *xordan* ‘yemoq’, خواندن *xândan* ‘o‘qimoq’ va shu kabi fe’llar sodda fe’llar jumlasiga kiradi. Demak, sodda fe’l bir o‘zak morfemali bo‘ladi.

Dariy tilida sodda fe'lining hozirgi zamon negiziga *-d* va *-id* suf-
fikslarini qo'shish orqali qayta hosil qilingan (ikkilamchi) sodda
fe'llar ham mavjud. Biroq bu holatda yangi ma'noli yangi fe'l hosil
bo'lmaydi. Shuning uchun ularni to'la ma'noda yasama fe'l deb atay
olmaymiz.

گذاشتن <i>gozâştan</i>	گذار <i>gozâr</i>	گذاران <i>gozârdan</i>	'qo'yimoq'
کاشتن <i>kâştan</i>	کار <i>kâr</i>	کاریدن <i>kâridan</i>	'ekmoq'
گشتن <i>gaştan</i>	گرد <i>gard</i>	گردیدن <i>gardidan</i>	'aylanmoq'
ریشتن <i>rêştan</i>	ریش <i>rêş</i>	ریشیدن <i>rêşidan</i>	'yigirmoq'
تافتن <i>tâftan</i>	تاب <i>tâb</i>	تابیدن <i>tâbidan</i>	'nur sochmoq', 'charaqlamoq'

5.2.1.1. Otdan yasalgan fe'llar

Dariy tilida ot kategoriyasiga oid so'zlardan *-idan* suffiksi
yordamida turli ma'noni anglatuvchi fe'llar yasaladi:

نام <i>nâm</i> 'nom', 'ism'	نامیدن <i>nâmidan</i>	'nomlamoq', 'atamoq'
رزم <i>razm</i> 'jang', 'urush'	رزمیدن <i>razmidan</i>	'jang qilmoq'
رقص <i>raqs</i> 'raqs'	رقصیدن <i>raqsidan</i>	'raqsga tushmoq'
فهم <i>fahm</i> 'tushunish', 'fahmlash'; 'bama'nilik'	فهمیدن <i>fahmidan</i>	'tushunmoq', 'bilmoq'

Eslatma. L.N.Kiseleva *kauzativ fe'llar* termini ostida o'zbek ti-
lida fe'ning orttirma nisbatiga to'g'ri keluvchi fe'llarni yasama
fe'llar qatoriga kiritadi («Fe'l nisbatlari» mavzuiga qarang).

5.2.2. Prefiksli fe'llar

افعال پیشوندی *af'âl-e pêšwandi*

Dariy tilida fe'llar turli prefikslar yordami bilan ham yasaladi.
Bunday fe'llar prefiksli fe'llar deb ataladi. Prefikslar fe'llarning tub
ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Mavjud prefiksli fe'llar qadimiy tip
yasalishi bo'lib, hozirgi dariy tilida mahsuldor emas. O'zbek tilida bu
xilda fe'l yasash usuli bo'lmagani uchun ularning ma'nosi qo'shma
fe'llar va ma'nosi mos keladigan birikmalar orqali beriladi.

Dariy tilida fe'l yasovchi prefikslar (sodda fe'llarga qo'shilib)
quyidagilardan iborat: بر *bar*, در *dar*, فرا (فر) *farâ* (*far*), فرو *forô* yoki
فرو *forôd*, باز *bâz*, و *wâ*. Masalan:

آمدن <i>âmadan</i>	'kelmoq'	-	بر آمدن <i>barâmadan</i>	'chiqmoq', در آمدن <i>darâmadan</i>	'kirmoq'
--------------------	----------	---	--------------------------	--	----------

يافتن <i>yâftan</i> ‘topmoq’	-	در یافتن <i>daryâftan</i> ‘olmoq’
گرفتَن <i>gereftan</i> ‘olmoq’	-	فرا گرفتَن <i>farâgereftan</i> ‘o‘zlash-tirmoq’, ‘qamrab olmoq’
رفتَن <i>raftan</i> ‘ketmoq’	-	فرو رفتَن <i>forôraftan</i> ‘pastga ketmoq’, ‘cho‘kmoq’
گشتَن <i>gaştan</i> ‘aylanmoq’	-	باز گشتَن <i>bâzgaştan</i> ‘qaytmoq’
داشتَن <i>dâştan</i> ‘ega bo‘lmoq’	-	واداشتَن <i>wâdâştan</i> ‘tutib qolmoq’, ‘to‘xtatmoq’, ‘majbur qilmoq’
دادَن <i>dâdan</i> ‘bermoq’	-	بازدادَن <i>bâzdâdan</i> ‘qaytarib bermoq’.

5.2.3. Qo‘shma fe‘llar افعال مرکب *af‘âl-e morakkab*

Dariy tilida qo‘shma fe‘llar komponent (tarkibiy qism)larining qanday so‘zdan ekaniga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi: **ot+fe’l** tipidagi qo‘shma fe‘llar (fe’l bo‘lmagan so‘z bilan fe’lning birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma fe‘llar) va **fe’l+fe’l** tipidagi (ikki fe’lning o‘zaro birikishidan hosil bo‘lgan) qo‘shma fe‘llar.

Eslatma. Fe’l+fe’l tipidagi qo‘shma fe‘llar aslida o‘zbek tili uchun xarakterli bo‘lib, dariy tiliga bu shartli ravishda qabul qilinmoqda.

O‘zbek tilida ikki fe’lning o‘zaro birikishidan hosil bo‘luvchi qo‘shma fe‘llar u qadar ko‘p emas. Bunday qo‘shma fe‘llar komponentlari ma’nosidan farqli yangi ma’no ifodalaydi: *olib kelmoq, sotib olmoq* kabi.

Tarkibiy qismlardan ikkinchisi leksik ma’nosini yo‘qotib, ko‘makchi fe’l vazifasida kelsa, bunday birikmalar qo‘shma fe’l hosil qilmaydi: *yuvib bo‘lmoq, kuzatib turmoq, o‘qib chiqmoq, kela boshlamoq* kabi. Bunda fe’lning analitik shakli hosil qilinadi.

Dariy tilida esa bu guruhga sodda fe‘llarni «parchalash», «bo‘lish» vositasida yasalgan fe‘llarni kiritish mumkin. Bunday fe‘llarning birinchi komponenti sifatida o‘sha asos qilib olingan fe’lning (o‘zak) negizi, sifatdosh shakli, harakat nomi xizmat qiladi. Mazkur qo‘shma fe‘llarni ularning yasalishiga asos bo‘lgan sodda fe‘llar bilan o‘zaro semantik munosabatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Otdan yasalgan fe‘llarning yasovchi asosi + yordamchi fe’l modeli

Qo'shma fe'lining ot qismi otdan yasalgan fe'llarning yasovchi asosidan iborat:

نامیدن *nâmidan* – نام دادن *nâm dâdan* 'nomlamoq', 'atamoq',

رقصیدن *raqsidan* – رقص کردن *raqs kardan* 'raqsga tushmoq',

انجامیدن *anjâmidan* – انجام کردن *anjâm kardan* 'tugatmoq', 'tamomlamoq',

ترکیدن *tarkidan* – ترک بر داشتن *tark bar-dâstan* 'yorilmoq',

چرخیدن *čarxidan* – چرخ خوردن *čarx xordan* 'aylanmoq' kabi.

Ba'zan qo'shma fe'lining ot qismi به *ba* old ko'makchisini qabul qiladi:

انجامیدن *anjâmidan* – به انجام رساندن *ba anjâm rasândan* 'tugatmoq', 'tamomlamoq' kabi.

2. Sodda va prefiksli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi + yordamchi fe'l modeli

Qo'shma fe'lining ot qismi sodda va prefiksli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshidan iborat:

آمیختن *âmêxtan* – آمیخته کردن *âmêxta kardan* 'aralashtirmoq',

لرزیدن *larzidan* – لرزیده خوردن *larzida xordan* 'qaltiramoq',

وا زدن *wâ zadan* – وازده کردن *wâ zada kardan* 'yaroqsiz deb topmoq'; 'rad qilmoq',

بر آورده کردن *bar âwardan* – بر آورده کردن *bar âwarda kardan* 'amalga oshirmoq' kabi.

3. Sodda fe'lining hozirgi zamon negizidan yasalgan -a suffiksli ot + yordamchi fe'l modeli

Qo'shma fe'lining ot qismi *sodda fe'lining hozirgi zamon negizi* + -a *suffiksi* modeli asosida yasalgan otlardan iborat va qo'shma fe'lining o'zi yasalishga asos bo'lgan sodda fe'lga sinonimdir:

خندیدن *xandidan* – خنده کردن *xanda kardan* 'kulmoq',

گریستن *geristan* – گریه کردن *gerya kardan* (به گریه افتادن *ba gerya oftâdan*) 'yig'lamoq',

نالیدن *nâlidan* – ناله کردن *nâla kardan* 'nola qilmoq'; 'ingramoq',

شماردن *šomârdan* – شماره کردن *šomâra kardan* 'hisoblamoq' kabi.

4. Sodda fe'lining hozirgi zamon negizidan yasalgan -eš suffiksli ot + yordamchi fe'l modeli

Qo'shma fe'lning ot qismi *sodda fe'lning hozirgi zamon negizi* + *-eš suffiksi* modeli asosida yasalgan otlardan iborat va qo'shma fe'lning o'zi yasalishga asos bo'lgan sodda fe'lga sinonimdir:

gardidan – گردش کردن *gardeš kardan* 'aylanmoq', 'sayr qilmoq',

âzmudan – آزمایش کردن *âzmâyeš kardan* 'sinamoq', 'tekshirmoq',

ârâstan – آرایش دادن *ârâyeš dâdan* 'yasatmoq', 'bezatmoq',

setudan – ستایش کردن *setâyeš kardan* 'maqtamoq',

kôšidan – کوشش کردن *kôšeš kardan* 'harakat qilmoq' kabi.

5. Ma'no jihatidan bir-biriga yaqin yoki sinonim so'zlarni -o- teng bog'lovchisi orqali birikuvi + yordamchi fe'l modeli

Qo'shma fe'lning ot qismi ma'no jihatidan bir-biriga yaqin yoki sinonim so'zlarni -o- teng bog'lovchisi orqali birikuvidan iborat. Bunda birikmaning tarkibiy qismlaridan biri sodda fe'ldan yasalgan va qo'shma fe'l mazkur sodda fe'lga sinonim bo'ladi:

kôšidan 'harakat qilmoq', *say-o-kôšeš kardan* – سعی و کوشش کردن

nâlidan 'yig'lamoq', *gerya-o-nâla kardan* – گریه و ناله کردن *geristan*, نالیدن

jastan 'sakramoq' kabi. *jast-o-xêz kardan* – جست و خیز کردن

6. Sodda fe'lning hozirgi zamon sifatdoshi + yordamchi fe'l modeli

Qo'shma fe'lning ot qismi sodda fe'lning hozirgi zamon sifatdoshidan iborat. Qo'shma fe'lning o'zi esa sifatdosh yasalgan sodda fe'lga sinonim bo'ladi:

âwêxtan – آویزان کردن *âwêzân kardan* 'osmoq', 'osib qo'yimoq',

šekoftan – شکفتن *šekofân šodan* 'gullamoq',

raftan – روان شدن *rawân šodan* 'ketmoq', 'jo'namoq',

negaristan – نگران بودن *negarân budan* 'qaramoq',

namudan – نمایان کردن *namâyân kardan* 'ko'rsatmoq' kabi.

7. Sodda fe'lning o'tgan zamon negizi + yordamchi fe'l modeli

Qo'shma fe'lning ot qismi sodda fe'lning o'tgan zamon negizidan iborat va qo'shma fe'lning o'zi yasalishga asos bo'lgan sodda fe'lga sinonim bo'ladi:

خریدن *xaridan* – خرید کردن *xarid kardan* ‘sotib olmoq’,
 بافتن *bâftan* – بافت کردن *bâft kardan* ‘to‘qimoq’,
 زیستن *zistan* – زیست کردن *zist kardan* ‘yashamoq’, ‘hayot kechirmoq’,
 جستن *jastan* – جست زدن *jast zadan* ‘sakramoq’ kabi.

8. Sodda fe’lning hozirgi zamon negizi + yordamchi fe’l modeli

Qo’shma fe’lning ot qismi sodda fe’lning hozirgi zamon negizidan iborat va qo’shma fe’lning o’zi yasalishga asos bo’lgan sodda fe’lga sinonim bo’ladi:

آزردن *âzordan* – آزار دادن *âzâr dâdan*, آزار رساندن *âzâr rasândan*
 ‘ozor bermoq’, ‘xafa qilmoq’,

فریفتن *ferêftan* va فریبتن *ferêb (farêb) dâdan*
 ‘aldamoq’, ‘firib bermoq’,

نوشیدن *nôšidan* – نوش کردن *nôš kardan* ‘ichmoq’, ‘totmoq’ kabi.

Ba’zan qo’shma fe’lning ot qismi به *ba* old ko’makchisini qabul qiladi:

جوشیدن *jôšidan* – به جوش آمدن *ba jôš âmadan* ‘qaynamoq’, ‘hayajonlanmoq’ kabi.

9. Sodda fe’lning ham o’tgan, ham hozirgi zamon negizlari + yordamchi fe’l modeli

Qo’shma fe’lning ot qismi sodda fe’lning ham o’tgan, ham hozirgi zamon negizlaridan tuzilgan bo’lishi mumkin:

جستجو کردن *jostojô kardan* – جستن *jostan* ‘qidirmoq’,

گفتگو کردن *goftogô kardan* – گفتن *goftan* ‘gapirmoq’, ‘suhbatlashmoq’,

پخت و پز کردن *pox-t-o-paz kardan* – پختن *pox-tan* ‘pishirmoq’,

روفت و روب کردن *rôft-o-rôb kardan* – روفتن *rôftan* ‘supurmoq’.

Yuqorida keltirilgan sodda va qo’shma fe’llar harakatni turli darajada ifodalashlari mumkin, biroq bir harakatni bildirganlari (denotativ ma’nosi bir xil) uchun sinonimlar hisoblanadi.

Keltirilgan ba’zi sodda fe’llar o’zlarining leksik ma’nolariga ko’ra ham o’timli, ham o’timsiz fe’l sifatida qo’llaniladi. Bunday fe’llardan qo’shma fe’l yasalganda o’timli-o’timsizlik ma’nosini ifodalash uchun turli yordamchi-yasovchi fe’llar qo’llaniladi:

کاستن *kâstan* ‘kamaymoq’, ‘kamaytirmoq’ – کاهش یافتن *kâheš yâftan* ‘kamaymoq’, کاهش دادن *kâheš dâdan* ‘kamaytirmoq’;

انجامیدن *anjâmidan* ‘tugatmoq’, ‘tamom qilmoq’; ‘tugamoq’, ‘tamom bo‘lmoq’ – انجام دادن *anjâm dâdan* ‘tamom qilmoq’, انجام یافتن *anjâm yâftan* ‘tamom bo‘lmoq’;

آزردن *âzordan* ‘ozor bermog’, ‘xafa qilmoq’; ‘xafa bo‘lmoq’, ‘ranjimoq’ – (رساندن) آزار دادن *âzâr dâdan (rasândan)* ‘ozor bermog’, ‘ranjitmoq’; (کشیدن) آزار دیدن *âzâr didan (kašidan)* ‘xafa bo‘lmoq’, ‘ranjimoq’;

فریب دادن *ferêftan va farêftan* ‘aldamoq’, ‘firib bermog’ – فریب خوردن *ferêb (farêb) dâdan* ‘aldamoq’, *ferêb (farêb) xordan* ‘aldanmoq’ kabi.

Albatta, yuqorida keltirilgan sodda va ulardan yasalgan qo‘shma fe’llarning sinonimlik darajasi bir xil emas. Ulardan ba’zilarining ma’nolari o‘zaro to‘liq bir-biriga mos tushsa (*raqs* رقص کردن *raqsidan* – رقصیدن *raqs kardan* ‘raqsga tushmoq’, خریدن *xaridan* – خرید کردن *xarid kardan* ‘sotib olmoq’ kabi), ayrimlarining ma’nolari ba’zi jihatlaridagina tenglashadi (*negaristan* نگرستان – نگران بودن *negarân budan* ‘qaramoq’, ‘nazar solmoq’, biroq نگران بودن *negarân budan* fe’lining ‘bezovta bo‘lmoq’, ‘xavotir bo‘lmoq’, ‘qayg‘urmoq’ ma’nolariga ham ega, خاموشیدن *xâmušidan* ‘jim bo‘lmoq’, ‘jimib qolmoq’ – خاموش شدن *xâmuš sodan* 1) ‘jim bo‘lmoq’, ‘jimib qolmoq’; 2) ‘o‘chmoq’, ‘so‘nmoq’).

Demak, qayta hosil qilingan – ikkilamchi fe’l iboralar o‘zlarining asos qilib olingan boshlang‘ich fe’llari bilan bir qatorda, ulardan ma’no jihatidan farq qilmay yoki ozgina farq qilgan holda mavjud bo‘ladi: جوش دادن *jôš dâdan* ‘qaynatmoq’ (*jôšidan* ‘qaynamoq’) kabi. Biroq ba’zi hollarda sodda fe’llarning bo‘linishi natijasida ularning ma’nosida o‘zgarish yuz beradi: شور خوردن *šôr xordan* ‘qimirlamoq’, ‘tebranmoq’ (*šôridan* ‘to‘lqinlanmoq’, ‘hayajonlanmoq’). Ba’zan ikkilamchi fe’l iboralar uchun yordamchi-yasovchi fe’lni tanlab olish ham ahamiyatga ega: کش کردن *kaš kardan* ‘tortmoq’, کش دادن *kaš dâdan* ‘cho‘zib kengaytirmoq’, ‘uzaytirmoq’ (*kašidan* ‘tortmoq’, ‘chiqarmoq’).

Sodda fe’llarning parchalanishi, ayniqsa, og‘zaki tilga xosdir.

Dariy tilida ot+fe’l tipidagi qo‘shma fe’llarga ot, sifat, ravish, olmosh va boshqalarning yordamchi-yasovchi fe’l bilan birikuvidan hosil bo‘lgan fe’llar kiradi. Asosiy ma’no, ya’ni leksik ma’no fe’lning ot qismida ifodalanadi. Yordamchi-yasovchi fe’llar esa de-semantizatsiya (ma’nosizlanish)ning turli sathlarida bo‘ladi. Qi-

yoslang: چاره اندیشیدن *čâra andêšidan* ‘chora axtarmoq’, چال ماندن *čâl mândan* ‘to‘r qo‘ymoq’ kabi fe‘llarda yordamchi fe‘l o‘z leksik ma‘nosini saqlab qolgan; گپ زدن *gap zadan* ‘gapirmoq’ fe‘lida yordamchi fe‘l o‘z ma‘nosini yo‘qotgan.

Bir ot qismga turli yordamchi-yasovchi fe‘llarni biriktirish asosida turli ma‘nodagi qo‘shma fe‘llar hosil qilinadi. Masalan: تیل دادن *têl dâdan* ‘moylamoq’, ‘yog‘ (moy) surtmoq’, تیل کشیدن *têl kaši-dan* ‘siqmoq’ (*moyni*).

Asosan inkor ma‘nosida ishlatiluvchi qo‘shma fe‘llar ham uchrab turadi: برداشت نکردن *bardâšt nakardan* ‘to‘qat qila olmaslik’, ‘bardosh bermaslik’, پروا نداشتن *parwâ nadâštan* ‘qayg‘urmaslik’, ‘bezovta bo‘lmaslik’.

Ikki komponentli qo‘shma fe‘llardan tashqari, yoyiq ot tarkibli fe‘l birikmalari ham ko‘pchilikni tashkil etadi, masalan: جان خود را *jân-e xôdrâ šostan* ‘yuvinqmoq’, ضربه وارد آوردن *zarba wâred âwardan* ‘zarba bermoq’ kabi.

Qo‘shma fe‘llar va ko‘p komponentli fe‘l birikmalarining ko‘pchilik qismi idiomalarga (ma‘nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma‘no beruvchi ixcham iboralar) oiddir va qismlarga bo‘linmaydigan frazeologik birliklarni tashkil etadi: دست داشتن *dast dâštan* ‘mohir bo‘lmoq’, ‘usta bo‘lmoq’, جان نثار کردن *jân nesâr kardan* ‘jon fido etmoq’, ‘jonini qurbon qilmoq’ kabi.

Demak, ot tarkibli qo‘shma fe‘llar *ot qism+fe‘l komponenti* (ya‘ni yordamchi-yasovchi fe‘l)dan iborat bo‘ladi. Ot qismni turli so‘z turkumlariga mansub bir yoki undan ortiq ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar – leksemalar tashkil etadi. Bu so‘zlar tub forsiy hamda chetdan kirib kelgan so‘zlar bo‘lishi mumkin.

Ot qismi ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan ifodalangan qo‘shma fe‘llar eng katta guruhni tashkil etadi. Otlarning taqriban barcha turlari qo‘shma fe‘l yasashida ishtirok etadi. Lekin bu hamma otlar yoki otlarning semantik guruhi qo‘shma fe‘l yasaydi, degan gap emas. Masalan, kishilar, hayvon va o‘simliklarni ifodalovchi otlar, odatda, qo‘shma fe‘lning ot qismi vazifasida ishlatilmaydi. Qo‘shma fe‘l tarkibidagi mavhum ot vazifasida arab masdarlaridan iborat harakat ma‘nosidagi so‘zlar eng ko‘p qo‘llanadi: استفاده *estefâda* ‘foy-

dalanish' – استفاده کردن *estefâda kardan* 'foydalanmoq', ترمیم *tarmim* 'remont', 'tuzatish' – ترمیم کردن *tarmim kardan* 'remont qilmoq'.

Shuningdek, tub forsiy so'zlardan: نگهداری *negahdâri* 'qo'riqlash', 'himoya qilish', 'muhofaza' – نگهداری کردن *negahdâri kardan* 'qo'riqlamoq', 'himoya qilmoq', 'muhofaza qilmoq'; آزار *âzâr* 'ozor', 'azob' – آزار دادن *âzâr dâdan* 'ozor bermiq'.

Qo'shma fe'llar ot qismi vazifasida keluvchi konkret otlar ichidan odam va hayvon organlari, kundalik turmushda ishlatiladigan asbob-qurollar, predmetlarni ifodalovchi so'zlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Bunda qo'shma fe'llar, odatda, ana shu organ yoki predmetlar vositasida bajariladigan ish-harakatni bildirib keladi:

دست زدن *dast zadan* 'qo'l urmoq', 'tegmoq' (دست *dast* 'qo'l'), چشم انداختن *čašm andâxtan* 'qaramoq', 'ko'z tashlamoq' (چشم *čašm* 'ko'z'),

گوش دادن *gôš dâdan* 'eshitmoq', 'quloq solmoq' (گوش *gôš* 'quloq'),
نوک زدن *nôk zadan* 'cho'qilamoq' (نوک *nôk* 'tumshuq'),
شانه زدن (کردن) *šâna zadan (kardan)* 'taramoq' (شانه *šâna* 'taroq'),
کلید کردن *kalid kardan* 'qulflamoq' (کلید *kalid* 'kalit'),
تلفون کردن *têlfun kardan* 'telefon qilmoq' (تلفون *têlfun* 'telefon').

Qo'shma fe'lining ot qismi sifat va fors yoki arab sifatdoshi bilan ifodalanishi mumkin:

بزرگ کردن *bozorg kardan* 'kattalashtirmoq', 'oshirmoq' (بزرگ *bozorg* 'katta'),
سفید کردن *safêd kardan* 'oqlamoq', 'oqartirmoq' (سفید *safêd* 'oq'),
معلوم شدن *ma'lum šodan* 'ma'lum bo'lmoq' (معلوم *ma'lum* 'ma'lum'),
منعقد ساختن *mon'aqed sâxtan* 'imzolamoq', 'tuzmoq' (منعقد *mon'aqed* 'tuzilgan' /shartnoma/),
مختصر moxtasar *kardan* 'qisqartirmoq', 'yakun yasamoq' (مختصر *moxtasar* 'qisqa'),
پخته کردن *poxta kardan* 'pishirmoq' (پخته *poxta* 'pishgan', 'tayyor'),
بر آورده شدن *barâwarda šodan* 'amalgâ oshmoq' (بر آورده *barâwarda* 'amalgâ oshgan').

Undov va taqlidiy so'zlar ham ot qism bo'lib kelishi mumkin: آه کشیدن *âh kašidan* 'xo'rsinmoq', 'oh chekmoq', افسوس خوردن *afsôs xordan* 'afsuslanmoq'.

Qo'shma fe'lning fe'l qismi sodda, prefiksli va ba'zan qo'shma fe'llardan iborat bo'lishi mumkin. Fe'l komponenti deganda, ikki qismli turg'un fe'l birikmalari tarkibida kelib, ularga fe'llik xususiyatini beruvchi fe'llar tushuniladi.

Fe'l komponenti vazifasida quyidagi sodda fe'llar ko'proq ishlatiladi:

a) o'timli qo'shma fe'l yasashda: کردن *kardan* 'qilmoq' (va uning sinonimlari نمودن *namudan*, ساختن *sâxtan*, گرداندن *gardândan*), دادن *dâdan* 'bermoq', زدن *zadan* 'urmoq', آوردن *âwardan* 'keltirmoq', ماندن *mândan* 'qo'ymoq', 'qoldirmoq'; 'qolmoq' va, shuningdek, قرار دادن *qarâr dâdan* qo'shma fe'li va boshqalar;

b) o'timsiz qo'shma fe'l yasashda: شدن *šodan* 'bo'lmoq', گردیدن *gardi-dan* 'aylanmoq', بودن *budan* 'bo'lmoq', 'emoq', گرفتن *gereftan* 'olmoq', پیافتن *yâftan* 'topmoq', 'olmoq', دیدن *didan* 'ko'rmoq' va boshqalar.

Qo'shma fe'l yasashda prefiksli fe'llar ham alohida o'rin tutadi. Bu o'rinda eng ko'p ishlatiladigan prefiksli fe'llar quyidagilar:

داشتن *bardâştan* 'ko'tarmoq', 'olmoq', آوردن *barâwardan* 'amalga oshirmoq', 'bajarmoq', برانگیختن *barangixtan* qo'zg'atmoq'.

Yordamchi fe'llar qo'shma fe'llar tarkibida ko'proq mavhum tushuncha kasb etadi va qisman yoki to'la o'z leksik ma'nosini yo'qotadi. Zamon, shaxs-son affikslari qo'shma fe'llarning ikkinchi komponentiga (yordamchi fe'lga) qo'shiladi: ادامه دادم *edâma dâdam* 'davom etdim', خرید کردم *xarid kardêm* 'sotib oldik' va boshqalar.

5.3. O'timli va o'timsiz fe'llar

افعال متعدی و لازم *af'âl-e motaaddi wa lâzem*

Fe'llar anglashilgan harakatning predmet (to'ldiruvchi)ga munosabatiga ko'ra o'timli va o'timsiz bo'ladi.

Harakat ta'sirining biror ob'ektga o'tishini ko'rsatuvchi fe'l o'timli fe'l deyiladi. O'timli fe'llar vositasiz to'ldiruvchi bilan bog'lanadi: آوردن *âwardan* 'keltirmoq' (nimani?), نوشتن *nawêştan* 'yozmoq', خریدن *xaridan* 'sotib olmoq', خواندن *xândan* 'o'qimoq' kabi.

Harakat ta'sirining biror ob'ektga o'tmasligini ko'rsatuvchi fe'l o'timsiz fe'l deyiladi: خندیدن *xandidan* 'kulmoq', âmadan 'kelmoq', رفتن *raftan* 'bormoq' kabi.

Eslatma. Dariy tilida ba'zi fe'llar borki, ular o'zlarining leksik ma'nolariga ko'ra ham o'timli, ham o'timsiz bo'ladilar: شکستن *šekas-tan* 'sinmoq', 'sindirmoq', سوختن *sôxtan* 'yonmoq', 'yondirmoq', ریختن

rêxtan ‘to‘kilmoq’, ‘to‘kmoq’ va sh.k. (masalan, خانه سوخت *Xâna sôxt* ‘Uy yondi’, خانه را سوخت *Xâna-râ sôxt* ‘Uyni yondirdi’).

M.N.Neghat Saidiyning yozishicha, mazkur fe’llar klassik she’riyatda ko’rsatilgan ma’nolarda ishlatilib, hozirgi dariy tilida, asosan, o’timsiz fe’l sifatida qo’llaniladi. Biroq Afg’onistonning ba’zi bir rayonlarida (Badaxshon, Taxoriston) og’zaki tilda شکستن *šekastan* va ریختن *rêxtan* fe’llari o’timli va o’timsiz fe’l tarzida ishlatiladi. Hozirgi dariy tilida شکستن *šekastan*, سوختن *sôxtan*, ریختن *rêxtan* fe’llarining o’timli shakli شکستاندن *šekastândan*, سوختاندن *sôxtândan*, ریختاندن *rêxtândan*dir [16: 40].

Ko’pincha o’timli ma’nodagi qo’shma fe’llarning yordamchi qismini boshqa fe’l bilan almashtirish orqali ulardan o’timsiz fe’l yasaladi. Bu xildagi almashish ko’proq کردن *kardan* ‘qilmoq’ bilan شدن *šodan* ‘bo’lmoq’ yordamchi fe’llari orasida sodir bo’ladi. Masalan:

آغاز کردن <i>âyâz kardan</i> ‘bosh-lamoq’	–	آغاز شدن <i>âyâz šodan</i> ‘bosh-lanmoq’
آشنا کردن <i>âšnâ kardan</i> ‘tanish-tirmoq’	–	آشنا شدن <i>âšnâ šodan</i> ‘tanish-moq’
بیدار کردن <i>bêdâr kardan</i> ‘uyg’otmoq’	–	بیدار شدن <i>bêdâr šodan</i> ‘uyg’onmoq’
پرورش دادن <i>parwareš dâdan</i> ‘tarbiyalamoq’	–	پرورش یافتن <i>parwareš yâftan</i> ‘tarbiyalanmoq’ kabi.

5.4. Bo’lishli va bo’lishsiz fe’llar

افعال مثبت و منفی *af’âl-e mosbat va manfi*

Fe’llar ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini bildirishiga ko’ra bo’lishli yoki bo’lishsiz shakllarda bo’ladi. Bo’lishli fe’llar bajarilgan, bajarilayotgan, bajariladigan ish-harakatni anglatadi. Bo’lishlilikni ko’rsatuvchi maxsus affiks yo’q. Masalan: فرید روزنامه *Farid rôznâma mêxânad* ‘Farid ro’znoma o’qiyapti’; احمد کتاب *Ahmad ketâbrâ xând* ‘Ahmad kitobni o’qidi’; دیروز هوا بسیار *Dirôz hawâ besyâr garm bud* ‘Kecha havo juda issiq edi’.

Bo’lishsiz fe’llar bajarilmagan, bajarilmayotgan yoki bajarilmaydigan ish-harakatni anglatadi. Bo’lishsizlik ma’nosini ko’rsatish uchun نا *na-* inkor prefiksi qo’llanadi. Masalan: امسال در کابل بسیار *Emsâl dar Kâbol besyâr barf nabârid* ‘Bu yil Kobulda ko’p qor yog’madi’; آسمان ابرآلود نیست *Âsmân abrâلود nêst* ‘Osmon

bulutli emas'; ما به سینما نرفته بودیم *Mâ ba sinemâ narafta budêm* 'Biz kinoga bormagan edik'; او پیش دوستش نرفته است *Ô pêş-e dôstaş narafta ast* 'U do'stinikiga bormagan (borgani yo'q)'.

Savollar

1. *Fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra necha guruhga bo'linadi?*
2. *Fe'llar qaysi usullar bilan yasaladi? Misollar bilan tushintiring.*
3. *Fe'l+fe'l tipidagi qo'shma fe'llarni ularning yasashiga asos bo'lgan soddâ fe'llar bilan o'zaro semantik munosabatiga ko'ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?*
4. *Qo'shma fe'llarga misollar keltirib, yasashini tushuntiring.*
5. *Hozirgi dariy tilida fe'l yasashining qaysi usuli mahsuldor sanaladi?*
6. *Fe'l turkumi qanday grammatik kategoriyalar bilan xarakterlanadi?*
7. *O'timli va o'timsiz fe'llarga misollar keltirib, ularning bir-biridan farqini tushuntirib bering.*
8. *Dariy tilida bo'lishli-bo'lishsizlik qanday ifodalanadi?*

5.5. Tuslanishli fe'llar

Ma'lumki, tuslanish sistemasiga bo'lgan munosabatiga ko'ra fe'llar tuslanishli va tuslanishsiz fe'llarga bo'linadi.

Tuslanishli fe'llarni ikkiga bo'lish mumkin: a) sodda fe'l shakllari – fe'l negiziga forma yasovchi prefiks va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi va b) qo'shma fe'l shakllari – fe'lning o'zgarma ot qismi (yoki yetakchi qism) va tuslanuvchi yordamchi fe'l hamda fe'l bog'lamasi orqali yasaladi.

Tuslanishli fe'llar hamma vaqt mayl va shaxs-son jihatdan shakllangan bo'lishi shart. Lekin hamma vaqt shaxs-son ko'rsatkichlariga ega bo'laverishi shart emas. Tuslanishli fe'llardan faqat ijro maylidagi fe'llargina zamon ma'nosiga ega bo'ladi va zamon ma'nosining ifodalanishida shu ma'noni ifodalovchi formant albatta qatnashadi.

5.5.1. Dariy tilida shaxs-son qo'shimchalari (ko'rsatkichlari)

Dariy tilida shaxs-son qo'shimchalari (yoki tuslovchilar) barcha zamon va mayllar uchun bir xildir.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	م -am (og'z. -om)	يم -êṁ (og'z. -êṁ)
II shaxs	ى -i (og'z. -i)	يد -êd (og'z. -ên)
III shaxs	د -ad (og'z. -a)	ند -and (og'z. -an)

III shaxs, birlik qo'shimchasi د -ad faqat hozirgi zamon fe'l negiziga qo'shiladi: میخواند *mêxânad* 'o'qiydi', 'o'qiyapti'. Aniq o'tgan zamon fe'li III shaxs, birlikda qo'shimcha olmaydi va o'tgan zamon fe'l negiziga to'g'ri keladi: خواند *xând* 'o'qidi', نوشت *nawešt* 'yozdi'.

Shaxs-son ko'rsatkichlarining imlosi. Hozirgi zamon fe'l negizi cho'ziq unli â yoki u bilan tugasa, shaxs-son ko'rsatkichlari oldidan I shaxs birlik va III shaxs birlik va ko'plikda bir ی y, qolgan shaxslarda esa shaxs-son ko'rsatkichlari oldidan bir ء hamza belgisi orttirilib yoziladi: میایم *mêâyam* 'kelyapman', 'kelaman', میائی *mêâyi* 'kelyapsan', 'kelasan', میاید *mêâyad* 'kelyapti', 'keladi', میائیم *mêâyim* 'kelyapmiz', 'kelamiz', میائید *mêâyid* 'kelyapsiz', 'kelasiz', میایند *mêâyand* 'kelyaptilar', 'keladilar'. Biroq hozirgi vaqtda, ko'pincha, hamza belgisi o'rnida ham ی y harfi qo'llanmoqda: میایی *mêâyi* 'kelyapsan', 'kelasan' kabi.

5.5.2. Forma yasovchi prefikslar (yoki fe'l prefikslari)

Fe'l formalarining yasalishida maxsus prefikslar (old qo'shimchalar) ham ishtirok etadi.

می *mê-* prefiksi va uning tarixiy prototipi همی *hamê-* harakatga davomlilik, takroriylik tusini beradi: میرفت *mêraft* 'borardi', همی گفتند *hamêgoftand* 'aytardilar', میخواند *mêxânad* 'o'qiyapti', 'o'qiydi'.

به *be-(og'z. be-, bo-, b-)* prefiksi ba'zan shakl elementi (masalan: aorist shaklida اگر بگویم *agar begôyam (bogôyam)* 'agar aytсам') sifatida qo'llansa, ba'zan harakatga takrorsizlik, bir onda sodir bo'lishlik tusini beradi: این را بگفت و برفت *In-râ begoft wa beraft* 'Shuni aytdi va chiqib ketdi'.

نا *na-* inkor prefiksi fe'llarga qo'shib yoziladi va forma hamda so'z yasovchi prefikslardan oldin qo'yiladi: نمیگویند *namêgôyand* 'aytmayptilar', 'aytmaydilar', نخواند *naxând* 'o'qimadi', نگو *nagô* 'aytma'. Buyruq maylida ba'zan ما *ma-* inkor morfemasi ham ishlatiladi: ممکن *makon* 'qilma', مرو *maraw* 'borma' kabi.

Forma yasovchi prefikslarning imlosi. Agar fe'l cho'ziq unli *ā â* bilan boshlangan bo'lsa, به *be-* yoki نا *na-* prefiksi ketidan bir *y* orttirilib yoziladi: بیاور *beyâwar* 'keltir', نیاور *nayâwar* 'keltirma' kabi.

Agar fe'l *a* yoki *o* qisqa unlisi bilan boshlangan bo'lsa, unga به *be-* yoki نا *na-* prefikslari qo'shilganda, yozuvda *alif* harfi tushib qoladi va uning o'rniga bir *y* qo'yiladi. Masalan, انداختن *andâxtan* 'tashlamoq', hozirgi zamon fe'l negizi انداز *andâz*: بیداز *beyandâz* 'tashla', نینداز *nayandâz* 'tashlama' kabi.

5.6. Fe'l mayllari

وَجْوهُ فَعْل *wojuh-e fe'l*

Mayl kategoriyasi harakat bilan sub'ekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Bu aloqa va munosabatning turlicha bo'lishidan maylning ham bir necha turi bor:

1) ijro mayli وجه اجباری *wajh-e axbâri* (o'zbek tiliga oid ba'zi qo'llanmalarda xabar mayli yoki aniqlik mayli termini bilan ham ishlatiladi);

2) buyruq mayli وجه امری *wajh-e amri* (o'zbek tilida: buyruq-istak mayli);

3) shart-istak mayli وجه التزامی *wajh-e eltezâmi* (o'zbek tilida ba'zan shart mayli termini bilan ishlatiladi).

5.6.1. Ijro mayli وجه اخباری *wajh-e axbâri*

Ijro mayli ish-harakatning uch zamondan birida bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Ijro maylining maxsus grammatik koʻrsatkichi yoʻq. Maylning bu turi grammatik zamon maʼnosiga va bu maʼnoni ifodalaydigan formaga egaligi bilan xarakterlanadi.

Zamon kategoriyasi. Feʼlning muhim grammatik kategoriyalaridan biri zamon kategoriyasidir. Har qanday voqea yoki hodisa zamon va makonda yuz berganidek, feʼl orqali ifodalangan ish-harakat yoki holat ham muayyan zamon va makonda voqea boʻladi.

Feʼllarning grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga boʻlgan munosabatini bildiradi. Dariy tilida harakatning nutq momentiga turlicha munosabatda boʻlishiga koʻra feʼl zamonlari uchga: *oʻtgan zamon*, *hozirgi zamon* va *kelasi zamonga* boʻlinadi. Dariy tilida hozirgi hamda kelasi zamon feʼllariga nisbatan *oʻtgan zamon* feʼllari grammatik formalarining turiligi bilan ajralib turadi.

5.6.1.1. Oʻtgan zamon aniq feʼli (preterit)

فعل ماضى عادى يا مطلق *feʼl-e mâzi-ye âdi yâ motlaq*

Oʻtgan zamon aniq feʼli ish-harakatning nutq soʻzlanib turgan paytdan oldin aniq bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi. Bunda biror hodisaning boʻlgan yoki boʻlmaganligini birovdan eshitib emas, balki soʻzlovchining oʻzi koʻrganligi va bilganligi anglashiladi. Oʻtgan zamon aniq feʼli, asosan, takrorlanmagan, davomli boʻlmagan, muayyan bir vaqt ichida boʻlib oʻtgan harakatni ifodalaydi.

Dariy tilida oʻtgan zamon aniq feʼli feʼllarning oʻtgan zamon negiziga shaxs-son qoʻshimchalarini qoʻshish bilan hosil boʻladi, masalan: خواندم *xând-am* ‘oʻqidim’, خواندى *xând-i* ‘oʻqiding’ kabi.

Baʼzan harakat yoki holatning qatʼiyan bajarilgan hamda tugallanganligini qayd qilish uchun oʻtgan zamon aniq feʼliga (klassik davr tiliga xos boʻlgan) *be-* old qoʻshimchasi orttiriladi: برافتم *beraftam* ‘(butunlay) ketdim’.

5.6.1.2. O'tgan zamon davom fe'li (imperfekt)

فعل ماضی استمراری *fe'l-e mâzi-ye estemrâri*

Bu fe'l harakatdan anglashilgan mazmunning o'tgan zamonda takrorlanganligini, davom etganligini ifodalaydi. Dariy tilida o'tgan zamon davom fe'li o'tgan zamon fe'l negiziga می *mê-* old qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan: میفرستادم *mêferestâd-am* 'yuborar edim', میفرستادی *mêferestâd-i* 'yuborar eding' kabi.

Bundan tashqari, hozirgi dariy jonli so'zlashuv tilida o'tgan zamon davom fe'lining quyidagicha yasaliş sxemasi mavjud:

1. Yetakchi fe'ning *o'tgan zamon sifatdoshi* + می *mê-* + رفتن *raftan* ko'makchi fe'lining o'tgan zamon negizi + *shaxs-son qo'shimchalari*:

نوشته میرفتم *nawešta mêraftam* 'yozib borar edim',

هوا گرم شده میرفت *Hawâ garm šoda mêraft* 'Havo isib borar edi' kabi.

2. Yetakchi fe'ning *o'tgan zamon sifatdoshi* + راهی *râhi* (og'z. رایى *râyi*) so'zi + بودن *budan* ko'makchi fe'lining o'tgan zamon negizi + *shaxs-son qo'shimchalari*:

گفته راهی بود *gofta râhi bud* 'gapirardi' ('vaysardi'),

نوشته راهی بود *nawešta râhi bud* 'yozardi' kabi [16: 31].

O'tgan zamon davom fe'li, shuningdek, amalda bajarilmagan harakatni, ya'ni mo'ljal qilingan yoki bajarilishi biror voqea-hodisa bilan bog'liq bo'lgan harakatni bildiradi. Bunda davomlilik ma'nosi ham ifodalanadi. Bu vaqtda u shart ergash gapli qo'shma gapda bosh gapning kesimi vazifasida keladi: اگر به روز رخصتی بیایی، به سینما میرفتیم *Agar ba rôz-e roxsati beyâyi, ba sinemâ mêraftêm* 'Dam olish kuni kelsang, kinoga borar edik'.

5.6.1.3. O'tgan zamon natijali fe'li (perfekt)

فعل ماضی نقلی یا قریب *fe'l-e mâzi-ye naqli yâ qarib*

O'tgan zamon natijali fe'li ish-harakat yoki holatning o'tgan zamonda bo'lib o'tganligini bildirish bilan birga, uning bajarilish fakti, natijasi hozirda ham mavjud ekanligini ko'rsatadi. Dariy tilida o'tgan zamon natijali fe'li o'tgan zamon sifatdoshiga هست *hast* bog'lamasi qisqa shaklining shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish yo'li orqali

yasaladi: نوشته ام *nawešta-am* ‘yozganman’, خوانده است *xânda ast* ‘o‘qigan’ kabi.

Jonli so‘zlashuv tilida mazkur fe‘l shakli yetakchi fe‘lning o‘tgan zamon sifatdoshi hamda fe‘l bog‘lamasining to‘liq shakli هستن (هستن) *astan* (*hastan*)ning birikuvidan ham hosil bo‘ladi, masalan: خوانده استم *xânda astam* ‘o‘qiganman’, گفته استی *gofta asti* ‘gapirgansan’ kabi.

Demak, bu forma o‘tgan zamon aniq fe‘lidan, asosan, shu bilan farq qiladiki, birinchidan, bundagi vaqt ma‘nosi o‘tgan zamon aniq fe‘lidagiga nisbatan uzoqroq bo‘ladi, ikkinchidan, bu forma ko‘pincha tasviriy xarakterga ega bo‘lgan nutqda qo‘llanadi va asosiy diqqat harakatning o‘ziga emas, balki natijasiga qaratiladi:

انها این داستان را خوانده اند *Ânhâ in dâstân-râ naxânda-and* ‘Ular bu hikoya (qissa)ni o‘qimaganlar’.

Bu fe‘l formasi o‘zbek tilida tarixiy o‘tgan zamon fe‘liga to‘g‘ri keladi. [14: 289].

Dariy tilida o‘tgan zamon natijali fe‘li o‘tgan zamon eshitilganlik ma‘nosini ham bildirishi mumkin:

او زبان دری را خوب یاد گرفته است *Ô zabân-e dari-râ xub yâd gerefta ast* ‘U dariy tilini yaxshi o‘rganibdi’.

خوابیدن *istâdan* (tik) turmoq’, نشستن *nešastan* ‘o‘tirmoq’, خوابیدن *xâbidan* ‘uxlamoq’ kabi holatni bildiruvchi fe‘llardan hosil bo‘lgan o‘tgan zamon natijali fe‘li ko‘proq hozirgi zamon bilan bog‘liq bo‘lgan ish-harakatni bildiradi. Masalan: من روی چوکی نشسته ام *Man rây-e çawki nešasta-am* ‘Men stulda o‘tiribman’.

O‘tgan zamon natijali fe‘li bu jihatdan o‘zbek tilidagi tasviriy hozirgi zamon davom fe‘liga to‘g‘ri keladi. O‘zbek tilida harakatning hozirgi zamon ma‘nosini ifodalashda *yotmoq*, *turmoq*, *yurmoq*, *o‘tirmoq* fe‘llari muhim rol o‘ynaydi. Lekin bu fe‘llar hozirgi zamonni ifodalaganda, inkor ma‘nosini anglatuvchi ن *na-* prefiksi (o‘zbek tilida *-ma* affiksi)ni qabul qila olmaydi.

Shuni aytish kerakki, yuqorida qayd etilgan fe‘llar دیدن *didan* ‘ko‘rmoq’ fe‘li bilan ishlatilganda, hozirgi zamon ma‘nosini berishi ravshanroq namoyon bo‘ladi. Bu dariy tilida to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap tarzida amalga oshadi. Masalan:

دیدم که پدرم در میان حویلی حیران ایستاده است *Didam ke padaram dar miyân-e hawili hayrân istâda ast* ‘Ko‘rdimki, otam hovli o‘rtasida hayron bo‘lib turibdi’.

O'zbek tiliga tarjima qilinganda, bu ko'pincha sodda yoyiq gap tarzida (sifatdosh oboroti bilan) beriladi, ya'ni 'Otam hovli o'rtasida hayron bo'lib turganini ko'rdim'. Demak, bu o'rinda so'zlovchi ish-harakatning bajarilayotganligini boshqa odamdan eshitmay, o'z ko'zi bilan ko'rishi shart.

L.N. Kiseleva perfekt II termini ostida fe'l bog'lamasini o'rniga hozirgi-kelasi zamonda tuslangan بودن *budan* ko'makchi fe'lini keltirish orqali yasalgan o'tgan zamon natijali fe'lini ko'rsatadi [2: 94]. Bu forma bo'lib o'tgan harakatning natijasiga qaratilgan diqqatga urg'u berish, yanada ta'kidlash uchun ishlatiladi:

ديوارهای آن از سنگ مرمر ساخته شده میباشد
Dêwârâhâ-ye ân az sang-e marmar sâxta šoda mêbâšad 'Uning devorlari marmartoshdan qurilgandir'.

O'tgan zamon natijali fe'li ba'zi vaqtlarda o'tgan zamon davom fe'li shaklida kelish hollari kuzatilmoqda:

از روزگاران بسیار قدیم تا کنون تحصیلات و تحقیقات در باب زبان ادامه می داشته است.

Az rôzgârân-e besyâr qadim tâ konun tafahhosât va tahqiqât dar bâb-e zabân edâma mêdâšta ast [16: 32].

Dariy tilida mazkur fe'l formasining bo'lishsiz shakli fe'lning sifatdosh qismiga *na-* inkor prefiksini qo'shish orqali yasaladi: نکرده ام *nakarda-am* 'qilmaganman', 'qilganim yo'q', 'qilgan emasman'.

5.6.1.4. Uzoq o'tgan zamon fe'li (plyuskvamperfekt)

فعل ماضی بعید *fe'l-e mâzi-ye ba'id*

Uzoq o'tgan zamon fe'li ish-harakatning qachondir, nutq so'zlanib turgan paytdan ancha ilgari bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi. Uzoq o'tgan zamon fe'li o'tgan zamon sifatdoshidan so'ng بودن *budan* ko'makchi fe'li (o'zbek tilida *emoq* to'liqsiz fe'li)ni o'tgan zamonda tuslash orqali yasaladi: دیدم بودم *dida budam* 'ko'rgan edim', خوانده بودی *xânda budi* 'o'qigan eding' kabi.

Mazkur fe'l formasining bo'lishsiz shakli sifatdosh qismiga *na-* inkor prefiksi (o'zbek tilida *-ma* affiksi)ni qo'shish orqali hosil qilindi: ندیده بودم *nadida budam* 'ko'rmagan edim' kabi.

Uzoq o'tgan zamon fe'li, shuningdek, o'tgan zamonda boshlangan ikki ish-harakatdan biri oldinroq bo'lib o'tganligini ko'rsatadi:

وقتی که من به فاکولته آمدم درس آغاز شده بود
Waqtê ke man ba fâkulta âmadam dars âyâz šoda bud 'Men fakultetga kelganimda, dars boshlangan edi'.

Bundan tashqari, uzoq o'tgan zamon fe'li irreal shart ergash gaplarda ham ishlatiladi:

اگر نامه شما را خوانده بودم سر موقع میآمدم *Agar nâma-ye šomârâ xân-da budam sar-e mawqe' mêâmadam* 'Agar xatingizni o'qiganda edim, o'z vaqtida kelgan bo'lardim'.

Yozma adabiyotda uzoq o'tgan zamon fe'lining می *mê-* prefiksi orqali ishlatilish hollari uchraydi, ya'ni گفته میبود *gofta mêbud*, گفته میبودند *gofta mêbudand* kabi. Bu o'rinda می *mê-* prefiksi o'z vazifasida keladi: fe'lga davomlilik, tugallanmaganlik ma'nolarini beradi [2: 94].

O'zbek tilida yuqorida keltirilgan o'tgan zamon fe'l formalaridan tashqari, o'tgan zamon hikoya fe'li (*borib edim, ko'rmab edi*) va o'tgan zamon eshitilganlik fe'li (*boribman, ko'ribsan, bilmabdi, o'qimabdilar* kabi) mavjud. Ba'zan o'tgan zamon eshitilganlik fe'li o'tgan zamon hikoya fe'li tarkibida beriladi. Dariy tilida o'tgan zamon fe'lining mazkur formasi mavjud emas. Lekin bu fe'l anglatgan ma'no uzoq o'tgan zamon fe'li orqali beriladi.

5.6.1.5. Hozirgi zamon fe'li

فعل حال *fe'l-e hâl*

Ma'lumki, o'zbek tilida hozirgi zamon fe'li ma'no jihatidan ikki turga bo'linadi:

- 1) hozirgi zamon davom fe'li (yoki aniq hozirgi zamon fe'li);
- 2) hozirgi-kelasi zamon fe'li.

Ayrim qo'llanmalarda hozirgi-kelasi zamon fe'li kelasi zamon fe'l formalari tarkibida beriladi. Chunki o'zbek tilida hozirgi-kelasi fe'li hozirgi zamonga nisbatan kelasi zamon ma'nosini ko'proq beradi. Dariy tilida hozirgi zamon fe'li ma'nosiga ko'ra hozirgi-kelasi zamon fe'li deb yuritiladi. Bu tilda, o'zbek tilidagidek, hozirgi zamon fe'l formalarini, ya'ni hozirgi zamon davom fe'li va hozirgi-kelasi zamon fe'llarini bir-biridan ajratib turuvchi muayyan affiksalar mavjud emas.

Dariy tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li hozirgi zamon fe'l negiziga می *mê-* old qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi: میگویم *mêgôyam*, میگوی *mêgôyi* va h.

Dariy tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li quyidagi ma'no turlariga ega:

1. Nutq momentida bo‘layotgan harakatni anglatadi: تو کجا میروی؟
Tu kojâ mêtawî? ‘Sen qayerga ketayapsan?’

2. Uzoq davom etayotgan harakatni, doimiy jarayonni ifodalaydi:
ما هر سال به اردوگاه میرویم *Mâ har sâl ba ordugâh mêtawêm* ‘Biz har yili lagerga boramiz’;
من در پوهنتون تحصیل میکنم *Man dar pohantun tahsil mêkonam* ‘Men universitetda o‘qiyman’.

3. Kelasida bo‘ladigan harakatni ifodalaydi: هفته آینده به کابل میروم
Hafta-ye âyanda ba Kâbol mêtawad ‘Kelasi hafta Kobulga ketadi’.

Ba‘zan qadimiy she‘r, nasr va boshqa yozmalarda hozirgi zamon formasi *mê-* old qo‘shimchasiz yasalganini ham ko‘rish mumkin.

Dariy adabiy tilida hozirgi zamonning *hamê-* prefiksi bilan yasalgan qadimiy shakli ham keng ko‘lamda ishlatiladi. Bu forma uzoq davom etayotgan, doimiy jarayonni ifodalaydi: همینویسد
hamênawisad ‘yozayotir’.

Neghat Saidiy dariy tilida hozirgi zamon fe‘lining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib, *mê-* prefiksi bilan yasalgan hozirgi zamon fe‘llari ham (*یا مطلق*) *fe‘l-e hâl-e âdi (yâ motlaq)* ‘aniq hozirgi zamon’ (masalan, میگویم *mêgôyam*, میایی *mêâyî* kabi), ham اعتیادی و استمراری و *fe‘l-e hâl-e estemrârî wa e‘tiyâdî* ‘hozirgi zamon davom fe‘li’ (*قدم میزنم*) *qadam mêzanam*, باران میبارد *bârân mê-bârad*, شمع میسوزد *šam’ mêsozad* kabi), ham مستقبل *fe‘l-e mostaqbal* ‘kelasi zamon’ ma‘nolarini berishi mumkinligini ta‘kidlaydi [16: 33].

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, o‘zbek tilida hozirgi zamon davom fe‘li ham mavjud. Bu fe‘l formasini ikki turga ajratish mumkin, ya‘ni 1) affikslar yordami bilan ifodalangan (*-yotib*, *-yotir*, *-yap* hamda *-moqda* affikslari: *o‘rgatyapti*, *sezilayotibdi*, *sayrashmoqda*) va 2) tasviriy hozirgi zamon davom fe‘llari (*yotmoq*, *turmoq*, *yurmoq*, *o‘tirmoq* holat fe‘llari orqali ifodalanadi: *ishlab yotibdi*, *ishlab turibdi*).

Dariy tilida ham shunga o‘xshash holatni kuzatishimiz mumkin, ya‘ni jonli so‘zlashuv tilida (Kobul, Badaxshon, Taxoreston rayonlarida) رفتن *raftan* ‘yurmoq’, ایستادن *istâdan* ‘turmoq’, شیشتن *šeštan* (ad. نهستان *nešastan*) ‘o‘tirmoq’, رایى بودن *râyi budan* (ad. راهی بودن *râhi budan*) ‘yurmoq’, ‘harakat qilmoq’ kabi ko‘makchi fe‘llar bilan yasalgan shunday hozirgi zamon fe‘l shakllari mavjudki, bularni shak-shubhasiz hozirgi zamon davom fe‘li deb ataymiz. Masalan, Kobul lahjasida:

گفته میره (گفته میرود)	<i>gofta mēra (gofta mērawad)</i>
گفته راییس (گفته راهی است)	<i>gofta râvis (gofta râhi ast)</i>
گفته شیشته (گفته نشسته است)	<i>gofta šešta (gofta nešasta ast)</i>

Badaxshon, Taxoreston lahjalarida (shevalarida):

گفتیستم (گفته ایستم)	<i>goftistam (gofta istam)</i>
گفتیستاده (گفته ایستاده است)	<i>goftistâda (gofta istâda ast)</i> [16: 33].

5.6.1.6. Kelasi zamon fe'li

فعل مستقبل *fe'l-e mostaqbal*

Kelasi zamon fe'li harakatning kelajakda (nutq so'zlanib turgan paytdan keyin) bo'lish-bo'lmasligini, bajarilish-bajarilmasligini bildiradi.

Kelasi zamon fe'li ma'no jihatidan ikki ko'rinishga ega: 1) qat'iy kelasi zamon fe'li va 2) kelasi zamon tugallangan (yoki gumon) fe'li (o'zbek tilida: hozirgi-kelasi zamon gumon fe'li).

Dariy tilida qat'iy kelasi zamon fe'li yetakchi (asosiy) fe'lining qisqartirilgan infinitivi (masdari) مصدر مرخم *masdar-e moraxxam* hamda خواستن *xâstan* ko'makchi fe'lining می *mê-* prefiksisiz hozirgi zamonda tushlangan shakli orqali yasaladi: خواهم گفت *xâham goft* 'aytajakman (aytaman)', خواهی گفت *xâhi goft* 'aytajaksan (aytasan)', خواهد گفت *xâhad goft* 'aytajak (aytadi)' kabi.

Prefiksli va qo'shma fe'llardan qat'iy kelasi zamon fe'li yasalganda, *xâstan* ko'makchi fe'li prefiksli fe'llarda prefiksdan so'ng, qo'shma fe'llarda esa, ot qism va yordamchi fe'l o'rtasiga qo'yiladi:

من بر خواهم گشت *man bar xâham gašt* 'men qaytajakman (qaytaman)', من خواب خواهم کرد *man xâb xâham kard* 'men uxlayman'.

Mazkur fe'l formasining bo'lishsiz shakli خواستن *xâstan* ko'makchi fe'lga ن *na-* inkor prefiksini qo'shish orqali hosil qilindi: ما نخواهیم رفت *mâ naxâhêm raft* 'biz bormayajakmiz (biz bormaymiz)'.

Qat'iy kelasi zamon fe'lining yuqorida keltirilgan formasi adabiy harakterga ega bo'lib, asosan, kitobiy tilga xosdir. Kobul so'zlashuv tilida qat'iy kelasi zamonning tuzilish jihatdan bir oz o'zgargan shakli ishlatiladi, ya'ni ko'makchi خواستن *xâstan* fe'li o'zgarimas خات *xât* (adabiy خواهد *xâhad*) shaklida qoladi, yetakchi fe'l esa o'tgan zamon aniq fe'li shaxs-son qo'shimchalarini qabul qiladi: خات گفتیم *xât*

goftom (*خا گفتم* *xâgoftom*) – *خواهد گفتم* *xâhad goftam* ‘aytajakman (ay-taman)’, *خات گفتم* *xât gofti* ‘aytajaksan (aytasan)’.

Qat’iy kelasi zamon fe’lida harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi bevosita kelasi zamonga aloqador va boshqa zamon fe’llariga nisbatan aniqlik, qat’iylik ma’nosi kuchliroqdir.

Dariy tilida kelasi zamon tugallangan fe’li yetakchi fe’lning o’tgan zamon sifatdoshi va ko’makchi *بودن* *budan* fe’lini qat’iy kelasi zamon fe’l formasida keltirish orqali yasaladi va kelgusida bo’ladigan ish-harakatning kelasi zamonning biror momentida tugallanganligini ko’rsatadi: *تا تو بیائی کتابهای را آورده خواهند بود* *Tâ tu biyâyi ketâbhâ-râ âwarda xâhand bud* ‘To sen kelguningcha, ular kitoblarni keltirib bo’ladilar’.

Biroq hozirgi dariy tilida bu fe’llar, asosan, shak-shubha, ehtimollik, noaniqlik, gumon ma’nolarini ifodalash uchun qo’llanadi: *او حالا رسیده خواهد بود* *Ô hâlâ rasida xâhad bud* ‘U hozir yetib borgan bo’lsa kerak (borgandir)’.

M.N.Neghat Saidiy mazkur fe’l formasini (شک یا احتمالی) *مستقبل غیر یقینی* *mostaqbal-e yayr-e yaqini* (*šak yâ ehtemâli*) kelasi zamon gumon fe’li deb ataydi [16: 35].

5.6.2. Buyruq mayli

وجه امری *wajh-e amrî*

Dariy tilida buyruq mayli ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida buyruq, ba’zan maslahat, iltimos kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bu mayldagi fe’llar II shaxsning birlik va ko’plik sonida qo’llanadi.

Buyruq maylining birlik shakli fe’llarning hozirgi zamon negiziga *be-* prefiksini qo’shish bilan hosil qilinadi: *بخوان* → *ب + خوان* *bexân* ‘o’qi’, *بنویس* → *ب + نویس* *benawis* ‘yoz’ kabi.

Buyruq maylining ko’plik shakli birlik shakliga *ید* *-êd* shaxs-son qo’shimchasini qo’shish orqali hosil qilinadi: *بخوانید* *bexânêd* ‘o’qing(lar)’, *بنویسید* *benawisêd* ‘yozing’, ‘yozinglar’.

بودن *budan* va *شدن* *šodan* fe’llarining buyruq mayli bo’lishli shakli *be-* prefiksiz ishlatiladi: *جور باشید* *Jôr bâšêd* ‘Sog’ bo’ling’; *تیار شو!* *Tayyâr šaw!* ‘Tayyorlan!’

Prefiksli fe’llardan buyruq mayli yasalganda, *be-* prefiksining tushib qolishi kuzatiladi: *بر گشتن* *bar-gaštan* – *بر گرد* *bar-gard* ‘qayt’, *بر آمدن* *bar-âmadan* – *بر آید* *bar-ây* ‘chiq’ *bar-âyêd* ‘chi-

qing', 'chiqinglar'. در دادن *dar-dâdan* 'yondirmoq' va گرفتن *dar-gereftan* 'yonmoq' fe'llari bundan istisno: mazkur fe'llarning buyruq mayli, odatda, ÷ *be-* prefiksi bilan qo'llaniladi: در بدهید! *Dar-bedehêd!* 'Yondiring!'

Qo'shma fe'llardan buyruq mayli yasalganda, ÷ *be-* prefiksi yordamchi fe'llarga qo'shiladi: ادامه بده *edâma bedeh* 'davom et', گپ بزنید *gap bezanêd* 'gapiring', 'gapiringlar'; biroq ÷ *be-* prefiksi tushib qolishi ham mumkin: استراحت کنید *esterâhat kon* 'dam ol', استراحت کن *es-terâhat konêd* 'dam oling(lar)'.

Buyruq maylining bo'lishsiz shakli ÷ *be-* prefiksining tushib qolishi va uning o'rniga ن *na-* yoki م *ma-* inkor prefiksining qo'yilishi orqali yasaladi: نخوان *naxân* 'o'qima', جواب نده *jawâb nadeh* 'javob berma', بر نخیز *bar-naxiz* 'turma'.

Dariy tilida buyruq maylining murakkab shakli mavjud bo'lib, yetakchi fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi va buyruq mayli formasi-dagi بودن *budan* ko'makchi fe'lining birikuvidan hosil bo'ladi: گفته باش *gofta bâš*, گفته باشید *gofta bâšêd* kabi. Masalan:

پای به اندازه گلیم خود دراز کرده باش *Pây ba andâza-ye gelim-e xôd darâz karda bâš* 'Ko'rpangga qarab oyoq uzat'.

Mazkur forma tugallanganlik ottenkasi bilan xarakterlanadi [2: 95].

Eslatma. داشتن *dâştan* 'ega bo'lmoq' fe'li mustaqil fe'l sifatida qo'llanganda, buyruq mayli داشته باش *dâšta bâš* '(ega) bo'l' shaklida ishlatiladi.

O'zbek tilida dariy tilidan farq qilgan holda, buyruq-istak mayli mavjud bo'lib, ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida buyurish, istash, so'rash, iltimos, maslahat, chaqirish, da'vat qilish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Buyruq-istak maylidagi fe'llarning I shaxsi buyurish, iltimos ma'nolarini anglata olmaydi. I shaxsda istak, xohish, ahd ma'nolari ifodalanadi: yozay(in), ishlay(in) kabi.

So'zlovchining harakatni bajarishga undashi, sof ma'nodagi buyruq bevosita II shaxsga qaratilgan bo'ladi. III shaxsga esa II shaxs orqali buyuriladi: o'qisin, bilsin kabi.

Buyruq-istak maylidagi I va III shaxsga xos ma'nolar dariy tilida shart-istak maylida o'z ifodasini topgan.

5.6.3. Shart-istak mayli

وجه التزامی *wajh-e eltezâmi*

Shart-istak mayli, birinchidan, biror ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni, ikkinchidan, ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida istak, maslahat, imkon, faraz, gumon hamda zaruriyat kabi ma'nolarni anglatadi.

Dariy tilida shart-istak mayli ikki zamonga ega: hozirgi-kelasi zamon (aorist) مضارع التزامی *mozâre'-e eltezâmi* va o'tgan zamon shart-istak mayli ماضى التزامی *mâzi-ye eltezâmi*

Aorist. Dariy tilida aorist fe'llarning hozirgi zamon negiziga *be-* prefiksi va shaxs-son qo'shimchalarini orttirish bilan hosil qilinadi:

ب + خوان + م → بخوانم *bexânam* 'o'qisam', 'o'qiy'
 ب + خوان + ی → بخوانی *bexâni* 'o'qisang'
 ب + خوان + د → بخواند *bexânad* 'o'qisa', 'o'qisin' va h.

Prefiksli fe'llardan shart-istak mayli yasalganda, *be-* prefiksi, odatda, tushib qoladi: بر خیزم *bar-xizam* 'tursam', 'turay', بر گردم *bar-gardam* 'qaytsam', 'qaytay' kabi.

Qo'shma fe'llarda ham *be-* prefiksi tushib qolishi mumkin:

گپ بزنم *gap bezanam* – گپ زنم *gap zanam* 'gapirsam', 'gapiray',
 کار بکنم *kâr bekonam* – کار کنم *kâr konam* 'ishlasam', 'ishlay' kabi.

Mazkur maylning bo'lishsiz shaklida *be-* prefiksi o'rniga ن *na-* inkor prefiksi qo'yiladi: نخوانیم *naxânê'm* 'o'qimasak', 'o'qimaylik',
 کار نکنم *kâr nakonam* 'ishlamasam', 'ishlamaylik', بر نخیزم *bar-naxizam* 'turmasam', 'turmay' kabi.

Dariy tilida aorist ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida istak, imkon, faraz, gumon, zaruriyat kabi ma'nolarni anglatgan gaplarda modal so'z va iboralar hamda modal fe'llar bilan ishlatiladi: من میتوانم این متن را ترجمه کنم *Man mêtawânâ'm in matn-râ tarjoma konam* 'Men bu tekstni tarjima qila olaman', ممکن است ما هفته آینده *Mumken ast mâ hafta-ye âyanda bêrun-e šahr berawê'm* 'Biz kelgusi hafta(da) shahar tashqarisiga chiqishimiz mumkin'.

Shuningdek, aorist bilvosita buyruq, chaqiriq, harakatga qo'zg'atish, da'vat ma'nolarini ifodalaydi: برویم *Berawê'm* 'Ketdik!'; بگذار، او خودش بیاید *Begozâr ô xôdaš beyâyad* 'Uning o'zi kelsin'; مرا ملامت نکنند! *Ma-râ malâmat nakonand* 'Meni ayblashmasin!'

Aorist turli ergash gaplarda ham keng ishlatiladi.

Dariy tilida shart-istak maylining **o'tgan zamon (gumon) shakli** yetakchi fe'lining *o'tgan zamon sifatdoshi* va aorist formasidagi بودن *budan* ko'makchi fe'lining birikuvidan hosil bo'ladi (o'zbek tilida ham o'tgan zamon sifatdoshi bilan *bo'l* fe'li yordamida yasalgan shart mayli formasidagi fe'llar mavjud): خوانده باشم *xânda bâšam* 'o'qigan bo'lsam', خوانده باشی *xânda bâši* 'o'qigan bo'lsang', خوانده باشید *xânda bâšad* 'o'qigan bo'lsa' kabi.

Dariy tilida, shuningdek, o'tgan zamon shart-istak maylining ikkinchi shakli ham mavjud bo'lib, I shakldan o'tgan zamon sifatdoshi oldiga می *mê-* prefiksini orttirish bilan farqlanadi: میخوانده باشم *mêxânda bâšam*, میخوانده باشی *mêxânda bâši* va sh.k. [2: 95].

O'tgan zamon shart-istak maylining I shakli aorist ifodalagan ma'noning modal xususiyatlarini bajarilgan yoki tugallangan harakat-holatga nisbatan anglatadi: شاید بیايد *šâyad beyâyad* 'kelsa kerak' (aorist), شاید آمده باشد *šâyad âmada bâšad* 'kelgan bo'lsa kerak' (o'tgan zamon shart-istak mayli).

Mazkur maylning bo'lishsiz shakli ن *na-* inkor prefiksini o'tgan zamon sifatdoshiga qo'shish orqali hosil qilinadi: نخوانده باشم *naxânda bâšam* 'o'qimagan bo'lsam', 'o'qigan bo'lmasam'.

O'zbek tilida yuqoridagi mayllardan tashqari, *maqsad mayli* ham mavjud. Mazkur mayl formasi *-moqchi* affiksi yordamida yasaladi va sub'ektning harakatni bajarish maqsadini, niyatini, harakatni bajarish mo'ljalini bildiradi: *bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchi...* . O'zbek tili grammatikasiga oid darsliklarning aksar qismida maqsad mayli kelasi zamon maqsad fe'li deb talqin etiladi. Biroq fe'ling bu formasi faqat maqsad, mo'ljal ma'nosini bildiradi, uning zamon ma'nosiga daxli yo'q. [15:474].

-moqchi affiksi bilan yasaluvchi formaning *edi* to'liqsiz fe'li va *bo'l* yordamchi fe'li bilan qo'llanishidan maqsad ma'nosiga turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalovchi analitik forma hosil bo'ladi: *bormoqchi edi, bormoqchi bo'ldi, bormoqchi bo'lyapti* kabi. Biroq bu o'rinda ham harakatning o'tgan zamon yoki hozirgi zamonga oidligi emas, balki maqsadning (niyatning) o'tgan zamon yoki hozirgi zamonga oidligi ifodalanadi: *Bormoqchi bo'lyapman emas, boryapman deyaver* .

Dariy tilida bu ma'no خواستن *xâstan* 'xohlamog', 'istamoq' modal fe'li (ya'ni bu fe'l yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatni bajarishga xohish, istak borligini bildiradi) orqali ifodalanadi:

من میخوام به سینما بروم *Man mêxâham ba sinemâ berawam* 'Men kinoga bormoqchiman (men kinoga borishni istayman)';

میخواستم او را ببینم *Mêxâstam ôrâ bebinam* 'Uni ko'rmoqchi edim'. Demak, yetakchi fe'lning kesimi aorist shaklida bo'ladi.

5.7. Fe'llarda tarz (tus-vid) kategoriyasi

Harakatning xarakterini ifodalashga xoslangan kategoriya *tarz kategoriyasi* deyiladi. Dariy tilida fe'llar, rus tilidagidek, tugallangan va tugallanmagan deb ajratilmaydi. Biroq ruscha tarz kategoriyasining eng nozik tomonlarini ham turli fe'l shakllari va ko'makchi fe'llar bilan ifodalab berish imkoniyati bor.

Dariy tilida fe'llarning tarz shakllari morfologik (sintetik) va sintaktik (analitik) usul bilan yasaladi.

Morfologik usul, ya'ni maxsus affikslar qo'shish usuli bilan:

1) *be-* prefiksi harakatning takrorlanmasligini ko'rsatadi:

این را بگفت و برفت *In-râ begoft wa beraft* 'Shuni aytdi-da, chiqib ketdi';

2) *mê-* prefiksi harakatning davomligini, takrorlanishini ko'rsatadi: او میخواند *Ô mêxând* 'U o'qirdi'.

Sintaktik (analitik) usul bilan, ya'ni birdan ortiq fe'llarning qo'shma fe'l shaklida o'zaro qo'shiluvi bilan:

yetakchi fe'lning o'tgan zamon sifatdoshi yoki infinitiv shakli + ko'makchi fe'l: گرفتن *gereftan*, شدن *šodan*, ماندن *mândan*, آوردن *âwardan*, رفتن *raftan*, ایستادن *istâdan*, نشستن *nešastan*, راهی بودن *râhi budan* kabi. Masalan, دویدن گرفتن *dawidan gereft* yoki شدن *šod* *'yugura boshladi'*, *'yugura ketdi'*, خندیدن گرفتن *xandidan gereft* 'kula boshladi', دویده آمد *dawida âmad* 'yugurib keldi', پریده رفتن *parida raftan* 'uchib ketmoq', ایستاده ماندن *istâda mândan* 'to'xtab qolmoq', کشیده آوردن *kašida âwardan* 'sudrab olib kelmoq' va shu kabilar.

5.8. Fe'l nisbatlari

Fe'ldan anglashilgan ish-harakat yoki holatning bajaruvchi shaxsga munosabati fe'l nisbatlari deyiladi. Demak, fe'llarning nisbat kategoriyasi harakat sub'ekti bilan uning ob'ekti orasidagi munosabatni ifodalaydi.

Dariy tilida uchta (aniq /aktiv/ nisbat, majhullik /passiv/ nisbati, orttirma nisbat) fe'l nisbati mavjud.

5.8.1. Aniq nisbat

فعل معلوم *fe'l-e ma'lum*

Aniq nisbatdagi fe'lda harakat ega tomonidan bajariladi. Bu nisbat orqali harakat ta'sirining o'timli fe'llarda ob'ektga o'tishi: کتاب را خواند *ketâbrâ xând* 'kitobni o'qidi'; o'timsiz fe'larda sub'ektning o'ziga xoslanishi ko'rsatiladi: خواب کرد *xâb kard* 'uxladi'.

5.8.2. Majhul nisbat

فعل مجهول *fe'l-e majhul*

Bu nisbat yordamida o'timli fe'llarda haqiqiy ob'ekt vazifasidagi so'z grammatik jihatdan ega vazifasini o'z zimmasiga olgani ko'rsatiladi, bunda sub'ekt ma'nosi ifodalanmay, yashirin holatda bo'ladi. Dariy tilida fe'lning majhul nisbati *o'tgan zamon sifatdoshi* va ko'makchi fe'l شدن *šodan* ning birikuvidan hosil bo'ladi: مقاله نوشته شد *maqâla nawešta šod* 'Maqola yozildi'. Bu gapda نوشته شد *nawešta šod* 'yozildi' fe'lida maqolani yozgan haqiqiy sub'ekt yashiringan. Aslida «yozish» harakati ob'ektga – *maqolaga* yo'naltirilgan bo'lishi kerak edi, chunki *maqola* – ob'ektidir. Biroq maqolani yozgan logik sub'ekt yashiringani sababli logik ob'ekt (maqola) grammatik jihatdan ega vazifasini ham bajarishga o'tgan.

Majhul nisbatdagi fe'llar aniq nisbatdagi fe'llarga xos bo'lgan hamma zamon va mayllarda ishlatilishi mumkin. Masalan: نوشته میشود *nawešta mēšawad* 'yoziladi', نوشته شد *nawešta šod* 'yozildi', نوشته میشد *nawešta mēšod* 'yozilardi', نوشته خواهد شد *nawešta xâhad šod* 'yozilajak', نوشته شود *nawešta šawad* 'yozilsa', نوشته شده است *nawešta šoda ast* 'yozilgan', نوشته شده بود *nawešta šoda bud* 'yozilgan edi' kabi.

Kesimi majhul nisbatdagi fe'ldan iborat bo'lgan gaplarda harakatni bajaruvchi shaxsni ko'rsatish lozim bo'lsa, harakatning bajaruvchisi به واسطه *ba wasila-ye*, از طرف *az taraf-e* /tamonidan/

ba wâseta-ye, به/ توسط / *bal/ tawassot-e*, ذریعه / *bal/ zariya-ye* (orqali, vositasi bilan) kabi murakkab old ko‘makchilar orqali birikib keladi. Bu xildagi gaplarda harakat ob‘ekti ega vazifasini o‘taydi. Harakat sub‘ekti murakkab old ko‘makchi bilan birikib, to‘ldiruvchi vazifasida va majhul nisbatdagi fe‘l esa kesim vazifasida keladi: *In ketâbxâna az ta-raf-e kârgarân barâye mohasselin-e jawân ehdâ šod* ‘Bu kutubxona ishchilar tomonidan yosh talabalarga sovg‘a qilindi’.

Eslatma. M.N.Neghat Saidiyning yozishicha, klassik adabiyotda *âyad* آید, *âmad* آمد, *gardad* گردد, *gašt* گشت, *gardid* گردید, *aftâd* افتاد kabi fe‘l formalari majhul nisbatdagi fe‘llar tarkibida ko‘makchi fe‘l vazifasida qo‘llanilgan. Masalan :

گفته آید	<i>gofta âyad</i>	‘aytilsa’,
پرداخته آمد	<i>pardâxta âmad</i>	‘kirishildi’, ‘boshlandi’,
کشته گردد	<i>košta gardad</i>	‘o‘ldirilsa’, ‘o‘ldiriladi’,
مسخر گشت	<i>mosaxxar gašt</i>	‘zabt etildi’,
گشاده گردید	<i>gošâda gardid</i>	‘ochildi’,
مذکور افتاد	<i>mazkur aftâd</i>	‘qayd etildi’, ‘eslatib o‘tildi’.

Hozirgi vaqtda ham ulardan ba‘zilari yozma adabiyotda ishlatiladi: *Albatta barâye esbât* البته برای اثبات آنچه در بالا گفته آمد، دلایل زیاد موجود است *ânče dar bâlâ gofta âmad, dalâyel-e ziyâd mawjud ast* [16: 43].

5.8.3. Orttirma nisbat

فعل اجبار *fe‘l-e ejbâr*

Orttirma nisbatda bajaruvchi o‘z harakatini boshqa bajaruvchining ta’siri natijasida bajarishi ifodalanadi.

Dariy tilida fe‘lning orttirma nisbati hozirgi zamon va (-t ga tugallangan bo‘lsa) o‘tgan zamon fe‘l negiziga *ân* ان infiksini va *dan* دن -*dan*, *idan* یدن suffikslerini /morfemalarini/ qo‘shish bilan yasaladi. Mazkur nisbat ham o‘timli, ham o‘timsiz fe‘llardan yasalishi mumkin.

Orttirma nisbat o‘timsiz fe‘llarni o‘timliga aylantiradi: *gozaštan* گذشتن ‘o‘tmoq’ – *gozarândan* گزrandan ‘o‘tkazmoq’, *gaštan* گشتن ‘aylanmoq’ – *gaštândan* گشتاندan yoki *gardândan* گرداندan ‘aylantirmoq’ kabi.

O‘timli fe‘llardan orttirma nisbat yasalganda, ish-harakatni sub‘ektga bajartirish, bajarishga majbur qilish kabi ma’nolar ifodalanadi: *xordan* خوردن ‘yemoq’ – *xorândan* خوراندان ‘yedirmoq’, *yoshidan* پوشیدن

pôšidan ‘kiymoq’ – پوشاندن *pôšândan* ‘kiygizmoq’, فهمیدن *fahmidan* ‘tushunmoq’ – فهماندن *fahmândan* ‘tushuntirmoq’, ‘uqtirmoq’ kabi.

Orttirma nisbat formasi qo‘llanganda, harakat bajaruvchisi shu forma orqali ifodalangan shaxsning o‘zi bo‘ladi. (Bunda bosh daraja formasi bildirgan harakatning kim bajarishi nazarda tutilmaydi. Shuning uchun ham juda ko‘p hollarda bu shaxs ifodalanmaydi.)

Savollar

1. *Fe’llarning tuslanishini misollar bilan tushuntirib bering.*
2. *O’tgan zamon fe’llarining turlarini ayting, har bir turini misollar bilan tushuntiring.*
3. *Dariy tilida hozirgi zamon fe’lini ma’no jihatidan necha turga bo‘lish mumkin?*
4. *Kelasi zamon fe’li hozirgi-kelasi zamon fe’lidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?*
5. *Dariy tilidagi buyruq mayli va o‘zbek tilidagi buyruq-istak maylining o‘zaro farqini tushuntiring.*
6. *Shart-istak mayli o‘zbek tilida qaysi mayl orqali ifodalanadi?*
7. *Aorist va o’tgan zamon shart-istak maylining ishlatilishini misollar bilan tushuntiring.*
8. *O‘zbek tilidagi maqsad mayli dariy tilida qanday ifodalanadi?*
9. *Fe’l nisbati deb nimaga aytiladi?*
10. *Majhul va orttirma nisbatlar yasallishini tushuntiring. Misollar keltirib, ularning o‘zaro farqini ayting.*

5.9. Fe'ning funksional shakllari (yoki tuslanishsiz fe'llar)

5.9.1. Infinitiv (harakat nomi) مصدر *masdar*

Dariy tilida infinitiv o'tgan zamon fe'l negizi va -ن -an qo'shimchasidan iborat. Mazkur forma o'zbek tilida harakat nomiga to'g'ri keladi. O'zbek tilida fe'ning harakat nomi formasi -i/sh, -u/v, -moq affikslari yordamida yasaladi:

آمدن	<i>âmadan</i>	'kelmoq', 'kelish'
خواندن	<i>xândan</i>	'o'qimoq', 'o'qish', 'o'quv'
نوشتن	<i>naweştan</i>	'yozmoq', 'yozish', 'yozuv' kabi.

Bu forma harakatning bajarilishini va shu bajarilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning nomini bildiradi, u harakat-holatning atamasi hisoblanadi. Shu sababli otlarga xos grammatik ko'rsatkichlarni qabul qila oladi, gapda otlarga xos vazifalarda kela oladi:

1. Ot kabi izofa qabul qiladi: مکتب جای آموختن علم و اخلاق است *Maktab jâ-ye âmôxtan-e elm-o axlâq ast* 'Maktab ilm va axloq o'rganish (o'rganadigan) joyidir'; نماز خواندن او وقت زیادی را نگرفت *Namâz xândan-e ô waqt-e ziyâdi-râ nagereft* 'Uning namoz o'qishi ko'p vaqt olmadi'.

2. Ot kabi old va ort ko'makchilar (o'zbek tilida: kelishik va ko'makchilar), son affikslari hamda enklitik olmoshlar (o'zbek tilida: egalik affikslari) bilan birikadi: بنده از آمدن شما ممنونم *Banda az âmadan-e šomâ mamnunam* '(Kamina) sizning kelishingizdan xursandman'; خواندن و نوشتن را زود یاد گرفت *Xândan wa naweştan-râ zud yâd gereftam* 'O'qish va yozishni tez o'rgandim'; خواندنت روان است *Xândan-at rawân ast* 'O'qishing ravon'.

3. Ot kabi ega, kesim va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi: پول یافتن آسان نیست *Pul yâftan âsân nêst* 'Pul topmoq oson emas'; او از دروغ گفتن می پرهیزد *Ô az doroy goftan mêparhêzad* 'U yolg'on gapirishdan saqlanadi'; کار نیکو کردن از پر کردن است *Kâr nêkô kardan az por kardan ast* 'Ishni yaxshi bajarmoq ko'p ishlatmoqdandir (ya'ni ko'p ishlash natijasida qo'lga kiritiladi)' (*Maqol*).

Dariy tilida, shuningdek, infinitiv ish-harakatni boshlash yoki bajarishga kirishganlik kabi ma'nolarni ifodalovchi konstruksiyalarda

qo‘llanadi: *ba* به دویدن شد *bâridan gereft* ‘yog‘a boshladi’; *dawidan šod* ‘yugura ketdi’ kabi.

Qisqartirilgan infinitiv مصدر مخم *masdar-e moraxxam*. Dariy tilida fe‘lning qisqartirilgan infinitiv shakli mavjud bo‘lib, to‘la infinitiv shaklidan ن *-an* qo‘shimchasini olib tashlash orqali hosil qilinadi. Qisqartirilgan infinitiv shakl jihatdan o‘tgan zamon fe‘l negiziga mos keladi. Masalan:

Infinitiv	Qisqartirilgan infinitiv
رفت <i>raftan</i>	رفت <i>raft</i>
دانستن <i>dânestan</i>	دانست <i>dânest</i>

Qisqartirilgan infinitiv gapda mustaqil ishlatilmaydi. U ma‘lum fe‘l formalari bilan birikib, qat‘iy kelasi zamon fe‘li (خواهم گفت *xâham goft* ‘aytaman (aytajakman)’ va shaxssiz gaplar (باید گفت *bâyad goft* ‘aytish kerak’) hosil qilishda qo‘llanadi. Qisqartirilgan infinitiv shaxs-sonda tushlangan توانستن *tawânestan* ‘qodir bo‘lmoq’ fe‘li bilan ham ishlatilishi mumkin: میتواند گفت *mêtawânand goft* ‘ayta oladilar’.

L.N.Kiseleva qisqartirilgan II termini ostida shakl jihatdan o‘tgan zamon sifatdoshiga mos keluvchi fe‘l formalari ko‘rsatadi [2: 85]. Mazkur forma, asosan, shaxs-sonda tushlangan توانستن *tawânestan* modal fe‘li bilan keng qo‘llanadi: کرده میتوانم *karda mêtawânam* ‘qila olaman’, گفته نمیتوانی *gofta namêtawâni* ‘gapira olmaysan’ kabi. Shuningdek, ba‘zi hollarda: معلم باز به نوشته شروع کرد *Mo‘allem bâz ba nawešta šoru‘ kard* ‘O‘qituvchi yana (qaytadan) yoza boshladi’.

5.9.2. Sifatdosh

Sifatdosh predmetning belgisi bo‘lgan harakatni anglatuvchi fe‘l formasidir.

Dariy tilida sifatdosh fe‘llik hamda sifatlik xususiyatlariga ega, ya‘ni zamon, nisbat, o‘timli-o‘timsizlik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik ma‘nolarini va predmet belgisini anglatib keladi.

5.9.2.1. O‘tgan zamon sifatdoshi

صفت مفعولی *sefat-e maf‘uli*

Dariy tilida o‘tgan zamon sifatdoshi o‘tgan zamon fe‘l negiziga • *-a* qo‘shimchasini, o‘zbek tilida esa fe‘l o‘zak-negiziga *-gan* (*-kan*, *-qan*), ba‘zan *-mish* affiksini qo‘shish bilan yasaladi:

آمدن *âmadan* ‘kelmoq’ – آمد *âmad* – آمده *âmada* ‘kelgan’
 رفتن *raftan* ‘bormoq’ – رفت *raft* – رفته *rafta* ‘borgan’ va sh.k.

Dariy tilida o‘timsiz fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshlari aniqlik nisbati ma’nosiga ega bo‘ladi: *gozaştan* ‘o‘tmoq’ – *gozašta* ‘o‘tgan’, *nešastan* ‘o‘tirmoq’ – *nešasta* ‘o‘tirgan’; o‘timli fe’llardan yasalgani esa ham aniqlik, ham majhullik nisbati ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin: *bar-âwarda* ‘barjargan’, ‘bajarilgan’, *kâšta* ‘ekkan’, ‘ekilgan’ kabi.

Biroq sifatdoshlarning majhul ma’nosi, ko‘pincha, *šodan* orqali ifodalanadi: *bar-âwarda šoda* ‘bajarilgan’.

O‘tgan zamon sifatdoshi gapda:

1. Aniqllovchi bo‘lib keladi:

سال گذشته *sâl-e gozašta* ‘o‘tgan yil’
 زبانهای مرده *zabânâ-ye morda* ‘o‘lik tillar’
 آب ایستاده *âb-e istâda* ‘ko‘lmak (to‘xtagan) suv’
 درخت سبز شده *daraxt-e sabz šoda* ‘ko‘kargan daraxt’ va h.k.

2. Ba’zi bir sifatdoshlar otlashib, otga xos bo‘lgan morfologik belgilarni qabul qiladi va ot bajargan vazifalarda ishlatiladi (bunda sifatdosh bog‘langan ot tushib qoladi):

گفته *gofta* ‘gap’, ‘so‘z’, ‘aytilgan’,
 مرده *morda* ‘o‘lik’, ‘o‘lgan’,
 یادی از رفتگان *yâdi az raftagân* ‘o‘tganlar xotirasi’;
 شنیده کی بود مانند دیده *Šonida kay bowad mânand-e dida* ‘Eshitgan qachon ko‘rgandek bo‘ladi (bo‘libdi)’
 (ya’ni, eshitgan hech qachon ko‘rganga (ko‘rgan bilan) teng bo‘lolmaydi);
 مار گزیده از ریسمان میترسد *Mâr gazida az rêsmân mêtarsad* ‘Ilon chaqqan (odam) arqondan qo‘rqadi’.

Dariy tilida o‘tgan zamon sifatdoshi *-gi* qo‘shimchasi orqali ham yasaladi. Sifatdoshning bu shakli aksariyat izofali birikmalarda aniqllovchi vazifasida keladi: *ketâb-e xândagi* ‘o‘qilgan kitob’, *čâh-e kandagi* ‘qazilgan quduq’.

Mazkur sifatdosh so‘zlashuv tilida kesim vazifasida ham qo‘llanadi: *Injâ yak čâh kandagi-st* ‘Bu yerda quduq qazilgan’.

Dariy tilida o‘tgan zamon sifatdoshi o‘tgan zamon ravishdoshi vazifasida ham keladi («Ravishdosh» mavzuiga qarang).

5.9.2.2. Hozirgi zamon sifatdoshi

صفت فاعلى *sefat-e fâ'eli*

Dariy tilida hozirgi zamon sifatdoshi fe'lining hozirgi zamon negiziga *-enda*, ان *-ân*, ا *-â* affikslarini, o'zbek tilida esa fe'l o'zak-negiziga zamon affiksi *-a/yo't* va sifatdosh yasovchi affiks *-gan* ni qo'shish orqali yasaladi. O'zbek tilida, shuningdek, fe'l o'zak-negiziga *-vchi* (*-uvchi*) affiksining qo'shilishidan hosil bo'luvchi forma ham sifatdosh hisoblanadi.

1. *-enda* affiksi juda mahsuldor bo'lib, mazkur affiks orqali yasalgan sifatdoshlar, asosan, shaxs oti vazifasida keladilar: نویسنده *nawisenda* 'yozuvchi' (نویس *nawis* – نوشتن *naweštan* 'yozmoq' fe'lining HZN); گوینده *gôyanda* 'gapiruvchi', 'diktör' ((گوی *gô/y/* – گفتن *goftan* 'gapirmoq' fe'lining HZN); فروشنده *forôšenda* 'sotuvchi' (فروش *forôš* – فروختن *forôxtan* 'sotmoq' fe'lining HZN); خواننده *xânenda* 'o'quvchi' (خوان *xân* – خواندن *xândan* 'o'qimoq' fe'lining HZN).

2. ان *-ân* affiksi orqali yasalgan hozirgi zamon sifatdoshlari ravishdosh vazifasida ham kela oladi: خندان *xandân* 'kulayotgan'; 'kulib', 'kula-kula'. Hozirgi vaqtda ان *-ân* affiksi bilan yasalgan sifatdoshlar taqriban sifat va ravish turkumiga o'tgan (ko'chgan): اشک سوزان *aşk-e sôzân* 'achchiq (kuydiradigan) ko'z yoshi', آب روان *âb-e rawân* 'oqar suv', نفس زنان *nafas zanân* 'harsillab', 'entikib' kabi. Mazkur forma qo'shma fe'llar tarkibida fe'llik xususiyatlarini saqlab qoladi: گریان کردن *geri-yân kardan* 'yig'lamoq' kabi.

3. ا *-â* affiksi kammahsul bo'lib, sanoqli fe'llardangina sifatdosh yasaydi (hozirda bu affiks orqali sifatdosh yasalmaydi): بینا *binâ* 'ko'ra oladigan', 'ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan' (بین *bin* – دیدن *didan* 'ko'rmoq' fe'lining HZN); شنوا *šonawâ* 'eshita oladigan', 'eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan' (شنو *šonaw* – شنیدن *šonidan* 'eshitmoq' fe'lining HZN); دانا *dânâ* 'dono', 'donishmand' (دان *dân* – دانستن *dânestan* 'bilmoq', 'bilimga ega bo'lmoq' fe'lining HZN).

Mazkur forma ham qo'shma fe'llar tarkibida ishlatiladi: جویا شدن *jôyâ šodan* 'qidirmoq', 'surishtirmoq' (جوی *jôy* – جستن *jostan* 'qidirmoq'), دارا بودن *dârâ budan* 'ega bo'lmoq' (دار *dâr* – داشتن *dâštan* 'ega bo'lmoq') kabi.

5.9.2.3. Kelasi zamon sifatdoshi

Dariy tilida kelasi zamon sifatdoshi fe'l masdariga urg'uli *ی -i* (*yâ-ye liyâqat*)ni, o'zbek tilida esa fe'l o'zak-negiziga *-digan*, *-a/r/-mas/* va *ba'zan -jak /-ajak/*, *-asi*, *-gusi* affikslarini qo'shish bilan hosil qilinadi: آمدن *âmadan* 'kelmoq' – آمدنی *âmadani* 'keladigan'; دیدن *didan* 'ko'rmoq' – دیدنی *didani* 'ko'radigan', 'ko'rishlik'.

Dariy tilida kelasi zamon sifatdoshi *ba'zan* otlashib, gapda ot bajargan vazifalarda yoki fe'lga aylanib, kesim vazifasida kelishi mumkin. Sifatdosh kesim vazifasida kelganida, هست *hast* bog'lamasi yoki بودن *budan* ko'makchi fe'li bilan birikib, ish-harakatni bajarishga bo'lgan istak, xohish hamda zaruriyat va lozimlik ma'nolarini, شدن *šodan* ko'makchi fe'li bilan birikib, biror ish-harakat yoki jarayonni bajarish istagi paydo bo'lganini yo amalga oshira boshlaganligini bildiradi. Masalan:

نویشدنی *nôšidani* 'ichiladigan' va 'ichimlik';

خوردنی *xordani* 'yesa bo'ladigan', 'yeyiladigan' va 'yegulik', 'ovqat';

احمد به کابل رفتنی است *Ahmad ba Kâbol raftani ast* 'Ahmad Kobulga boradigan (bormoqchi)';

بهار که آمد گلها چیدنی شد *Bahâr ke âmad golhâ čidani šod* 'Bahor kelishi bilan gullar teriladigan bo'ldi';

وی امروز آمدنی بود *Way emrôz âmadani bud* 'U bugun kelishi kerak edi'.

5.9.3. Ravishdosh

وجه (وجهه) وصفی *wajh-e (wajha-ye) wasfi*

Ravishdosh harakat belgisini bildiradigan, uni bir tomondan xarakterlaydigan fe'l formasidir. Ravishdoshlarning zamoni nisbiy bo'ladi, ya'ni shu gapdagi tuslangan fe'lning zamoniga nisbatan belgilanadi.

Dariy tilida ravishdosh uchun maxsus grammatik forma yo'q. O'tgan zamon sifatdosh formasi bir vaqtda ravishdosh uchun ham qo'llanadi. Bu shaklning sifatdosh yoki ravishdosh ekanligi uning gapda bajargan vazifa va ma'nolariga qarab belgilanadi. Sifatdosh gapda, asosan, aniqlovchi, shuningdek, otlashganda otga xos vazifa-

larni, ravishdosh esa hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi. Dariy tilida o'tgan zamon sifatdoshi ravishdosh vazifasida kelganda, o'zbek tilida o'tgan zamon ravishdoshiga to'g'ri keladi: گوشه دسترخوان را قات کرده جلوتر نشست و سرش را نزدیک آورده کمی آهسته تر گفت *Gôša-ye dastarxân-râ qât karda jelawtar nešast wa saraš-râ nazdik âwarda kami âhestatar goft* 'Dasturxon chetini buklab yaqinroq o'tirdi va boshini yaqinlashtirib sekin(gina) dedi...'.

Mazkur formaning bo'lishsiz shakli ravishdosh oldiga *na-* in kor prefiksini keltirish orqali yasaladi:

Ô in ketâb-râ naxânda namêtawânad kâr-e elmi-ye xôd-râ benawisad 'Bu kitobni o'qimay (o'qimasdan), u o'z ilmiy ishini yoza olmaydi'.

Dariy tilida hozirgi zamon sifatdoshi ham ravishdosh vazifasida qo'llana oladi [2: 86] va, odatda, gapda tushlangan fe'l ifodalagan asosiy harakat bilan bir vaqtda bo'lgan harakatni bildiradi:

بچه گریه کنان از اطاق بیرون شد *Bača geryakonân az otâq bêrun šod* 'Bola yig'lagancha (yig'lab) uydan chiqdi'.

Savollar

1. *Infinitiv gapda qanday vazifalarda kela oladi?*
2. *Qisqartirilgan infinitiv qaysi holatlarda ishlatiladi?*
3. *Sifatdosh nimani bildiradi?*
4. *Sifatdoshning fe'llik va sifatlik belgilarini aytib bering.*
5. *O'tgan zamon sifatdoshining hosil bo'lishini misollar bilan tushuntiring.*
6. *Hozirgi zamon sifatdoshiga misol keltiring, hosil bo'lishini tushuntiring.*
7. *Kelasi zamon sifatdoshi qanday vazifalarda qo'llaniladi?*
8. *Otlashgan sifatdoshga 10 ta misol yozing.*
9. *Dariy tilida ravishdosh qanday ifodalanadi?*
10. *Ravishdosh gapning qaysi bo'lagi bo'lib keladi?*

VI. RAVISH قید qayd

Ravish turkumiga oid soʻzlar ish-harakatning belgisini, belgining (sifat yoki ravishning) belgisini va baʼzan predmet belgisini bildiradi.

Ravish ish-harakatning belgisini bildirganda, bajarilish jara-yonini, holatini, paytini, oʻrnini koʻrsatadi:

کارش را پوره خلاص کرد *Kâraş-râ pura xalâs kard* ‘U ishini bu-tunlay tugatdi’; همیشه آماده هستیم *Hamêşa âmâda (h)astêm* ‘Doim tayyormiz’; امروز هوا سرد است *Emrôz hawâ sard ast* ‘Bugun havo sovuq’.

Ravish sifat yoki ravish oldidan kelib, ulardagi belgining dara-jasini koʻrsatadi, ot oldida esa predmet belgisining boshqa belgiga oʻxshashligini yoki sifatiy belgini bildiradi: من خیلی آهسته راه میرفتم *Man xêle âhesta râh mêraftam* ‘Men juda sekin borardim’; رفتار خیلی *arusi* عروسی بطرز نوین *raftâr-e xelê âhesta* ‘juda sekin harakat’; *ba tarz-e nawin* ‘yangicha toʻy’.

Ravishlar oʻzlari bogʻlangan soʻzlarga bitishuv yoʻli bilan biri-kadi.

Dariy tilida ham, oʻzbek tilidagidek, ravish soʻz turkumi sifatida shakllanayotgan paytda oʻz tarkibini boshqa soʻz turkumlaridan ajra-lib chiqqan soʻzlar: ot, sifat, olmosh, sifatdoshlar (oʻzbek tilida: ra-vishdosh) hisobiga toʻldirgan. Hozirgi vaqtda ravishlarning maʼlum qismini boshqa turkumdan ravishga koʻchgan soʻzlar tashkil etadi. Ravishlashgan soʻzlar zaruriyat tugʻilishi natijasida vaqtincha ravish vazifasini bajarib kelgan boʻlib, oʻz turkumiga xos leksik-grammatik xususiyatlarni yoʻqotgan emas. Masalan, shunday soʻzlar borki, ular ham sifat, ham ravish vazifasida qoʻllana oladi:

بلند میخواند *âwâz-e beland* ‘baland ovoz’ — *beland mê-xânad* ‘baland oʻqiydi’;

خوب جواب داد *xub jawâb dâd* ‘yaxshi qiz’ — *doxtar-e xub* ‘yaxshi javob berdi’;

چشمان خمارآلود *čaşmân-e xomârâlud* ‘sarxush (mastona) koʻzlar’ — *xomârâlud pêş-e man âmad* ‘shirakayf oldimga keldi’.

Biroq ravishlar, leksik maʼnosiga koʻra, harakatning belgisini bildirib, gapda hol vazifasida, sifatlar predmetning belgisini bildirib, gapda aniqlovchi vazifasida keladi.

Shuningdek, ot soʻz turkumida (ayniqsa, zamon va tomon maʼnosini ifodalovchi ayrim otlarda) ravishga koʻchgan va koʻchish jarayonini kechirayotgan soʻzlar uchraydi: شب *šab* ‘kechqurun’, صبح *sobh* ‘ertalab’, بیرون رفت (به) *(ba) bêrun raft* ‘tashqariga chiqdi’, به پیش بروید *ba pêš berawêd* ‘oldinga yuring’.

6.1. Ravishlarning yasalishi⁸

6.1.1. Yasama ravishlar

Dariy tilida ravish yasovchi quyidagi affiksalar mavjud:

ان *-ân* – بهاران *bahârân* ‘bahorda’, بامدادان *bâmdâdân* ‘ertalab’.

گاه *-gâh* – سحرگاه *sahargâh* ‘sahar vaqti’, ‘tongotarda’.

دم *-dam* – سپیده دم *sapêdadam* ‘tong’, ‘tongotar (payti)’, صبحدم *sobhdam* ‘azon’, ‘erta tong’.

گاهان *-gâhân* – صبحگاهان *sobhgâhân* ‘ertalab’, ‘tongda’, شامگاهان *šâmgâhân* ‘kechqurun’.

انگاه *-ângâh* – شبانگاه *šabângâh* ‘tunda’.

ا *-an* – فوراً *fawran* ‘tezda’, ‘kechiktirmay’, دفعتاً *daf’atan* ‘toʻsatdan’, ‘birdan’, دایماً *dâyeman* ‘doimo’.

ا *-â* – حالا *hâlâ* ‘hozir’, اصلاً *aslâ* ‘butunlay’.

Eslatma. Yozuvda baʼzan ‘tanvin’ (ْ *-an*)ning tushib qolishi talaffuzga ham koʻchgan; qiyoslang: اصلاً *aslan* – اصلاً *aslâ* ‘butunlay’, ‘aslo’, مطلقاً *motlaqan* – مطلقاً *motlaqâ* ‘mutlaqo’, ‘batamom’.

کی *-aki* – دزدکی *dozdaki* ‘oʻgʻrincha’, پتکی *potaki* ‘yashirincha’, ‘bekitiqcha’.

Shuningdek, quyidagi old koʻmakchi va prefikslar yordamida yasaladi:

از *az-* – از سر *azsar* ‘boshidan’, ‘qaytadan’, از قضا *azqazâ* ‘tasodifan’, ‘bexosdan’.

در *dar-* – در حال *darhâl* ‘darhol’, ‘shu zahoti’.

به *ba-* – بناحق *banâhaq(q)* ‘nohaq’, ‘aybi boʻlmagan holda’, بخوبی *baxubi* ‘yaxshilab’, ‘yaxshilikcha’.

⁸ Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, kontekstda sifatlar ravish turkumiga oʻta oladi. L.N.Kiselevaning fikricha, dariy tilida «taxminan har qanday asliy sifat ravish boʻlib kelishi mumkin» [2: 77]. Sifatlarning yasalishi oldingi mavzularda yoritilgani sababli biz faqat ravishlarga xos holatlar bilan tanishib chiqamiz.

بلا *belâ* – (inkor prefiksi): *belâfâsela* ‘kechiktirmasdan’, ‘tezlikda’, بلا شرط *belâšart* ‘shart qo‘ymasdan’, ‘e’tiroz bildirmay’, ‘so‘zsiz’.

Arab tilidan kirib kelgan old ko‘makchili birikmalar ham ishlatiladi: الفور *filfawr* ‘kechiktirmay’, ‘hoziroq’, الجملة *filjumla* ‘umuman’, ‘butunlay’, الحال *filhâl* ‘hozirgi vaqtda’, في الحقيقت *filhaqiqat* ‘darhaqiqat’, ‘haqiqatan’, بالكل *belkoll* ‘mutlaqo’, ‘butunlay’, بالقصد *belqasd* ‘qasdan’, ‘atayin’, ‘ataylab’ va h.k.

6.1.2. Qo‘shma ravishlar

Dariy tilida so‘z qo‘shish bilan yasalgan ravishlar tarkibida turli so‘z turkumlari qatnashishi mumkin, ular quyidagichadir:

1. Ko‘rsatish olmoshlaridan so‘ng o‘rin ma‘nosidagi جا *jâ* ‘yer’, طرف *taraf* ‘yoq’, سو(ي) *su(y)* ‘tomon’, ‘yoq’ kabi so‘zlarni keltirish orqali ravish yasaladi: اینجا (در، به) *(dar, ba) injâ* ‘bu yerda’, ‘bu yerga’, آن سو *ânsu* ‘u yoqqa’, ‘u yoqda’ kabi.

O‘zbek tilida ko‘rsatish olmoshlaridan keyin keladigan so‘zlar o‘rin kelishiklari formasida qo‘llanadi.

Ko‘rsatish olmoshlari ba‘zan payt ma‘nosini bildirgan otlar bilan birikib, ravish hosil qiladi: در این روز *ân rôz* ‘o‘sha kuni’, dar in *asnâ* ‘shu asnoda’, ‘bu vaqtda’, در این زمان *dar in zamân* ‘shu (bu) zamonda’ kabi.

2. هر *har* ‘har’, همه *hama* ‘hamma’, هیچ *hêč* ‘hech’ olmoshlarining payt, o‘rin ma‘nosidagi so‘zlar bilan qo‘shiluvidan ravish yasaladi: هر جا *har jâ* ‘har yer(-da, -dan, -ga)’, هر وقت *har waqt* ‘har vaqt(-da)’, همه جا *hama jâ* ‘hamma joy’, ‘hamma yer(-ga, -da, -dan)’, هیچ وقت *hêč waqt* ‘hech vaqt’, ‘hech qachon’, هر لحظه *har lahza* ‘har lahza(-da)’ va sh.k.

3. Son bilan otlarning birikuvidan ravish yasaladi (o‘zbek tilida ‘bir’ so‘zining bosh va o‘rin kelishiklaridagi so‘zlar bilan qo‘shilishi orqali): يک نفس *yaknafas* ‘bir onda’, ‘bir nafasda’, یکباره *yakbâra* ‘bir yo‘la’, birdan(iga) *dubâra* ‘qaytadan’, ‘takror’, دو دسته *dudasta* ‘ikki qo‘llab’, یکدفعه *yakdaf’a* ‘bir gal’ kabi.

So‘zlarning takrorlanishi bilan ravish yasalishi quyidagicha:

1. Bir so‘z aynan takrorlanadi:

زود زود *zudzud* ‘tez-tez’,

آهسته آهسته *âhesta-âhesta* ‘asta-sekin’,
 گاه گاه *gâhgâh* ‘ba’zan’, ‘gohida’, ‘goh-goh’,
 کم کم *kamkam* ‘sekin-asta’, ‘tobora’,
 رفته رفته *raftarafta* ‘oz-ozdan’, ‘asta-sekin’, ‘bora-bora’,
 دوان دوان *dawândawân* ‘tez’, ‘ildam’, ‘chopganča’,
 ‘yugurib’.

2. Soʻzlar takrorlanganda, juft ravishlar tarkibida ularni bir-biriga bogʻlash uchun *-â-*, *-ba-*, *-tâ-*, *-dar-* infikslari (oʻzbek tilida: morfologik forma-kelishik affikslari va *-ma* (*-ba*) elementi) ishlatiladi:

یکایک *yakâyak* ‘birma-bir’, ‘batafsil’, ‘to’la’,
 دورادور *dawrâdawr* ‘har yerda’, ‘hamma yoqda’, ‘teva-
 rak-atrof (-ga, -da)’,
 روز به روز *rôz-ba-rôz* ‘kundan-kun(-ga)’,
 سال به سال *sâl-ba-sâl* ‘yildan-yil(-ga)’,
 سر تا سر *sar-tâ-sar* ‘butunlay’, ‘boshdan-oyoq’, ‘batamom’,
 دم بدم *dam-ba-dam* ‘damma-dam (dam-badam)’,
 پی در پی *pay-dar-pay* ‘tinmasdan’, ‘uzluksiz’, ‘ketma-ket’.

3. Dariy tilida qarama-qarshi maʼnoli va baʼzan maʼnodosh soʻzlar takrorlanganda, *-o-* infiksi (bogʻlovchisi) qoʻllanadi:

شب و روز *šab-o-rôz* ‘kecha-kunduz’,
 کم و بیش *kam-o-bêš* va زیاد *kam-o-ziyâd* ‘birmuncha’,
 ‘ozmi-ko’pmi’, ‘ma’lum darajada’,
 افتان و خیزان *oftân-o-xêzân* ‘arang’, ‘zo’rg’a’, ‘bazo’r’,
 بی کم و کاست *bekam-o-kost* ‘bekamu-ko’st’.

Ilova.

1. Koʻplik affiksi (*-hâ -lar*) ravish tarkibida davomiylik va noaniqlik maʼnosini bildiradi: *qadimhâ* ‘ilgarilari’, ‘oʻtgan zamonlarda’, *pêshâ* ‘ilgarilari’, ‘avvallari’, *šabhâ* ‘kechqururlari’ kabi. Misol: *Mâdaram šabhâ ba mâ afsâna hekâyat mêkard* ‘Onam kechqururlari bizga er-tak soʻzlab berardi’.

2. *yâ* artikli (*yâ-ye wahdat wa yâ-ye nakara*) vositasida yasalgan ravishlar oʻzbek tilidagi ‘bir’ soʻzi orqali yasalgan ravishlarga toʻgʻri keladi: *qadrê* ‘bir qancha’, ‘bir oz’, ‘oz-

gina' قدر *qadr* 'miqdor', 'son', 'o'lvov', 'daraja'), روزی *rôzê* 'bir kun' (روز *rôz* 'kun') kabi.

3. O'zbek tilida ayrim barqaror so'z birikmalari yaxlit holda ravishga ko'cha olganidek, dariy tilida ham ba'zi izofiy va so'z birikmalari ravish vazifasida keladi: دست خالی *dast-e xâli* 'hech narsasiz' (so'zma-so'z: 'quruq qo'l bilan'), پای پیاده *pây-e piyâda* 'yayov', 'piyoda', سال گذشته *sâl-e gozašta* 'o'tgan yili', از صبح تا شام *az sobh tâ šâm* 'ertadan-kechgacha' va sh.k.

6.2. Ravishlarning ma'nosiga ko'ra turlari

انواع قید از نگاه معنی *anwâ'-ye qayd az negâh-e ma'ni*

Dariy tilida ravishlarni ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Holat ravishi و چگونگی قید حالت *qayd-e hâlat wa čegunagi*.
2. Payt ravishi قید زمان *qayd-e zamân*.
3. O'rin ravishi قید مکان *qayd-e makân*.
4. Miqdor-daraja ravishi قید مقدار *qayd-e meqdâr*.

6.2.1. Holat ravishi

قید و حالت و چگونگی *qayd-e hâlat wa čegunagi*

Holat ravishlari ish-harakatning bajarilish usulini, qay tarzda yuzaga kelishini bildiradi. Fe'ldan boshqa so'zlarning belgisini ko'rsatib kelganda esa o'xshatish yoki qiyoslash ma'nolarini ifodalaydi:

آهسته	<i>âhesta</i> 'asta-sekin', 'ohista',
دفعتاً	<i>daf'atan</i> 'qo'qqisdan', 'birdan',
قهرمانانه	<i>qahramânâna</i> 'qahramonlarcha', 'qahramonona',
شتاب زده	<i>šetâbzada</i> 'shoshganicha', 'shoshilganicha'.

6.2.2. Payt ravishi

قید زمان *qayd-e zamân*

Payt ravishlari ish-harakatning yuzaga kelgan vaqtini, muddatini bildiradi. Fe'l bo'lmagan so'zlarga taalluqli bo'lganda ham, voqea-hodisaning sodir bo'lish paytini ko'rsatadi:

امروز	<i>emrôz</i> 'bugun',
هنوز	<i>hanuz</i> 'hanuz',

حالا *hâlâ* ‘hozir’,
هرگز *hargez* ‘hech qachon’,
ناگاه *nâgâh* ‘birdan’, ‘to‘satdan’,
روز به روز *rôz-ba-rôz* ‘kundan-kun(-ga)’ va sh.k.

6.2.3. O‘rin ravishi

قید مکان *qayd-e makân*

O‘rin ravishlari, odatda, ish-harakatning yuzaga chiqish o‘rnini, yo‘nalishini ko‘rsatadi. Umuman, narsa-predmetning biror yerda mavjud bo‘lishini bildirganda, ravish harakat ma’nosini bildirgan so‘zlarga taalluqli bo‘lishi shart emas:

اینجا *injâ* ‘bu yer(-da, -ga)’,
پیش *pêš* ‘oldinga’, ‘olg‘a’,
هر جا *har jâ* ‘har yer(-da, -ga)’,
نزدیک *nazdik* ‘yaqin(-da)’,
بالا *bâlâ* ‘yuqori(-da, -ga)’,
دورادور *dawrâdawr* ‘har yer(-da, -dan, -ga)’ va sh.k.

O‘rin ravishining ma’nosi o‘rin ma’nosini bildiradigan otning ma’nosiga nisbatan umumiy, mavhum bo‘ladi: در کابل *dar Kâbol* ‘Kobulda’, از کوه *az kôh* ‘tog‘dan’, به باغ *ba bâğ* ‘bog‘ga’ o‘rin ma’nosini bildiruvchi otlardir.

6.2.4. Miqdor-daraja ravishi

قید مقدار (اندازه، کمیت) *qayd-e meqdâr (andâza, kamiyat)*

Miqdor-daraja ravishlari, odatda, ish-harakatning miqdoriy sifatini – darajasini yoki sifat bilan ravishning kuchaytiruv yoki kuchsizlantiruv ma’nosini ko‘rsatib keladi:

بسیار *besyâr* ‘ko‘p’, ‘juda’, ‘g‘oyat’,
کم *kam* ‘kam’,
دیگر *digar* ‘yana’,
اندک *andak* ‘bir oz’, ‘andak’, ‘ozgina’,
خیلی *xêlê* ‘juda’,
چندان *čandân* ‘shuncha’, ‘shu qadar’ va sh.k.

Ilova. N.Saidiy بسیار *besyâr*, خیلی *xêlê* so‘zlarini ravish hamda sifatdan oldin kelib, ularga kuchaytiruv ma’nosini beruvchi so‘zlar

(«شدت دهند» *šeddat dehenda*) deb ataydi [16: 70]. Lekin biz bularga ravish – kuchaytiruv ravishlari deb qaraymiz. Yuqorida aytib o‘tilganidek, miqdor-daraja ravishlarini ma’no jihatdan yana ikki guruhga: kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ravishlariga bo‘lish mumkinki, bular harakat yoki belgi ma’nosining ortiq yoki kamlik xususiyatlarini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Eslatma. Ravishning yuqorida ko‘rsatilgan turlaridan tashqari, ish-harakatning bajarilishidagi sababni anglatadigan sabab ravishi (از لاعلاجی *az lâ‘elâji* ‘noilojlikdan’, ‘chorasizlikdan’), ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatadigan maqsad ravishi (قصداً *qasdan* ‘qasddan’, ‘ataylab’) ham bor.

6.3. Ravishlarda daraja

Ravish ham sifat kabi daraja anglatish xususiyatiga ega, biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish darajalari, odatda, ish-harakat belgisining boshqa belgiga nisbatlab ortiq-kamligini bildiradi. Daraja ma’nosi sifat darajalaridagi vositalarning o‘zi bilan, ya’ni qiyosiy daraja تر *-tar* (o‘zbek tilida *-roq*), orttirma daraja ترین *-tarin* (o‘zbek tilida *eng, juda, g‘oyat(da), nihoyat(da)*) kabi kuchaytiruv ravishlari) bilan ifodalanadi:

آهسته تر *âhestatar* ‘sekinroq’,
 زودتر *zudtar* ‘tezroq’,
 پیشتر *pêštar* ‘avvalroq’, ‘ilgariroq’,
 زودترین *zudtarin* ‘juda tez’, ‘eng tez’,
 پیشترین *pêštarin* ‘eng avval’ va sh.k.

Savollar

1. Qanday so‘zlar ravish turkumiga kiradi?
2. Ravishlar gapda qanday vazifalarni bajaradi?
3. Ravishlarning yasallish usullarini misollar bilan aytib bering.
4. Ravishlarning ma’no jihatdan turlarini ayting, har biriga misol keltiring.
5. Ravishlarda daraja ma’nosi qanday ifodalanadi?

Asosiy:

1. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. – М.: Наука, 1973. – 152 с.
2. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – 126 с.
3. Островский Б.Я. Учебник языка дари. Часть 1. – М.: Наука, 1994. – 371 с.
4. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1973. – 199 с.
5. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1975. – 206 с.
6. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М.: Наука, 1981. – 275 с.
7. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. – 600 с.
8. Уралов Х.У. Научно-техническая терминология современного языка дари. – Т.: Фан, 1990. – 102 с.
9. Фархади Раван. Разговорный фарси в Афганистане. – М., 1974.
10. Чавчавадзе Т.А. Именное словосложение в новоперсидском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1981. – 374 б.
11. Hojiev A. O‘zbek tilida qoshma, juft va takroriy so‘zlar. – T.: Ozfanakadnashr, 1963. – 146 b.
12. Hojiev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. – T.: O‘qituvchi, 1989. – 110 b.
13. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
14. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I tom. – T.: Fan, 1966. – 392 b.
15. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. – T.: Fan, 1975. – 612 b.
16. نگهت سعیدی محمد نسیم. دستور زبان معاصر دری. - کابل، ۱۳۴۹.

Qo‘shimcha:

1. Островский Б.Я. Эвиденциальность и перфектные формы//Вопросы языкознания. – М.,1997. – №6. – С. 75-88.
2. Островский Б.Я. Вопросы грамматической семантики глагола языка дари. – М.: Гуманитарий, 2004. – 380 с.
3. Shokirov O.Z. Dariy tili. 2 qism. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004. – 156 b., 136 b.
4. <http://www.google.ru>

MUNDARIJA

Kirish	3
Morfologiya	5
Soʻz turkumlari	5
I. Ot	6
1.1. Otlarning grammatik kategoriyalari	7
1.2. Otlarda son	7
1.2.1. Dariy tilida arabcha koʻplik shakli	9
1.2.2. Arab koʻplik affikslari	10
1.3. Otlarda birlik va noaniqlik	10
1.4. <i>râ</i> ort koʻmakchisi (poslelogi)	12
1.5. Otlarning yasalishi	14
1.5.1. Yasama otlar.....	15
1.5.2. Qoʻshma otlar.....	18
1.5.3. Kichraytirish va erkalash otlari yasovchi affikslar	22
II. Sifat	23
2.1. Sifat darajalari	24
2.2. Sifatlarning yasalishi	26
2.2.1. Yasama sifatlar	26
2.2.2. Sifat yasovchi old qoʻshimchalar	28
2.2.3. Qoʻshma sifatlar	29
III. Son	33
3.1. Miqdor sonlar	34
3.1.1. Sanoq son	35
3.1.2. Dona son.....	35
3.1.2.1. Hisob soʻzlari	35
3.1.3. Chama son	36
3.1.4. Jamlovchi son.....	37
3.1.5. Taqsim son	37
3.1.6. Kasr sonlar	38
3.2. Tartib sonlar	39
IV. Olmosh	41
4.1. Kishilik olmoshlari	41
4.2. Koʻrsatish olmoshlari	42
4.3. Oʻzlik olmoshi.....	43

4.4. So‘roq olmoshlari	45
4.5. Belgilash olmoshlari	46
4.6. Bo‘lishsizlik olmoshlari	48
4.7. Gumon olmoshlari	49
4.8. Birikuvchi olmoshlar (egalik olmoshlari)	50
4.9. Birgalik olmoshlari	52
V. Fe’l	54
5.1. Fe’l negizi	54
5.2. Fe’llarning yasalishi	57
5.2.1. Sodda fe’llar	57
5.2.1.1. Otdan yasalgan fe’llar	57
5.2.2. Prefiksli fe’llar	58
5.2.3. Qo‘shma fe’llar	58
5.3. O‘timli va o‘timsiz fe’llar	66
5.4. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar	67
5.5. Tuslanishli fe’llar	68
5.5.1. Dariy tilida shaxs-son qo‘shimchalari (ko‘rsatkichlari) .	68
5.5.2. Forma yasovchi prefikslar (yoki fe’l prefikslari)	69
5.6. Fe’l mayllari	69
5.6.1. Ijro mayli	70
5.6.1.1. O‘tgan zamon aniq fe’li	70
5.6.1.2. O‘tgan zamon davom fe’li	71
5.6.1.3. O‘tgan zamon natijali fe’li	71
5.6.1.4. Uzoq o‘tgan zamon fe’li	73
5.6.1.5. Hozirgi zamon fe’li	74
5.6.1.6. Kelasi zamon fe’li	76
5.6.2. Buyruq mayli	77
5.6.3. Shart-istak mayli	79
5.7. Fe’llarda tarz (tus-vid) kategoriyasi	81
5.8. Fe’l nisbatlari	82
5.8.1. Aniq nisbat	82
5.8.2. Majhul nisbat	82
5.8.3. Orttirma nisbat	83
5.9. Fe’lning funksional shakllari (yoki tuslanishsiz fe’llar)	85
5.9.1. Infinitiv (harakat nomi)	85
5.9.2. Sifatdosh	86

5.9.2.1. O'tgan zamon sifatdoshi	86
5.9.2.2. Hozirgi zamon sifatdoshi	88
5.9.2.3. Kelasi zamon sifatdoshi	89
5.9.3. Ravishdosh	89
VI. Ravish	91
6.1. Ravishlarning yasalishi	92
6.2. Ravishlarning ma'nosiga ko'ra turlari	95
6.2.1. Holat ravishi	95
6.2.2. Payt ravishi	95
6.2.3. O'rin ravishi	96
6.2.4. Miqdor-daraja ravishi	96
6.3. Ravishlarda daraja	97

Texnik muharrir:

Mirolim Zarifov

Komp. verstkasi:

Mirolim Zarifov

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma, 16.10.2008).

© Alimova Xolida, 2008